


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

FIZIKA FANIDAN MASALALAR TO'PLAMI

I qism



Tuzuvchilar: B.Y. Umirzakov, A.A. Abduvayitov, X.X. Boltayev.
«Fizika fanidan masalalar to‘plami (I qism)» // O‘quv-uslubiy
qo‘llanma. – T.: ToshDTU, 2015, 154 b.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma texnika oliy o‘quv yurtlari
talabalari uchun “Umumiy fizika” fanining hozirgi zamонави
dasturi asosida tayyorlangan. Asosiy masalalar V.S. Volkenshteyn
ning “Umumiy fizika kursidan masalalar to‘plami” kitobidan
olingan. Har bir bobning boshlang‘ich qismida, shu bobga tegishli
asosiy formulalar berilgan. Shu bilan bir qatorda ba’zi masalalar
yechimlari, mavzuni mustahkamlash uchun sinov testlari, hamda
kitob so‘ngida mavzularga oid ilovalar ham joy olgan.

Taqrizchilar:

- | | |
|---------------|--|
| Nurmatov N.A. | – O‘zMU Fizika fakulteti “Yarim
o‘tkazgichlar va polimerlar fizikasi”
kafedrasi dotsenti, f-m.f.n. |
| Usmonov M. | – ToshDTU, “Umumiy fizika” kafedrasi
dotsenti, f-m.f.n. |

Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-uslubiy kengashi
qaroriga binoan chop etildi.

KIRISH

XALQARO BIRLIKLER TIZIMI

Turli xilda fizik kattaliklar, bu kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni ifodalovchi tenglamalar orqali o‘zaro bog‘langan. Masalan, m massali jismning olgan a tezlanishi ta’sir etuvchi F kuch bilan quyidagi tenglama orqali bog‘langan:

$$F = kma \quad (1)$$

bu yerda, k – sonli koefitsiyent bo‘lib, uning qiymati F , m va a larning qanday birlikda o‘lchanishiga bog‘liqdir. Agar massa va tezlanishning birligi ma’lum bo‘lsa, kuchning birligi (1) tenglamadagi k koefitsiyent birga teng bo‘ladigan qilib, ya’ni (1) tenglama

$$F = ma$$

ko‘rinishga keladigan qilib tanlab olishimiz mumkin.

Buning uchun kuch birligi qilib, massa birligiga bir birlik tezlanish bera oladigan kuchni olishimiz kerak.

Xuddi shu yo‘l bilan yangidan kiritilgan har qanday kattalikning o‘lchov birligini topishda, bu kattalikni aniqlashga imkon beradigan formuladan foydalanamiz va, shunday qilib, birliklar tizimini tuzamiz.

Har xil birliklar tizimlari bir-biridan qaysi birlik tizimi asos qilib olinganiga qarab farq qiladi.

“Masalalar to‘plami” ning bu nashrida ГОСТ 9867-61 tomonidan fanning barcha sohalarida, texnika va xalq xo‘jaligidagi, xuddi shuningdek o‘qitishda eng qulay tizim deb tasdiqlangan xalqaro birliklar tizimi (XBT)dan foydalanamiz. Bu tizim **System International** so‘zining bosh harflaridan olingan SI yoki ruscha СИ harflar bilan belgilanadi.

Xalqaro tizim o‘lchashning har xil sohalari uchun mo‘ljallangan bir qancha mustaqil birliklar tizimlariga bo‘linadi (1 – jadval).

1-jadval

Xalqaro Birliklar Tizimi ГОСТ 9867-61					
Mexanik birliklar tizimi	Issiqlik birliklari tizimi	Elektr va magnit birliklari tizimi	Akustik birliklar tizimi	Yorug‘lik birliklari tizimi	Radioaktivlik va ionlashtiruvchi urlanish birliklari tizimi
ГОСТ 7664-61	ГОСТ 8550-61	ГОСТ 8033-56	ГОСТ 8849-58	ГОСТ 7932-56	ГОСТ 8848-63

XBTda asosiy mexanik birliklar qilib metr (*m*), kilogrammassa (*kg*) va sekund (*s*) lar olingan bo‘lib, unga qo‘sishimcha o‘lchashning har xil sohalari uchun quyidagi: issiqlik uchun – *Kelvin*, elektr uchun – *Amper* va yorug‘lik uchun – *sham* dan iborat birliklar kiritilgan.

2-jadvalda Xalqaro Tizimning asosiy birliklari keltirilgan.

2-jadval

Kattaliklarning nomi	O‘lchov birligi	Qisqacha belgisi
Uzunlik	metr	<i>m</i>
Massa	kilogramm	<i>kg</i>
Vaqt	sekund	<i>s</i>
Elektr tokining kuchi	Amper	<i>A</i>
Termodinamik harorat	Kelvin	<i>K</i>
Yorug‘lik kuchi	sham	<i>sham</i>

Xalqaro Birliklar Tizimiga tekis yassi va fazoviy burchak uchun qo‘sishimcha ikkita birliklar kiritiladi (2-a jadval).

2- a jadval

Kattaliklarning nomi	O‘lchov birligi	Qisqacha belgisi
Yassi burchak	radian	<i>rad</i>
Fazoviy burchak	steradian	<i>ster</i>

3-jadvalda XBT tizimidagi birliklarning butun va ulushlarini ifodalovchi old qo‘shimchalar berilgan (ГОСТ 7663-55 ga qarang).

3-jadval

Old qo‘shimcha	Son qiymati	Qisqacha belgisi	Old qo‘shimcha	Son qiymati	Qisqacha belgisi
Atto	10^{-18}	<i>a</i>	Desi	10^{-1}	<i>d</i>
Fomto	10^{-15}	<i>f</i>	Deka	10^1	<i>da</i>
Piko	10^{-12}	<i>p</i>	Gekto	10^2	<i>g</i>
Nano	10^{-9}	<i>n</i>	Kilo	10^3	<i>k</i>
Mikro	10^{-6}	<i>μ</i>	Mega	10^6	<i>M</i>
Milli	10^{-3}	<i>m</i>	Giga	10^9	<i>G</i>
Santi	10^{-2}	<i>s</i>	Tera	10^{12}	<i>T</i>

3-jadvaldagagi old qo‘shimchalarni oddiy nomlar (metr, gramm va hak.) ga qo‘shish mumkin. Masalan ixtiyoriy old qo‘shimchani *kilo* old qo‘shimchasi bo‘lgan “kilogramm” nomga qo‘shib bo‘lmaydi. Bu mulohazalarga asosan, masalan, ayrim hollarda, “megatonna” deb noto‘g‘ri nom berilgan, $m = 10^9 kg = 10^{12} g$ massa birligiga “teragramm” (*Tg*) deb nom berish kerak. Uzunlikning $l = 10^{-6} m$ birligini “mikron” deb yuritiladi. Uzunlikning bu birligini “mikrometr” (μm) deb atash to‘g‘ridir.

Yuqorida aytildigandek, XBT tizimining asosiy birliklaridan uning hosilaviy birliklarini olish mumkin. Berilgan hosilaviy birliklarni asosiy birliklar bilan bog‘lanishini ifodalash uchun o‘lchamlik formulalari qo‘llaniladi.

Agar asosiy kattaliklarning o‘lchamliklarini shartli ravishda quyidagicha: uzunlikni – L , massani – M , vaqtini – T , tok kuchini – I , haroratni – θ va yorug‘lik kuchini – J bilan belgilasak, biror x kattalikning XBT dagi o‘lchamlik formulasi quyidagicha yozish mumkin:

$$[x] = L^\alpha M^\beta T^\gamma I^\delta \theta^\rho J^\mu$$

Fizik kattalik x ning o‘lchamligini topish uchun, $\alpha, \beta, \gamma, \delta, \rho$ va μ daraja ko‘rsatkichlarining son qiymatlarini aniqlash kerak. Bu daraja ko‘rsatkichlar musbat yoki manfiy, butun yoki kasr sonlar bo‘lishi mumkin.

1 – misol. Ishning o‘lchamligi topilsin. $A = F \cdot l$ munosabatga asosan $[A] = L^2 MT^{-2}$ bo‘ladi.

2 – misol. Solishtirma issiqlik sig‘imining o‘lchamligi topilsin. $c = Q/(m \cdot \Delta t)$ bo‘lib, $[Q] = [A]$ bo‘lganligi uchun $[c] = L^2 T^{-2} \theta^{-1}$ bo‘ladi.

Qandaydir fizik kattalikning XBT tizimidagi o‘lchamligini bilgan holda, uning o‘lchov birligini bu tizimda topish qiyin emas. Masalan, ishning o‘lchov birligi $m^2 \cdot kg \cdot s^{-2}$ ga, solishtirma issiqlik sig‘imining o‘lchov birligi esa $m^2 s^{-2} grad^{-1}$ ga teng bo‘lishi kerak va hak.

XBT tizimining hosilaviy birliklar jadvallari mos ravishda kitobning bo‘limlarida, masalan, mexanik kattaliklarning birliklari I bobda, issiqlik kattaliklarning birliklari II bobda, elektr va magnit kattaliklarning birliklari esa III bobda berilgan va hak. O‘sha joyda XBT tizimining birliklari bilan boshqa va keltirilgan birliklar tizimning o‘zari munosabatini ifodalovchi jadvallar berilgan.

Masalalarni yechish uchun metodik ko‘rsatmalar

Masalalarni yechishdan oldin masala asosida qanday fizik qonuniyatlar yotganligini aniqlash kerak. Keyin bu qonuniyatlarni ifodalovchi formuladan harfli belgilar orqali yechilishini topish kerak. Bundan keyin, albatta berilgan son qiymatlarni biror birlikda chiqarilgan formulaga qo‘yish mumkin. Amalda va adabiyotlarda XBT bilan birga boshqa birliklar tizimi, xuddi shuningdek,

keltirilgan birliklar tizimi ko‘p tarqalgandir. Shuning uchun ko‘pchilik masalalar shartida berilgan son qiymatlar XBTning birligida ifodalanmagan. XBT, keltrilgan va boshqa tizimlardagi birliklarning o‘zaro bog‘lanishi har bir bobning boshida joylashtirilgan jadvallarda berilgan. Masalalarni XBTda yechish uchun masala shartida berilgan va jadvaldan olingan kattaliklarni XBT tizimining birliklariga keltirish kerak. Bunda masalaning javobi ham, tabiiy holda, shu tizimdagи birliklarda kelib chiqadi.

Ayrim hollarda hamma berilgan qiymatlarni bitta tizimning o‘zida ifodalashning hojati bo‘lmay qoladi. Masalan, formuladagi berilgan kattaliklar surat va maxrajda ko‘paytmadan iborat bo‘lsa, bu kattaliklarning qaysi birlikda ifodalanishidan qat’iy nazar, birliklar bir xil bo‘lishi kifoyadir.

Masalaning sonli javobini chiqarishda oxirgi natijaning aniqlik darajasiga ahamiyat berish kerak. Javobning aniqligi masalalar shartida berilgan kattaliklarning aniqligidan oshmasligi kerak.

Harfli belgilar o‘rniga ularning son qiymatlarini qo‘yish yo‘li bilan olingan javobning oxirida darhol uning nomi yozilishi kerak.

Grafigi chizilishi kerak bo‘lgan masalalarda masshtab va koordinata boshini tanlab olish zarur. Grafikda albatta, masshtab ko‘rsatilishi shart. Kitobda ayrim masalalarning javoblaridagi grafiklar masshtabsiz berilgandir, ya’ni topilishi kerak bo‘lgan bog‘lanish, faqat sifat jihatdan tavsiylab berilgandir.

I. MEXANIKANING FIZIK ASOSLARI

1.1. Kinematika

Umumiy holda to‘g‘ri chiziqli harakatning tezligi

$$\vartheta = \frac{dS}{dt}$$

tezlanishi

$$a = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d^2S}{dt^2}$$

To‘g‘ri chiziqli tekis harakat bo‘lganda

$$\vartheta = \frac{S}{t} = const$$

va

$$a = 0$$

To‘g‘ri chiziqli tekis o‘zgaruvchan harakatda bo‘lganda, quyidagi ifodalar kelib chiqadi:

$$S = \vartheta_0 t + \frac{at^2}{2}$$

$$\vartheta = \vartheta_0 + at$$

$$a = const$$

Bu tenglamalarda a tezlanish harakat tekis tezlanuvchan bo‘lsa musbat va tekis sekinlanuvchan bo‘lsa manfiy bo‘ladi.

Egri chiziqli harakatda to‘la tezlanish quyidagiga tengdir:

$$a = \sqrt{a_t^2 + a_n^2}$$

bu yerda, a_t – tangensial tezlanish, a_n – normal (markazga intilma) tezlanish bo‘lib

$$a_t = \frac{d\vartheta}{dt} \quad \text{va} \quad a_n = \frac{\vartheta^2}{R}$$

bu yerda, ϑ – harakatning tezligi va R – trayektoriyaning berilgan nuqtasidagi egrilik radiusi.

Umumiy holda aylanma harakatda burchak tezlik

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt}$$

burchak tezlanish esa

$$\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = \frac{d^2\varphi}{dt^2}$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

Tekis aylanma harakatda burchak tezlik quyidagi tengdir:

$$\omega = \frac{\varphi}{t} = \frac{2\pi}{T} = 2\pi\nu$$

bu yerda, T – aylanish davri, ν – aylanish chastotasi, ya’ni vaqt birligida aylanishlar soni.

Burchak tezlik ω chiziqli tezlik ϑ bilan quyidagi munosabat orqali bog‘langan:

$$\vartheta = \omega R$$

Aylanma harakatda tangensial va normal tezlanishlar quyidagiCHA ifodalanadi:

$$a_t = \varepsilon R$$


$$a_n = \omega^2 R$$

Ilgarilanma va aylanma harakatning tenglamalari quyidagi jadvalda taqqoslangan:

Ilgarilanma harakat	Aylanma harakat
Tekis harakat	
$S = \vartheta \cdot t$ $\vartheta = \text{const}$ $a = 0$	$\varphi = \omega \cdot t$ $\omega = \text{const}$ $\varepsilon = 0$
Tekis o‘zgaruvchan harakat	
$S = \vartheta_0 t + \frac{at^2}{2}$ $\vartheta = \vartheta_0 + at$ $a = \text{const}$	$\varphi = \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2}$ $\omega = \omega_0 + \varepsilon t$ $\varepsilon = \text{const}$
Notekis harakat	
$S = f(t)$ $\vartheta = \frac{dS}{dt}$ $a = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d^2S}{dt^2}$	$\varphi = f(t)$ $\omega = \frac{d\varphi}{dt}$ $\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = \frac{d^2\varphi}{dt^2}$

Masala yechish namunaları

1. A punktdan chiqqan qayiq haydovchi kengligi H bo‘lgan daryoni kesib o‘tar ekan, qayiqni hamma vaqt qirg‘oqqa nisbatan α burchak ostida yo‘naltiradi (1.1 – rasm). Agar oqim tezligi ϑ_1 va oqim qayiqni B punktdan L masofa qo‘yi tomoniga olib ketgan bo‘lsa, qayiqning suvgaga nisbatan tezligi ϑ_0 ni aniqlang.



1.1 – rasm

Berilgan:

$$H; \alpha; \vartheta_1; L;$$

$$\vartheta_0 = ?$$

Yechish:


Boshi A punktda bo‘lgan koordinata tizimida (1.2 – rasm) qayiqning koordinatalari

$$x = (\vartheta_1 - \vartheta_0 \cos \alpha) \cdot t$$

ga teng. $x = L$, $y = H$ o‘rniga qo‘yilgach,

$$\vartheta_0 = \frac{H\vartheta_1}{L\sin\alpha + H\cos\alpha}$$

ni olamiz.



Javob: $\vartheta_0 = \frac{H\vartheta_1}{L\sin\alpha + H\cos\alpha}$.

1.2 – rasm

2. Lasseti avtomobili yo‘lning birinchi yarmini ϑ_1 tezlik bilan, ikkinchi yarmini esa ϑ_2 tezlik bilan o‘tdi. Avtomobilning butun yo‘l davomidagi o‘rtacha tezligini toping.

Berilgan:

$$\vartheta_1; \quad \vartheta_2 \\ S_1 = S_2 = \frac{S_{um}}{2};$$

$$\vartheta_{o'rt} = ?$$


Yechish:

Ma’lumki, avtomobilning o‘rtacha tezligini topish ifodasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\vartheta_{o'rt} = \frac{S_{um}}{t_{um}} \quad (2.1)$$

Dastlabki masofani S_1 , keyingi masofani esa S_2 deb olsak (2.1 – rasm), u holda $S_{um} = S_1 + S_2$ ga, t_{um} esa $t_1 + t_2$ ga teng bo‘ladi.

Bunda,



2.1 – rasm

$$t_1 = \frac{S_1}{\vartheta_1} \quad \text{va} \quad t_2 = \frac{S_2}{\vartheta_2}$$

hamda

$$S_1 = S_2 = \frac{S_{um}}{2}$$

ekanligini inobatga olsak, (2.1) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$\vartheta_{o \cdot rt} = \frac{S_{um}}{t_{um}} = \frac{S_{um}}{t_1 + t_2} = \frac{S_{um}}{\frac{S_1}{\vartheta_1} + \frac{S_2}{\vartheta_2}} = \frac{S_{um}}{\frac{S_{um}}{2} \left(\frac{1}{\vartheta_1} + \frac{1}{\vartheta_2} \right)} = \frac{2\vartheta_1\vartheta_2}{\vartheta_1 + \vartheta_2}$$

Javob: $\vartheta_{o \cdot rt} = \frac{2\vartheta_1\vartheta_2}{\vartheta_1 + \vartheta_2}$.

3. H balandlikdan boshlang‘ich tezliksiz tushayotgan jism vaqtning oxirgi sekundida $3H/4$ masofani bosib o’tdi. U qancha vaqtda tushgan (s)?

Berilgan:

$$\begin{aligned} AC &= H; \\ BC &= 3H/4; \\ t_{BC} &= 1 \text{ s}; \\ \hline t &=? \end{aligned}$$

Yechish:

3.1 – rasmda AC oraliqni jism t vaqtda o‘tadi desak, shartga ko‘ra, BC oraliqni jism 1 sekundda o‘tgan, u holda, AB oraliqda jism $(t - 1)$ s vaqt sarflaydi. Demak, AB oraliqni quyidagicha topish mumkin:

$$AB = \frac{H}{4} = \frac{g}{2}(t - 1)^2 \quad (3.1)$$

Bundan,

$$t = 1 + \sqrt{\frac{H}{2g}} \quad (3.2)$$


ekanligini topish mumkin.

AC masofani quyidagicha topish mumkin:

$$AC = H = \frac{gt^2}{2} \quad (3.3)$$

(3.3) ni (3.2) ifodaga qo‘ysak qo‘yidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$t = 1 + \sqrt{\frac{t^2}{4}} \quad (3.4)$$



(3.4) ifodadan $t = 2 \text{ s}$ ekanligini topamiz.

Javob: $t = 2 \text{ s}$.

4. Yuqoriga tik otilgan jism h balandlikdagi nuqta orqali ikki marta o‘tadi (4.1 – rasm). Bu o‘tishlar o‘rtasidagi vaqt oralig‘i Δt ga teng. Jismning ϑ_0 boshlang‘ich tezligini va jismning harakati boshlangandan dastlabki vaziyatiga qaytguncha ketgan Δt_0 vaqtini toping.

Berilgan:

$h; \Delta t; \vartheta_0;$

$\Delta t_0 = ?$

Yechish:


Agar sanoq boshi sifatida jismni otish joyi olinsa, yuqoriga jismning h koordinatasi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi (4.1 – rasm):

$$h = \vartheta_0 t - \frac{gt^2}{2} \quad (4.1)$$

Berilgan ϑ_0 va h uchun bu tenglama t vaqtning ikkita qiymatida aniqlanadi:

$$t_{1,2} = \frac{\vartheta_0 \pm \sqrt{\vartheta_0^2 - 2gh}}{g}$$

Bu qiymatlarning farqi esa jismning bir xil h balandlikni ikki marta o‘tishi orasidagi vaqt oralig‘ini beradi, ya’ni:



$$\Delta t = t_2 - t_1 = \frac{2\sqrt{\vartheta_0^2 - 2gh}}{g} \quad (4.2)$$

Bundan

$$\vartheta_0 = \sqrt{2gh + \frac{g^2(\Delta t)^2}{4}}$$

Agar (4.2) ifodada $h = 0$ desak, u holda biz jismning otilishi bilan uning dastlabki vaziyatiga qaytib kelishi o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini olamiz:

$$\Delta t_0 = \frac{2\vartheta_0}{g}$$

Bu ifodaga ϑ_0 ning yuqorida olingan qiymatini qo'yib,

$$\Delta t_0 = 2 \sqrt{\frac{2h}{g} + \frac{(\Delta t)^2}{4}}$$

ni topamiz.

Javob: $\Delta t_0 = 2 \sqrt{\frac{2h}{g} + \frac{(\Delta t)^2}{4}}$

5. Aylanma harakat qilayotgan g'ildirak radusining burilish burchagining vaqtga bog'lanishi $\varphi = 4 + 5t - t^3$ tenglama bilan berilgan. G'ildirakning birinchi sekund oxirida burchak tezligi, chiziqli tezligi va g'ildirak gardishidagi nuqtalarning to'la tezlanishi topilsin. G'ildirak radiusi 2 sm.

Berilgan:

$$R = 2 \text{ sm} = 0,2 \text{ m}; \\ t = 1 \text{ s};$$

$$\omega = ? \quad ? \quad a = ?$$

Yechish:

Burchak tezlikni topib olamiz:

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt} = \frac{d}{dt}(4 + 5t + t^3) = 5 - 3t^2 \quad (5.1)$$

$$\omega = 2 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$$

Chiziqli tezlik ϑ ni esa, burchak tezlik orqali topamiz:

$$\vartheta = \omega R = 0,4 \frac{\text{m}}{\text{s}}$$

To'la chiziqli tezlanishni quyidagi ifodadan topamiz:

$$a = \sqrt{a_n^2 + a_t^2}$$

bu yerda, $a_n = \omega^2 R$ va $a_t = \varepsilon R = \frac{d\omega}{dt} R = \frac{d}{dt}(5 - 3t^2) = -6t$.
U holda,

$$a = \sqrt{\omega^4 R^2 + \varepsilon^2 R^2} = R \sqrt{\omega^4 + \varepsilon^2} \approx 1,44 \frac{m}{s^2};$$

Javob: $\omega = 2 \frac{rad}{s}$; $\vartheta = 0,4 \frac{m}{s}$; $a \approx 1,44 \frac{m}{s^2}$.

Mavzuga oid masalalar

1. Paroxod daryoda A punktdan B punktga $\vartheta_1 = 10 \text{ km/soat}$ tezlik bilan, qaytishda esa $\vartheta_2 = 16 \text{ km/soat}$ tezlik bilan harakatlanadi. 1) Paroxodning o‘rtacha tezligi, 2) daryoning oqim tezligi topilsin.
2. Samolyot A punktdan sharq tomonagi 300 km uzoqlikda joylashgan B punktga uchmoqda. Quyidagi hollarda samolyotning bu masofani uchib o‘tish vaqtini topilsin: 1) shamol bo‘limganda, 2) shamol janubdan shimalga esganda va 3) shamol g‘arbdan sharqqa esganda. Shamolning tezligi $\vartheta_1 = 20 \text{ m/s}$, samolyotning tezligi $\vartheta_2 = 600 \text{ km/soat}$.
3. Tosh 10 m balandlikka otilgan. 1) Tosh qancha vaqt dan keyin Yerga qaytib tushadi? 2) Agar toshning boshlang‘ich tezligi ikki marta oshirilsa, u qancha balandlikka ko‘tariladi? Havoning qarshiliği hisobga olinmasin.
4. Poezd 36 km/soat tezlikda harakat qilmoqda. Agar bug‘ berish to‘xtatilsa, poezd tekis sekinlanuvchan harakat qilib 20 s dan keyin to‘xtaydi. 1) Poezdning manfiy tezlanishi topilsin. 2) To‘xtash joyidan necha metr narida bug‘ berishni to‘xtatish kerak?
5. Jismning bosib o‘tgan yo‘li S ning t vaqtga bog‘liqligi $S = A - Bt + Ct^2$ tenglama orqali berilgan, bunda $A = 6 \text{ m}$, $B = 3 \text{ m/s}$ va $C = 2 \text{ m/s}^2$. Jismning 1 s dan 4 s gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘rtacha tezligi va o‘rtacha tezlanishi topilsin. $0 \leq t \leq 5 \text{ s}$ intervalda 1 s dan oralatib yo‘l, tezlik va tezlanishning grafigi tuzilsin.

- 6.** Jismni gorizontga $\alpha = 30^\circ$ burchak ostida $\vartheta_0 = 14,7 \text{ m/s}$ tezlik bilan otilganda $t = 1,25 \text{ s}$ o'tgach, uning normal va tangensial tezlanishi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.
- 7.** Tekis tezlanish bilan aylanayotgan g'ildirak harakat boshidan $N = 10 \text{ marta}$ aylangandan keyin $\omega = 20 \text{ rad/s}$ burchak tezlikka erishsa, uning burchak tezlanishi topilsin.
- 8.** Nuqta $R = 10 \text{ sm}$ radiusli aylana bo'ylab o'zgarmas tangensial tezlanish a_t bilan harakatlanadi. Agar harakat boshlangandan keyingi beshinchi marta aylanish oxirida nuqtaning chiziqli tezligi $\vartheta = 10 \text{ sm/s}$ ga teng bo'lsa, harakat boshlangandan $t = 20 \text{ s}$ o'tgandan keyin nuqtaning a_n normal tezlanishi topilsin.
- 9.** Radiusi $R = 10 \text{ sm}$ g'ildirak $\varepsilon = 3,14 \text{ rad/s}^2$ o'zgarmas burchak tezlanish bilan aylanadi. Harakat boshlanishidan keyingi birinchi sekundning oxirida g'ildirak gardishidagi nuqtalarning: 1) burchak tezligi, 2) chiziqli tezligi, 3) tangensial tezlanishi, 4) normal tezlanishi, 5) to'la tezlanishi va 6) to'la tezlanish bilan g'ildirak radiusi orasidagi burchak topilsin.
- 10.** G'ildirak shunday aylanadiki, g'ildirak radiusining burilish burchagi bilan vaqt orasidagi bog'lanish $\varphi = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$ tenglama orqali beriladi, bunda $B = 1 \text{ rad/s}$, $C = 1 \text{ rad/s}^2$ va $D = 1 \text{ rad/s}^3$. Harakatning ikkinchi sekundining oxirida g'ildirak gardishidagi nuqtalarning normal tezlanishi $a_n = 3,46 \cdot 10^2 \text{ m/s}^2$ ga teng bo'lsa, g'ildirakning radiusi topilsin.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

- 11.** Samolyot havoga nisbatan $\vartheta_1 = 800 \text{ km/soat}$ tezlik bilan uchmoqda. G'arbdan sharqqa tomon $\vartheta_2 = 15 \text{ m/s}$ tezlik bilan shamol esib turibdi. Samolyot Yerga nisbatan qanday tezlik bilan uchishi va 1) janubga, 2) shimolga, 3) g'arbgaga, 4) sharqqa siljishi uchun meridianga nisbatan qanday burchak tashkil qilib uchishi topilsin.

- 12.** Vertikal yuqoriga otilgan jism 3 s dan keyin Yerga qaytib tushdi. 1) Jismning boshlang‘ich tezligi qanday bo‘lgan? 2) Jism qanday balandlikka ko‘tarilgan? Havoning qarshiligi hisobga olimasin.
- 13.** Metropoliten ikki bekatining oralig‘i $1,5\text{ km}$. Poezd bu masofaning birinchi yarmini tekis tezlanuvchan, qolgan ikkinchi yarmida tekis sekinlanuvchan harakat qiladi. Poezdning maksimal tezligi $50\text{ km}/soat$ ga teng. 1) tezlanuvchan va sekinlanuvchan harakatning tezlanishlarini miqdor jihatdan teng deb hisoblab, uning kattaligi, 2) poezdning ikki bekat orasidagi harakat vaqtini topilsin.
- 14.** Jismning bosib o‘tgan yo‘li S ning t vaqtga bog‘liqligi $S = A + Bt + Ct^2$ tenglama orqali berilgan, bunda $A = 3\text{ m}$, $B = 2\text{ m}/\text{s}$ va $C = 1\text{ m}/\text{s}^2$. Jism harakatining birinchi, ikkinchi va uchinchi sekund oralig‘idagi o‘rtacha tezligi va o‘rtacha tezlanishi topilsin.
- 15.** Tosh gorizontal yo‘nalishda $\vartheta_x = 15\text{ m}/\text{s}$ tezlik bilan otilgandan 1 s o‘tgach, uning normal va tangensial tezlanishi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.
- 16.** Jism gorizontga $\alpha = 45^\circ$ burchak ostida $\vartheta_0 = 10\text{ m}/\text{s}$ tezlik bilan otilganda $t = 1\text{ s}$ o‘tgach, jism trayektoriyasining egrilik radiusi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.
- 17.** Tekis sekinlanib aylanayotgan g‘ildirak tormozlanish natijasida 1 minut davomida o‘zining tezligini $300\text{ ayl}/\text{min}$ dan $180\text{ ayl}/\text{min}$ gacha kamaytirdi. G‘ildirakning burchak tezlanishi va bu minut ichidagi aylanishlar soni topilsin.
- 18.** Harakat boshlanishidan 2 s o‘tgach tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan g‘ildirak gardishidagi nuqtaning to‘la tezlanish vektori shu nuqta chiziqli tezligining yo‘nalish bilan 60° burchak tashkil qilsa, g‘ildirakning burchak tezlanishi topilsin.

19. Aylanayotgan g‘ildirak gardishidagi nuqtalar to‘la tezlanishining vektori shu nuqtalar chiziqli tezligining vektori bilan 30^0 burchak tashkil qilgan paytdagi nuqtaning normal tezlanishini tangensial tezlanishidan necha marta kattaligi topilsin.

20. Radiusi $R = 10 \text{ sm}$ bo‘lgan g‘ildirak shunday aylanadiki, g‘irdirak gardishidagi nuqtalar chiziqli tezligining vaqtga bog‘lanishi $\vartheta = At + Bt^2$ tenglama orqali beriladi, bunda $A = 3 \text{ sm/s}^2$ va $B = 1 \text{ sm/s}^3$. Harakat boshlangandan $t = 0, 1, 2, 3, 4$ va 5 s o‘tgandan keyin to‘la tezlanish vektori bilan g‘ildirak radiusi orasidagi burchak topilsin.

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. Biror jismning tekislikdagi harakati davomida koordinatalari (6; 4) nuqtadan (9; 8) nuqtaga o‘zgardi. Ko‘chishning modulini toping (m).

- A) 12 B) 14 C) 7 D) 5

2. Sanoq tizimini nimalar tashkil etadi?

- A) sanoq jismi va koordinatalar sistemasi
B) sanoq jismi, unga bog‘langan koordinatalar sistemasi va vaqtini o‘lchaydigan asbob
C) sanoq jismi va vaqt o‘lchaydigan asbob
D) koordinatalar sistemasi va vaqt o‘lchaydigan asbob

3. Moddiy nuqtaning harakatlanish tenglamalari $y = 1 + 3t$ va $x = 2 + 4t$ ko‘rinishida berilgan. $y = y(x)$ trayektoriyaning tenglamasini yozing.

- A) $y = 3x + 2$ B) $y = 0,2x - 4$ C) $y = 0,75x - 0,5$ D) $y = 2x + 3$

4. A va B punktlardan bir-biriga qarab ikki velosipedchi yo‘lga chiqdi. Ular B punktga 30 km qolganda uchrashishdi. Manzilga borib qaytishda esa, A punktdan 18 km uzoqlikda uchrashishdi. Punktlar oraligidagi masofani toping (km).

- A) 60 B) 48 C) 72 D) 78

5. Bekatdan elektropoezd 12°o da jo‘nab ketdi. Yo‘lovchining soati 12°o bo‘lganda, elektropoezdning oxiridan oldingi vagoni uning yonidan o‘ta boshladi. Agar bu vagon 10 s da, oxirgi vagon esa 8 s da o‘tgan bo‘lsa, yo‘lovchining soati necha sekund orqada qolgan?
- A) 32 B) 31 C) 30 D) 18
6. Ancha baland nuqtadan modullari bir xil va 10 m/s ga teng bo‘lgan tezliklar bilan ikki jism bir paytda otildi, biri tik yuqoriga, ikkinchisi tik pastga. 2 s dan so‘ng ular orasidagi masofa qanday bo‘ladi (m)?
- A) 10 B) 20 C) 40 D) 50
7. Maxovik aylanganda, gardishidagi nuqtalar tezligi 6 m/s , ulardan o‘qda $1,5 \text{ sm}$ yaqin masofada bo‘lgan nuqtalar tezligi esa $5,5 \text{ m/s}$ bo‘lsa, maxovikning radiusi necha santimetr bo‘ladi?
- A) 18 B) 15 C) 9 D) 6
8. 80 sm uzunlikdagi ipga osilgan sharcha vertikal bilan 60° li burchak hosil qilib, gorizontal tekislikda aylanmoqda. Sharchaning aylanish davrini toping (s), $\pi = 3$ deb oling.
- A) 3 B) 2 C) 1,4 D) 1,2
9. Gorizontal yo‘nalishida 800 m/s tezlik bilan otilgan o‘q 600 m masofadagi nishonga borib yetguncha, vertikal yo‘nalishida qanchaga pasayadi (m)?
- A) 0,75 B) 1,5 C) 3,75 D) 2,8
10. Biror jism gorizontga 60° burchak ostida 30 m/s tezlik bilan otildi. Necha sekunddan so‘ng tezlik vektori gorizont bilan 45° burchak hosil qiladi?
- A) 3 B) 2,4 va 0,9 C) 1 va 2 D) 1,1 va 4,1

1.2. Dinamika

Dinamikaning asosiy qonuni (Nyutonning ikkinchi qonuni)

$$F \cdot dt = d(m\vartheta)$$

tenglama bilan ifodalanadi.

Agar massa o‘zgarmas bo‘lsa, u holda

$$F = m \frac{d\vartheta}{dt} = m \cdot a$$

bu yerda, a – massasi m bo‘lgan jismning F kuch ta’sirida olgan tezlanishi.

S masofani o‘tishda F kuchning bajargan ishi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$A = \int_S F_S \cdot dS$$

bu yerda, F_S – kuchning siljish yo‘nalishidagi proyeksiyasi, dS – yo‘l qismining kattaligi. Integral butun yo‘l S bo‘yicha olinadi.

Agar kuchning miqdori hamda uning siljish yo‘nalishi bilan hosil qilgan burchagi o‘zgarmas bo‘lsa, yuqoridagi formula

$$A = F \cdot S \cdot \cos\alpha$$

ko‘rinishida bo‘ladi, bunda α – kuch F va siljish S orasidagi burchak.

Quvvat

$$N = \frac{dA}{dt}$$

formula bilan ifodalanadi. Quvvat o‘zgarmas bo‘lsa

$$N = \frac{A}{t}$$

bo‘ladi, bunda A – vaqt t ichida bajarilgan ish.

Xuddi shuningdek quvvat quyidagi formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$N = F \cdot \vartheta \cdot \cos\alpha$$

ya’ni, quvvat harakat tezligini kuchning harakat yo‘nalishiga bo‘lgan proyeksiyasining kattaligiga ko‘paytmasi bilan aniqlanadi.

ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan m massali jismning kinetik energiyasi quyidagiga teng:

$$W_k = \frac{m\vartheta^2}{2}$$

Potensial energiyaning formulalari ta’sir etuvchi kuchlarning xarakteriga qarab turlicha ifodalanadi.

Yopiq tizimdagи barcha jismlar harakat miqdorining vektor yig‘indisi o‘zgarmay qoladi, ya’ni:

$$m_1 \vec{\vartheta}_1 + m_2 \vec{\vartheta}_2 + \dots + m_n \vec{\vartheta}_n = const$$

Massalari m_1 va m_2 bo‘lgan ikki jismning bir to‘g‘ri chiziq bo‘ylab noelastik markaziy urilishidan keyingi ularning umumiy tezligi quyidagi formuladan topiladi:

$$u = \frac{m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2}{m_1 + m_2}$$

bu yerda, ϑ_1 va ϑ_2 – mos ravishda birinchi va ikkinchi jismlarning urilishdan avvalgi tezliklari.

Elastik markaziy urilishdan keyin jismlar turlicha tezliklar bilan harakatlanadi. Birinchi jismning urilishdan keyingi tezligi:

$$u_1 = \frac{(m_1 - m_2)\vartheta_1 + 2m_2\vartheta_2}{m_1 + m_2}$$

va ikkinchi jismning urilishdan keyingi tezligi

$$u_2 = \frac{(m_2 - m_1)\vartheta_2 + 2m_1\vartheta_1}{m_1 + m_2}$$

Egri chiziqli harakatda moddiy nuqtaga ta'sir etuvchi kuchni ikkiga: tangensial va normal tashkil etuvchilarga ajratish mumkin.

Normal tashkil etuvchisi

$$F_n = \frac{m\vartheta^2}{R}$$

markazga intilma kuchdan iboratdir. Bu yerda, ϑ – massasi m bo'lgan jismning chiziqli tezligi va R – trayektoriyaning berilgan nuqtadagi egrilik radiusidir.

Elastik deformatsiyalovchi kuch deformatsiyasining x kattaligiga proporsionaldir, ya'ni:

$$F = k \cdot x$$

bu yerda, k – deformatsiya koefitsiyenti bo'lib, bir birlikda deformatsiyalovchi kuchga miqdor jihatdan tengdir.

Elastik kuchlarning potensial energiyasi:

$$W_p = \frac{kx^2}{2}$$

Ikki moddiy nuqta (ya'ni o'lchamlari ularning o'zaro oraliqlariga nisbatan juda kichik bo'lgan jismlar) bir-biriga quyidagi kuch bilan tortiladi:

$$F = G \frac{m_1 \cdot m_2}{R^2}$$

bu yerda, G – tortishish doimiyligi yoki gravitatsion doimiyligi bo'lib, $G = 6,67 \cdot 10^{-11} \text{ m}^3/\text{kg} \cdot \text{s}^2$ ga tengdir; m_1 va m_2 lar o'zaro ta'sir qiluvchi moddiy nuqtalarning massalari; R – ular orasidagi masofa.

Tortishish kuchining potensial energiyasi:

$$W_p = -G \frac{m_1 \cdot m_2}{R}$$

“Manfiy” ishora o‘zaro ta’sir qiluvchi ikki jismning potensial energiyasi $R = \infty$ bo‘lganda nolga teng bo‘lishini ko‘rsatadi; bu jismlar yaqinlasha borganda potensial energiyasi ortadi.

Keplerning uchinchi qonuni quyidagi ko‘rinishga egadir:

$$\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{R_1^3}{R_2^3}$$

bu yerda, T_1 va T_2 – planetalarining aylanish davri, R_1 va R_2 – planetalar orbitalarining katta o‘qlari. Orbita doiradan iborat bo‘lgan holda, katta o‘qlar rolini orbitaning radiusi o‘ynaydi.

Masala yechish namunalari

1. Harakatdagi liftning shiftidagi ipga $m_1 = 1 \text{ kg}$ massali yuk osilgan. Bu yukka $m_2 = 2 \text{ kg}$ massali ikkinchi yuk osilgan boshqa ip bog‘langan. Agar yuklar orasidagi ipning tarangligi $T_1 = 9,8 \text{ N}$ bo‘lsa, yuqoridagi ipning T_2 tarangligini toping.

Berilgan:

$$\begin{aligned} m_1 &= 1 \text{ kg}; \\ m_2 &= 2 \text{ kg}; \\ T_1 &= 9,8 \text{ N}; \end{aligned}$$

$$\overline{T_2 = ?}$$

Yechish:

Yukka ta’sir qiluvchi kuchlar 1.1 – rasmda ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra harakat tenglamalari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{cases} m_1 a = T_2 - T_1 - P_1 \\ m_2 a = T_1 - P_2 \end{cases}$$

Bunda a – yukning tezlanishi (liftning tezlanishiga teng),

$$P_1 = m_1 g$$

va


$$P_2 = m_2 g$$

– og‘irlilik kuchlari. Tenglamalarni T_2 ga nisbatan yechib,

$$T_2 = \frac{m_1 + m_2}{m_2} \cdot T_1 = 14,7 \text{ N}$$


ni olamiz.

Javob: $T_2 = 14,7 \text{ N}$



1.1 – rasm

2. Ikki jism qiya tekislikka o‘rnatilgan vaznsiz blok orqali o‘tkazilgan yengil ip bilan bog‘langan (2.1 – rasm). Bu jismlar qanday tezlanish bilan harakat qilishini toping. Ishqalanishni hisobga olmang. Jismlarning massalari mos ravishda $m_1 = 10 \text{ g}$ va $m_2 = 15 \text{ g}$ ga teng. Qiya tekislik gorizont bilan $\alpha = 30^\circ$ burchak hosil qiladi.



2.1 – rasm

Berilgan:

$$\begin{aligned} m_1 &= 10 \text{ g} = 10^{-2} \text{ kg}; \\ m_2 &= 15 \text{ g} = 1,5 \cdot 10^{-2} \text{ kg}; \\ \alpha &= 30^\circ; \end{aligned}$$


$$a = ?$$

Yechish:

Jismga 2.2 – rasmda tasvirlangan kuchlar ta’sir qiladi. Tizimni m_2 massali yuk tortib ketadi deb faraz qilinsa, yukning harakat tenglamalari quyidagicha bo‘лади:

$$\begin{cases} m_1 a = T_1 - m_1 g \\ m_2 a = m_2 g \sin \alpha - T_2 \end{cases} \quad (2.1)$$

(2.1) tizimdan taranglik kuchlari $T_1 = T_2 = T$ ekanligini bilgan holda, bu kuchlarni yuqotib, tezlanishni topish mumkin:



2.2 – rasm

$$a = \frac{m_2 g \sin \alpha - m_1 g}{m_1 + m_2} = -0,98 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$$

ni topamiz.

Manfiy ishora harakat haqiqatda biz faraz qilgan yo‘nalishga teskari yo‘nalishda sodir bo‘lishini bildiradi.

$$\text{Javob: } a = -0,98 \frac{m}{s^2}.$$

3. Vertiklaga nisbatan $\alpha = 30^\circ$ burchak ostida $\vartheta = 800 \text{ m/s}$ tezlikda uchib ketayotgan $m_1 = 50 \text{ kg}$ massali snaryad qum ortilgan platformaga tegib, unda ushlanib qoldi. Agar platformaning massasi $m_2 = 16 \text{ t}$ bo‘lsa, snaryad tekkandan keyin platformaning tezligi qanday bo‘lishini toping.

Berilgan:

$$\begin{aligned}\alpha &= 30^\circ; \\ \vartheta &= 800 \text{ m/s}; \\ m_1 &= 50 \text{ kg}; \\ m_2 &= 16 \text{ t}; \\ u &=?\end{aligned}$$


Yechish:

Snaryad harakat miqdori vektorining gorizontal yo‘nalishiga proyeksiyasi $\vartheta \sin \alpha$ ga teng (3.1 – rasm). Gorizontal yo‘nalish uchun harakat miqdorning saqlanish qonuni quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$m_1 \vartheta \sin \alpha = (m_1 + m_2)u$$

Bundan platformaning tezligini topish mumkin:

$$u = \frac{m_1 \sin \alpha}{m_1 + m_2} \approx 1,25 \frac{m}{s}$$



$$\text{Javob: } u \approx 1,25 \frac{m}{s}.$$

4. Vertikal jolashgan, bir-biriga parallel, bir xil uzunlikdagi ikkita prujinaga vaznsiz sterjen gorizontal holatda osilgan. Prujinalarning elastiklik koeffitsiyentlari mos ravishda $k_1 = 0,02 \text{ N/m}$ va $k_2 = 0,03 \text{ N/m}$. Prujinalar orasidagi masofa $L = 1 \text{ m}$. Sterjen gorizontal holatda qolishi uchun, uning qaysi nuqtasiga yuk osish kerak?

Berilgan:

$$\begin{aligned}k_1 &= 0,02 \text{ N/m}; \\k_2 &= 0,03 \text{ N/m}; \\L &= 1 \text{ m};\end{aligned}$$

$$a = ?$$

Yechish:


Prujinalar cho‘zilishi bir xil bo‘lsa, sterjen gorizontal holatda qoladi. Bu holda sterjenga prujinalar tomonidan quyidagi kuchlar ta’sir qiladi (4.1 – rasm):

$$F_1 = k_1 x \quad \text{va} \quad F_2 = k_2 x$$

bunda, x – prujinaning cho‘zilish masofasi.

Yukning O mahkamlangan nuqtasi F_1 va F_2 kuchlarning O nuqta orqali o‘tgan o‘qqa nisbatan momentlari tengligi bilan aniqlanadi:

$$F_1 a = F_2 (L - a)$$



4.1 – rasm

bu yerda, a – O nuqtadan elastiklik koeffitsiyenti k_1 bo‘lgan prujinagacha bo‘lgan masofa. Bundan izlanayotgan masofa

$$a = L \frac{k_2}{k_1 + k_2} = 0,6 \text{ m}$$

Javob: $a = 0,6 \text{ m}$

5. Sutkasining uzunligi 6 soat bo‘lgan planetaning o‘rtacha zichligi ρ ni aniqlang. Prujinali torozi planeta ekvatorida qutbidagidan 10 % kamroq og‘irlilikni ko‘rsatadi. Gravitatsiya doimiysi $G = 6,67 \cdot 10^{-11} \text{ sm}^3/\text{g} \cdot \text{s}^2$.

Berilgan:

$$\begin{aligned}t &= 6 \text{ soat}; \\T &= 0,9P; \\G &= 6,67 \cdot 10^{-11} \frac{\text{sm}^3}{\text{g} \cdot \text{s}^2},\end{aligned}$$

$$\rho = ?$$


Yechish:

Jism tortilayotganda unga ikkita kuch ta’sir qiladi (5.1 – rasm): tortish kuchi P va prujinaning taranglik kuchi T . Har ikkala kuch planeta radiusi bo‘ylab yo‘nalgan. Ekvatorda jism aylana bo‘ylab $\vartheta = 2\pi R/t$ tezlik bilan harakat qiladi

Bunda R – planeta radiusi. Kuchlarning ayirmasi $P - T$ jismga markazga intilma tezlanish beradi. Nyutonning ikkinchi qonuniga ko‘ra

$$\frac{m\vartheta^2}{R} = \frac{4\pi^2 m R}{t^2} = P - T$$

Masalaning shartiga ko‘ra $T = 0,9P$. Planeta sirtida butun olam tortishish kuchi



5.1 – rasm

$$P = G \frac{mM}{R^2}$$

bunda, M – planetaning massasi.

Izlanayotgan zichlik

$$\rho = \frac{3}{4} \frac{M}{\pi R^3}$$

ni harakat tenglamasiga P va T kuchlarning ifodalarini qo‘yib topish mumkin:

$$\rho = \frac{3\pi}{0,1Gt^2} \approx 3,03 \frac{g}{sm^3}$$

Javob: $\rho \approx 3,03 \frac{g}{sm^3}$.

Mavzuga oid masalalar


1. Biror diametrli po‘lat sim $4400 N$ gacha yukka bardosh bera oladi. Bu simga $3900 N$ yuk osib, u uzilib ketmasligi uchun yukni qanday maksimal tezlanish bilan yuqoriga ko‘tarish kerak?
2. Relsda turgan vagon tekis tezlanuvchan harakat qilib, $S = 11 m$ yo‘lni $t = 30 s$ da o‘tishi uchun unga qanday kuch ta’sir qilishi kerak? Vagonning og‘irligi $P = 160 kN$. Harakat vaqtida unga, o‘z og‘irligining $0,05$ qismiga teng bo‘lgan ishqalanish kuchi ta’sir qiladi.

3. $0,5 \text{ kg}$ massali jism shunday to‘g‘ri chiziqli harakatlanadiki, u o‘tgan S yo‘lning t vaqtga bog‘lanishi $S = A - Bt + Ct^2 - Dt^3$. tenglama bilan berilgan, bunda $C = 5 \text{ m/s}^2$ va $D = 1 \text{ m/s}^3$. Harakatning birinchi sekundining oxirida jismga ta’sir qilgan kuchning kattaligi topilsin.

4. $\vartheta = 600 \text{ m/s}$ tezlik bilan uchayotgan $m = 4,65 \cdot 10^{-26} \text{ kg}$ massali molekula normalga nisbatan idish devoriga 60^0 burchakda uriladi va shunday burchakda tezligini o‘zgartirmay elastik qaytadi. Urilish vaqtida idish devoriga berilgan kuch impulsi topilsin.

5. Jism qiyaligi gorizont bilan 4^0 bo‘lgan tekislikda yotibdi.
 1) Jismning qiya tekislikda sirg‘ana boshlashi uchun ishqalanish koeffitsiyenti qanday chegaraviy qiymatga ega bo‘lishi kerak?
 2) Agar ishqalanish koeffitsiyenti $0,03$ bo‘lsa, jism qanday tezlanish bilan sirg‘anadi? 3) shunday sharoitda jism 100 m yo‘lni qancha vaqtida o‘tadi? 4) Shu 100 m yo‘lning oxirida jism qanday tezlikka erishadi?

6. Vaznsiz blok stolning qirrasiga mahkamlangan. Og‘irliklari $P_1 = P_2 = 10 \text{ N}$ bo‘lgan A va B toshlar bir-biriga ip bilan birlashtirilib, blokka osilgan. B toshning stolga ishqalanish koeffitsiyenti $k = 0,1$ ga teng.



1) Toshlarning harakat tezlanishi, 2) ipning taranglik kuchi topilsin. Blokdagi ishqalanish hisobga olinmasin.

7. Og‘irligi 200 kN bo‘lgan vagon 6000 N ishqalanish kuchi ta’sirida tekis sekinlanuvchan harakat qiladi va ma’lum vaqt o‘tgach to‘xtaydi. Vagonning boshlang‘ich tezligi 54 km/soat ga teng.
 1) Ishqalanish kuchining ishi, 2) vagon to‘xtaguncha o‘tgan masofa topilsin.

8. Tosh gorizontga $\alpha = 60^0$ burchakda $\vartheta_0 = 15 \text{ m/s}$ tezlik bilan otilgan. Toshning 1) harakat boshlangandan bir sekund o‘tgach, 2) harakat trayektoriyasining eng yuqori nuqtasidagi kinetik va

potensial energiyasi topilsin. Tosh massasi $m = 0,2 \text{ kg}$ ga teng. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

9. 8 km/soat tezlik bilan yugurib kelayotgan 600 N og‘irlikdagi odam $2,9 \text{ km/soat}$ tezlik bilan ketayotgan 800 N og‘irlikdagi aravachani quvib yetadi va unga sakrab chiqadi. 1) Shu payt aravacha qanday tezlik bilan harakat qiladi? 2) Agar odam qarshi tomondan kelib chiqsa, u qanday tezlik bilan harakat qiladi?

10. $5 \cdot 10^3 \text{ kg}$ massali to‘pdan otilib chiqqan 1 kN og‘irlikdagi snaryadning kinetik energiyasi $7,5 \cdot 10^6 \text{ J}$ ga teng. Orqaga tepish tufayli to‘p qanday kinetik energiyaga ega bo‘ladi?

11. Gorizontal uchib kelayotgan o‘q yengil qattiq sterjenga osilgan sharga tegdi va unda tiqilib qoldi. O‘qning massasi $m_1 = 5 \text{ g}$ va sharning massasi $m_2 = 0,5 \text{ kg}$. O‘qning tezligi $\vartheta_1 = 500 \text{ m/s}$. O‘q tekkandan keyin shar aylananing eng yuqori nuqtasiga ko‘tarilishi uchun sterjenning chegaraviy uzunligi (osilish nuqtasidan shar markazigacha bo‘lgan oraliq) qanday bo‘lishi kerak?

12. Harakatdagi m_1 massali jism qo‘zg‘almas m_2 massali jismga uriladi. Urilish elastik va markaziy bo‘lsa, urilishda birinchi jism o‘zining boshlang‘ich kinetik energiyasining qancha qismini ikkinchi jismga beradi? Masala avval umumiy ko‘rinishda yechilsin, keyin esa, 1) $m_1 = m_2$, 2) $m_1 = 9m_2$ hollarda ko‘rib chiqilsin.

13. 25 sm uzunlikdagi ipga bog‘langan 50 g massali tosh gorizontal tekislikda aylana chizadi. Toshning aylanma tezligi 2 ayl/s ga mos keladi. Ipning taranglik kuchi topilsin.

14. Ipga osilgan 10 N og‘irlikdagi yuk 30° burchakka og‘diriladi. Yuk muvozanat vaziyatidan o‘tayotganda ipning taranglik kuchi topilsin.

15. Agar prujinaga ta’sir qiluvchi kuchning deformatsiyaga proporsionalligi va uni 1 sm siqish uchun $29,4 \text{ N}$ kuch kerakligi

ma'lum bo'lsa, bu prujinani 20 sm ga siqishda qancha ish bajariladi?

16. Parallel ikkita bir xil prujinaga og'irligi nazarga olinmasa bo'ladigan sterjen osilgan. Prujinalarning deformatsiya koeffisiyentlari mos ravishda $k_1 = 20\text{ N/sm}$ va $k_2 = 30\text{ N/sm}$ ga teng. Sterjenning uzunligi prujinalarning oralig'i ($L = 10\text{ sm}$) ga teng. Sterjen gorizontal vaziyatda qolishi uchun, yukni uning qayeriga osish kerak?

17. Kosmik kema Oyga tomon uchmoqda. Oy va Yer markazlarini tutashtiruvchi to'g'ri chiziqning qaysi nuqtasida raketa Yerga ham, Oyga ham birday kuch bilan tortiladi?

18. Yerning sun'iy yo'ldoshi orbita bo'ylab 1) Yer sirtida (havonning qarshiligi hisobga olinmasin), 2) Yer sirtidan $h_1 = 200\text{ km}$ va $h_2 = 700\text{ km}$ balandliklarda qayday ϑ chiziqli tezlik bilan harakatlanadi? Shunday shartlarda Yerning sun'iy yo'ldoshining aylanish davri topilsin.

19. Jismni Yer sirtidan h chuqurlikka tushurgandagi og'irlik kuchi tezlanishining o'zgarishi topilsin. Qanday chuqurlikda og'irlik kuchining tezlanishi Yer sirtidagi og'irlik kuchi tezlanishining 25 % ini tashkil qiladi? Yerning zichligi o'zgarmas deb hisoblansin.

Ko'rsatma. Yer sirtidan h chuqurlikdagi jism o'zidan yuqorida yotgan h qalinlikdagi shar qatlamiga xech tortilmaydi, chunki shu qatlam ayrim qismlarining tortishish kuchlari o'zaro kompensatsiyalanadi.

20. r radiusli ingichga simdan qilingan halqa o'z o'qida, markazidan L masofada turgan m massali moddiy nuqtani qanday kuch bilan tortadi? Halqaning radiusi R ga, sim materialining zichligi ρ ga teng.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

- 21.** Yo‘lovchilar bilan birga liftning og‘irligi 800 N . Lift osilgan trosning tarangligi: 1) 1200 N va 2) 600 N bo‘lsa, lift qanday tezlanish bilan va qanday yo‘nalishda harakatlanadi?
- 22.** Og‘irligi $4,9 \cdot 10^6\text{ N}$ bo‘lgan poezd teplovozining tortishi to‘xtalgach $9,8 \cdot 10^4\text{ N}$ ishqalanish kuchi ta’siri ostida 1 minut dan keyin to‘xtaydi. Poezd qanday tezlik bilan harakat qilgan?
- 23.** $\vartheta = 500\text{ m/s}$ tezlik bilan uchayotgan $m = 4,65 \cdot 10^{-26}\text{ kg}$ molekula idish devoriga tik uriladi va tezligini o‘zgartirmasdan devordan elastik qaytadi. Urilish vaqtida idish devoriga berilgan kuch impulsi topilsin.
- 24.** Qiyaligi har 25 m yo‘lda 1 m balandlikka ko‘tariladigan toqqa 1 m/s^2 tezlanish bilan chiqayotgan avtomobil motorining tortish kuchi topilsin. Avtomobilning og‘irligi $9,8 \cdot 10^3\text{ N}$ va ishqalanish koeffitsiyenti $0,1$ ga teng.
- 25.** Og‘irliklari $P_1 = 20\text{ N}$ va $P_2 = 10\text{ N}$ bo‘lgan toshlar bir-biriga ip bilan birlashtirilib, vaznsiz blokka osilgan. 1) Toshlarning harakat tezlanishi, 2) ipning taranglik kuchi topilsin. Blokka bo‘lgan ishqalanish hisobga olinmasin.
- 26.** Muz ustida $\vartheta = 2\text{ m/s}$ tezlik bilan sirg‘antirib yuborilgan tosh $S = 20,5\text{ m}$ masofada to‘xtaydi. Toshning muzga ishqalanish koeffitsiyentini o‘zgarmas deb hisoblab, uning qiymati topilsin.
- 27.** Og‘irligi 20 N bo‘lgan tosh ma’lum balandlikdan Yerga $1,43\text{ s}$ da tushadi. Toshning yo‘lning o‘rta nuqtasidagi kinetik va potensial energiyasi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.
- 28.** Relsda turgan $P_1 = 100\text{ kN}$ og‘irlikdagi platformaga $P_2 = 50\text{ kN}$ og‘irlikdagi to‘p o‘rnatilgan bo‘lib, undan rels bo‘ylab o‘q otiladi. Snaryadning og‘irligi $P_3 = 1\text{ kN}$, uning to‘pga nisbatan

boshlang‘ich tezligi $\vartheta_0 = 500 \text{ m/s}$. Agar platforma 1) qo‘zg‘almay turgan, 2) o‘q otilgan tomonga $\vartheta_1 = 18 \text{ km/soat}$ tezlik bilan harakat qilayotgan, 3) o‘q otilishiga qarama-qarshi tomonga $\vartheta_1 = 18 \text{ km/soat}$ tezlik bilan harakat qilayotgan snaryad otilgan paytdagi platformaning tezligi ϑ_x topilsin.

29. Avtomat minutiga 600 ta o‘q chiqaradi. Har bir o‘qning massasi 4 g , uning boshlang‘ich tezligi 500 m/s . Otish vaqtidagi orqaga tepishning o‘rtacha kuchi topilsin.

30. Gorizontal uchib kelayotgan o‘q juda yengil qattiq sterjenga osilgan sharga tegadi va unga tiqilib qoladi. O‘q massasi shar massasidan 1000 marta kichik. Sterjen osilgan nuqtadan sharning markazigacha bo‘lgan oraliq 1 m . Agar o‘q tekkandan keyin shar osilgan sterjen 10^0 burchakka og‘sса, o‘qning tezligi topilsin.

31. Harakatdagi m_1 massali jism qo‘zg‘almas m_2 massali jismga uriladi. 1) Birinchi jismning markaziy elastik urilishdagi tezligi $1,5$ marta kamaygan bo‘lsa, massalarning m_1/m_2 nisbati nimaga teng? 2) Agar birinchi jismning boshlang‘ich W_1 kinetik energiyasi 1 kJ ga teng bo‘lsa, ikkinchi jism qanday W_2 kinetik energiya bilan harakatlanadi?

32. 900 km/soat tezlik bilan uchayotgan samolyot “o‘lim sirtmog‘i”ni hosil qiladi. Uchuvchining o‘tirgan stuliga siquvchi maksimal bosim kuchi 1) uchuvchining og‘irligidan besh marta ortiq, 2) uning og‘irligidan o‘n marta ortiq bo‘lganda “o‘lim sirtmog‘i”ning radiuslari qanday bo‘ladi?

33. $l = 10 \text{ sm}$ uzunlikdagi vaznsiz sterjenga osilgan $m = 1 \text{ kg}$ massali jism vertikal tekislikda tebranadi. 1) Sterjen vertikaldan qanday α burchakka og‘dirilganda, jismning eng pastki vaziyatidagi kinetik energiyasi $W_k = 2,45 \text{ J}$ ga teng bo‘ladi? 2) Og‘ish burchagi shunday bo‘lganda sterjenning o‘rta vaziyatidagi taranglik kuchidan necha marta katta bo‘ladi?

- 34.** Agar ressoraning o‘rtasiga biror yuk qo‘yilganda uning statik egilishi $x_0 = 2 \text{ sm}$ bo‘lsa, o‘sha yuk ta’sirida ressoraning eng katta egilishi topilsin. $h = 1 \text{ m}$ balandlikdan ressoraning o‘rtasiga shu boshlang‘ich tezliksiz tushsa, eng katta boshlang‘ich egilish qanday bo‘ladi?
- 35.** $m = 0,1 \text{ kg}$ massali rezina koptok gorizontal yo‘nalishda biror tezlik bilan uchib borib, qo‘zg‘almas vertikal devorga uriladi. Urilishda koptok $\Delta t = 0,01 \text{ s}$ vaqt ichida $\Delta x = 1,37 \text{ sm}$ ga siqiladi. Xuddi shu Δt vaqt ichida koptok oldingi shakliga kelib tiklansa, urilish vaqtida devorga ta’sir qilgan o‘rtacha kuch topilsin.
- 36.** Yerdan Oyga olib borilgan matematik mayatnikning tebranish davri qanday o‘zgaradi? (Matematik mayatnikning tebranish davri $T = 2\pi\sqrt{l/g}$).
- 37.** Yer sirtidan 200 km balandlikda aylana orbita bo‘ylab harakatlanayotgan Yerning sun’iy yo‘ldoshiga ta’sir qiluvchi markazga intilma tezlanishi topilsin.
- 38.** Yerning sun’iy yo‘ldoshi ekvator tekisligida aylana orbita bo‘ylab g‘arbdan sharqqa tomon harakatlanadi. Yo‘ldosh kuzatuvchiga qo‘zg‘almas turgandek ko‘rinishi uchun, u Yer sirtidan qanday balandlikda bo‘lishi kerak?
- 39.** Agar tog‘ cho‘qqisida va shaxtanining tubida mayatnikning tebranish davri bir xil bo‘lsa, tog‘ning H balandligi bilan shaxtanining h chuqurligi orasidagi munosabat qanday?
- 40.** 1 mm radiusli mis simdan qilingan halqa berilgan. Halqaning radiusi 20 sm ga teng. 1) Halqaning o‘z o‘qida, markazidan $L = 0; 5; 10; 15; 20 \text{ sm}$ va 50 sm masofada turgan 2 g massali moddiy nuqtani qanday F kuch bilan tortishi topilsin. F kuchning ifodalariga jadval tuzilsin va $F = f(L)$ bog‘lanish grafigi chizilsin. 2) halqa markazidan qanday L masofada halqa bilan moddiy nuqta orasidagi o‘zaro ta’sir kuchi maksimal bo‘ladi? 3) Halqa bilan

moddiy nuqta orasidagi o‘zaro maksimal ta’sir kuchining son qiymati topilsin.

41. 60 sm uzunlikdagi chilvirga bog‘langan suv to‘ldirilgan chelakcha vertikla tekislikda tekis aylantirilmoqda. 1) eng yuqori nuqtada chelakdagisi suv to‘kilib ketmasligi uchun, chelakcha aylanma harakatining eng kichik tezligi, 2) shunday tezlikda aylananing eng yuqori va pastki nuqtalaridagi chilvirning tarangligi topilsin. Suvli celakchaning massasi 2 kg.

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. Kuch deb nimaga aytildi?

- A) jismning inertlik xossasini xarakterlaydigan kattalik
- B) jismarning o‘zaro ta’sirini faqat miqdor jihatdan xarakterlaydigan kattalik
- C) jismarning o‘zaro ta’sirini faqat yo‘nalishi jihatdan xarakterlaydigan kattalik
- D) jismarning o‘zaro ta’sirini miqdor va yo‘nalishi jihatdan xarakterlaydigan kattalik

2. Agar 9,6 kg massali kubning qirrasi 2 marta qisqartirilsa, uning massasi necha kilogramm bo‘ladi?

- A) 0,4
- B) 0,5
- C) 0,6
- D) 1,2

3. Arqon tortishda to‘rt kishi ishtirok etmoqda. Ulardan, ikkitasi arqonni 250 N va 200 N kuch bilan o‘ng tomonga, qolgan ikkitasi 350 N va 50 N kuch bilan chap tomonga tortmoqda. Teng ta’sir etuvchi kuch nimaga teng. Arqon qaysi tomonga harakatlanadi?

- A) 50 N, o‘ngga
- B) 450 N, o‘ngga
- C) 350 N, chapga
- D) 100 N, chapga

4. Radiusi va massasi Yernikidan 2 marta katta bo‘lgan planeta uchun birinchi kosmik tezlikni (km/s) aniqlang. Yerda birinchi kosmik tezlik 8 km/s ga teng.

- A) 16
- B) 4
- C) 8
- D) $8\sqrt{2}$

5. m massali mayatnik vertikaldan α burchakka og‘dirib, erkin quyib yuborildi. Mayatnik muvozanat vaziyatidan o‘tayotganda ipning taranglik kuchi qanday bo‘ladi?

- A) $mg\cos\alpha$ B) $mg(1 + \cos\alpha)$ C) $mg(1 - \cos\alpha)$ D) $mg(3 - 2\cos\alpha)$

6. Stolning sirtida yotgan yog‘och bo‘lagiga (brusokka) 5 m/s tezlik berildi. Agar u ishqalanish kuchi ta’sirida 1 m/s² tezlanish bilan harakat qilayotgan bo‘lcha, 6 s da bosib o‘tgan yo‘lini toping (m).


- A) 6 B) 12 C) 12,5 D) 18

7. Radiusi R va balandligi h bo‘lgan silindr turgan qiya tekislikning qiyalik burchagi asta-sekin oshirilib borganda, silindr sirpanishi yoki yiqilishi mumkin. Bu ikkala hodisa bir paytda yuz berishi uchun ishqalanish koeffitsiyenti qanday bo‘lishi kerak?

- A) $2R/h$ B) R/h C) h/R D) $h/2R$


8. Rasmda ko‘rsatilgan sistemadagi I va II iplarning taranglik kuchini toping (N). $m = 10$ kg, $m_1 = 4$ kg, $m_2 = 6$ kg. Ishqalanish kuchini hisobga olmang.

- A) 54; 54 B) 44; 44 C) 44; 54 D) 50; 42



9. Beshta bir xil m massali yuk og‘irlik kuchi maydonida pastga $F = 2mg$ qo‘sishimcha kuch bilan tortilmoqda. 3- va 4- yuklar orasidagi ipning taranglik kuchi qanday?

- A) $12mg/5$ B) $9mg/5$ C) $2mg/5$
D) $4mg/5$ E) $18mg/5$



10. Massalari 5 va 3 kg bo‘lgan jismlar qo‘zg‘almas blokka osilgan. Blokning radiusi 2 sm bo‘lsa, 12 s dan keyin uning aylanish chastotasi qancha bo‘lishini toping (Hz). $\pi = 3$ deb oling.

- A) 144 B) 125 C) 260 D) 250

11. Assosining yuzi 1 m^2 va qalinligi 0,4 m bo‘lgan muz bo‘lagi suvda so‘zmoqda. Muz bo‘lagini to‘liq, suvgaga botirish uchun qancha ish bajarish kerak bo‘ladi (J)?

- A) 10 B) 9 C) 8,5 D) 8

12. 2 sm qalinlikdagi taxtaga 4 sm uzunlikdagi mix shunday qoqildiki, mixning yarmi teshib chiqdi. Uni taxtadan sug‘urib olish uchun 1000 N kuch qo‘yish kerak. Mixni sug‘urib olish uchun necha joul ish bajarish kerak bo‘ladi?

- A) 10 B) 15 C) 20 D) 30

13. 6 kg massali jismni tik 3 m balandlikka qanday tezlanish bilan ko‘targanda, 234 J ish bajariladi (m/s^2)?

- A) 3 B) 2 C) 6 D) 11

14. Berilgan yukni biror balandlikka o‘zgarmas tezlik bilan ko‘tarishda bajarilgan A_1 ish hamda $0,5\text{g}$ tezlanish bilan ko‘tarishdagi A_2 ish orasidagi munosabatni ko‘rsating.

- A) $A_2 = 2A_1$ B) $A_2 = 0,5A_1$ C) $A_2 = 1,5A_1$ D) $A_1 = A_2$

15. Samolyotning massasi 1t, yugurish uzunligi 300 m, ko‘tarilish tezligi 30 m/s, qarshilik koeffitsiyenti 0,03 bo‘lsa, uning yugurish vaqtidagi o‘rtacha foydali quvvatini toping (kVt).

- A) 27 B) 30 C) 25 D) 22

16. Uzunligi 1 m va balandligi 0,6 m bo‘lgan qiya tekislikning FIK ni toping. Unda jismni harakatlantirishdagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,1 ga teng.

- A) 88 % B) 60 % C) 68 % D) 70 %

17. Po‘lat sharcha ipga osilgan. Agar sharcha sovutilsa, uning potensial energiyasi qanday o‘zgaradi?

- A) o‘zgarmaydi
B) kamayadi
C) ortadi
D) ipning uzunligiga bog‘iq

18. Jism l uzunlikdagi ipga osilgan. Jismga qanday gorizontal tezlik (m/s) berilganda, u to‘liq aylanadi?

- A) \sqrt{gl} B) $\sqrt{2gl}$ C) $2\sqrt{gl}$ D) $\sqrt{5gl}$

19. Vertikal devorga gorizontal mahkamlangan, bikrligi k bo‘lgan prujinaga m massali sharcha ν tezlikda kelib urildi. Prujina deformatsiyasining kattaligini toping.

A) $\nu\sqrt{k/m}$ B) $\sqrt{\nu k/m}$ C) $\nu\sqrt{m/k}$ D) $\sqrt{\nu m/k}$

20. Po‘lat prujinaga mahkamlangan yukni x-masofaga cho‘zib qo‘yib yuborildi. Yuk muvozanat holatdan qanday uzoqlikda bo‘lganda sistemaning kinetik va potensial energiyalari o‘zaro teng?

A) $x/8$ B) $x/2$ C) $x/4$ D) $x/\sqrt{2}$

1.3. Qattiq jismlarnig aylanma harakati

F kuchning biror aylanish o‘qiga nisbatan momenti quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$M = F \cdot l$$

bu yerda, l – aylanish o‘qidan kuch yo‘nalgan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa.

Moddiy nuqtaning biror aylanish o‘qiga nisbatan inersiya momenti deb

$$J = m \cdot r^2$$

kattalikka aytildi, bunda m – moddiy nuqtaning massasi va r – nuqtaning o‘qdan uzoqligi.

Qattiq jismning o‘z aylanish o‘qiga nisbatan inersiya momenti quyidagicha bo‘ladi:

$$J = \int r^2 dm$$

bunda integral jismning butun hajmi bo‘yicha olinadi. Integrallab, quyidagi formulalarni olish mumkin:

1) Yaxlit silindrning (diskning) o‘z o‘qiga nisbatan inersiya momenti

$$J = \frac{1}{2}mR^2$$

bu yerda, R – silindrning radiusi va m – uning massasi.

2) Ichki radiusi R_1 va tashqi radiusi R_2 bo‘lgan g‘ovak silindrning (gardishining) o‘z o‘qiga nisbatan inersiya momenti

$$J = m \frac{R_1^2 + R_2^2}{2}$$

Yupqa devorli kovak silindr uchun $R_1 \cong R_2 = R$ bo‘lganligi uchun

$$J \cong mR^2$$

3) R radiusli bir jinsli sharning o‘z markazidan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inersiya momenti

$$J = \frac{2}{5}mR^2$$

4) l uzunlikdagi bir jinsli sterjenning o‘rtasidan tik ravishda o‘tgan o‘qqa nisbatan inersiya momenti

$$J = \frac{1}{12}ml^2$$

Agar biror jismning o‘z og‘irlilik markazidan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inersiya momenti J_0 ma‘lum bo‘lsa, u holda jismning shu o‘qqa parallel bo‘lgan ixtiyoriy o‘qqa nisbatan inersiya momenti J quyidagi Shteyner formulasidan topiladi:

$$J = J_0 + md^2$$

bu yerda, m – jismning massasi va d – jism og‘irlilik markazidan aylanish o‘qigacha bo‘lgan masofa.

Aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunining tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$Mdt = d(J\omega)$$

bu yerda, M – inersiya momenti J ga teng bo‘lgan jismga qo‘yilgan kuch momenti; ω – jism aylanma harakatining burchak tezligi. Agar $J = \text{const}$ bo‘lsa, u holda

$$M = J \frac{d\omega}{dt} = J\varepsilon$$

bu yerda, ε – aylantiruvchi kuch momenti M ning ta’sirida jismning olgan burchak tezlanishi.

Aylanma harakat qilayotgan jismning kinetik energiyasi

$$W_k = \frac{J\omega^2}{2}$$

bu yerda, J – jismning inersiya momenti va ω – uning burchak tezligi.

Ilgarilanma harakat dinamikasining tenglamalari bilan aylanma harakat dinamikasining tenglamalari quyidagi jadvalda taqqoslang.

Ilgarilanma harakat	Aylanma harakat
Nyutonning ikkinchi qonuni $F \cdot \Delta t = m\vartheta_2 - m\vartheta_1$ yoki $F = ma$ Harakat miqdorining saqlanish qonuni $\sum m\vartheta = \text{const}$	$M \cdot \Delta t = J\omega_2 - J\omega_1$ yoki $M = J\varepsilon$ Harakat miqdori momentining saqlanish qonuni $\sum J\omega = \text{const}$
Ish va kinetik energiya $A = F \cdot S = \frac{m\vartheta_1^2}{2} - \frac{m\vartheta_2^2}{2}$	$A = M \cdot \varphi = \frac{J\omega_1^2}{2} - \frac{J\omega_2^2}{2}$

Fizik mayatnikning tebranishlar davri

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{J}{md \cdot g}}$$

bu yerda, J – mayatnikning aylanish o‘qiga nisbatan inersiya momenti, m – mayatnikning massasi, d – aylanish o‘qidan og‘irlik markazigacha bo‘lgan masofa, g – og‘irlik kuchining tezlanishi.

Masala yechish namunalari

1. Radiusi $R = 10 \text{ sm}$ va massasi $m = 5 \text{ kg}$ bo‘lgan shar aylanish o‘qi bo‘ylab $\varphi = A + Bt^2 + Ct^3$ ($B = 2 \frac{\text{rad}}{\text{s}^2}$, $C = -0,5 \frac{\text{rad}}{\text{s}^2}$) qonuniyat bo‘yicha aylanmoqda. $t = 3 \text{ s}$ dagi kuch momentini toping.

Berilgan:

$$\begin{aligned} R &= 10 \text{ sm} = 0,1 \text{ m}; \\ m &= 5 \text{ kg}; \\ \varphi &= A + Bt^2 + Ct^3; \\ B &= 2 \frac{\text{rad}}{\text{s}^2}; \\ C &= -0,5 \frac{\text{rad}}{\text{s}^2}; \\ t &= 3 \text{ s}; \end{aligned}$$

$$M = ?$$

Yechish:

Kuch momentini topish ifodasi

$$M = J\varepsilon \quad (1.1)$$

bu yerda, J – inersiya momenti, ε – burchak tezlanish

Sharning inersiya momenti

$$J = \frac{2}{5}mR^2; \quad \varepsilon = \frac{d\omega}{dt}; \quad \omega = \frac{d\varphi}{dt}$$

ω – burchak tezlik.

Demak,

$$\begin{aligned} \omega &= \frac{d\varphi}{dt} = \frac{d(A + Bt^2 + Ct^3)}{dt} = 2Bt + 3Ct^2 \\ \varepsilon &= \frac{d\omega}{dt} = \frac{d(2Bt + 3Ct^2)}{dt} = 2B + 6Ct \end{aligned}$$

Yuqoridagi natijaviy ifodalarni (1.1) ifodaga qo‘ysak,

$$M = \frac{2}{5}mR^2 \cdot (2B + 6Ct) = -0,1 N \cdot m$$

Javob: $M = -0,1 N \cdot m$

2. Yaxlit bir jinsli disk qilayigi α bo‘lgan tekislikdan sirpanishsiz dumalab tushmoqda. Disk markazidagi chiziqli tezlanishi toping.

Berilgan:

$\alpha;$

$a = ?$

Yechish:


Dumalab tushayotgan disk uchun Nyutonning II qonuni ifodasi quyidagicha bo‘ladi

$$\begin{aligned} ma &= P_x - F_{ishq} \\ P_x &= mgsin\alpha \end{aligned} \quad (2.1)$$

Kuch momenti quyidagi ifodalarga teng bo‘ladi

$$M = F_{ishq}R = J\varepsilon \quad (2.2)$$

bunda, $J = \frac{mR^2}{2}$ va $\varepsilon = \frac{a}{R}$



2.1 – rasm

$$F_{ishq} = \frac{J\varepsilon}{R} = \frac{mR^2a}{2R^2} = \frac{ma}{2} \quad (2.3)$$

(2.3) ni (2.1) ga qo‘ysak,

$$ma = mgsin\alpha - \frac{ma}{2} \quad (2.4)$$

(2.4) ifodadan a ni topamiz:

$$a = \frac{2}{3}gsin\alpha$$

Javob: $a = \frac{2}{3}gsin\alpha$.

3. Sharcha qiyaligi 30° bo‘lgan tekislikdan sirpanishsiz dumalab tushmoqda. Agar shar massa markazi Yerdan 30 sm balandlikda bo‘lgan bo‘lsa, uning qiyalikdan tushish vaqtini toping.

Berilgan:

$$\alpha = 30^\circ;$$

$$h = 30 \text{ sm};$$

$$t = ?$$


Yechish:

3.1 – rasmdagi tizim uchun energiyaning saqlanish qonuni quyidagich yoziladi:

$$mgh = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2} \quad (3.1)$$

bu yerda, J – sharning inersiya momenti

$$J = \frac{2}{5}mR^2; \quad \omega = \frac{\vartheta}{R}$$



Yuqoridagi ifodalarni (3.1) ifodaga qo‘ysak,

$$mgh = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{2mR^2}{5} \cdot \frac{\vartheta^2}{2R^2} = \frac{7m\vartheta^2}{10}$$

Hosil bo‘lgan tenglikdan ϑ ni topsak,

$$\vartheta = \sqrt{\frac{10gh}{7}}$$

Sharning bosib o‘tgan yo‘li

$$L = \frac{at^2}{2} = \frac{\vartheta t}{2} = \frac{h}{\sin\alpha}$$

ekanligini inobatga olsak, u holda

$$t = \frac{2h}{\vartheta \sin \alpha} = \sqrt{\frac{7}{10gh}} \cdot \frac{2h}{\sin \alpha} = \frac{2}{\sin \alpha} \sqrt{\frac{7h}{10g}}$$

Javob: $t = \frac{2}{\sin \alpha} \sqrt{\frac{7h}{10g}}$.

- 4.** Radiusi 20 sm bo‘lgan shar radiusi 50 sm bo‘lgan sfera sirtidan sirpanishsiz dumalab tushmoqda. Sharni sfera sirtidan ajralgandan keyingi burchak tezligini toping.

Berilgan:

$$\begin{aligned} r &= 20 \text{ sm} = 0,2 \text{ m}; \\ R &= 50 \text{ sm} = 0,5 \text{ m}; \end{aligned}$$

$$\omega = ?$$

Yechish:

Sharchaning sfera sirtidan uzilish nuqtasida markazdan qochma kuch quyidagicha bo‘ladi (4.1 – rasm):

$$F_{m.q} = \frac{m\vartheta^2}{R+r} \quad (4.1)$$

Markazdan qochma kuch o‘z navbaida og‘irlik kuchining shu yo‘nalishdagi proyeksiyasiga teng bo‘ladi:

$$\frac{m\vartheta^2}{R+r} = mg \cos \alpha \quad (4.2)$$


Energiyaning saqlanish qonuniga ko‘ra

$$mgh = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2} \quad (4.3)$$

Bunda,

$$h = (R + r) - (R + r)\cos \alpha$$

$$J = \frac{2}{5}mr^2; \quad \vartheta = \omega r$$



4.1 – rasm

Yuqoridagi ifodalarni (4.3) ifodaga qo‘ysak:

$$mg(R+r)(1-\cos\alpha) = \frac{mr^2\omega^2}{2} + \frac{2}{5}\frac{mr^2\omega^2}{2}$$

(4.2) ifodadan $\cos\alpha = \frac{\vartheta^2}{g(R+r)}$ ekanligini inobatga olsak,

$$mg(R+r)\left(1 - \frac{\vartheta^2}{g(R+r)}\right) = \frac{mr^2\omega^2}{2} + \frac{2}{5}\frac{mr^2\omega^2}{2}$$

tenglikni soddalashtirib, $g(R+r) = \frac{17}{10}\omega^2r^2$ ni hosil qilamiz. Bu tenglikdan:

$$\omega = \frac{1}{r} \sqrt{\frac{10}{17}g(R+r)}$$

Javob: $\omega = \frac{1}{r} \sqrt{\frac{10}{17}g(R+r)}$.

5. Massasi 2 kg bo‘lgan bir jinsli yaxlit silindr shiftga vaznsiz ipga osilgan holda qo‘zg‘almas blokni hosil qiladi. Silindrni ikki tomonida vaznsiz ipga osilgan 0,35 va 0,55 kg dan bo‘lgan yuklar osilib turibdi. Ishqalanishni hisobga olmasdan, 1) yuklar tezlanishi, 2) taranlik kuchlaning nisbati T_2/T_1 aniqlansin.

Berilgan:

$$\begin{aligned} m &= 2 \text{ kg}; \\ m_2 &= 0,35 \text{ kg}; \\ m_1 &= 0,55 \text{ kg}; \\ \hline a; T_2/T_1 &=? \end{aligned}$$

Yechish:

5.1 – rasmdagi tizim uchun quyidagi tenglamalar o‘rinli bo‘ladi:

$$\begin{cases} m_1a_1 = T_1 - m_1g \\ m_2a_2 = m_2g - T_2 \\ (T_1 - T_2)R = J\varepsilon \end{cases} \quad (5.1)$$

(5.1) ifodadagi ba’zi kattaliklarni quyidagicha almashtirislarga o‘zgartiramiz:

$$J = mR^2/2, \quad \varepsilon = \frac{a}{R},$$

Yuqoridagi almashtirishlarni (5.1) ifodaga qo‘ysak,

$$(T_1 - T_2)R = \frac{mR^2}{2} \cdot \frac{a}{R}$$

Bundan

$$T_1 - T_2 = \frac{ma}{2} \quad (5.2)$$

ekanligi kelib chiqadi.

(5.1) ifodadan T_1 va T_2 ni topib, ularning ayirmasi $T_2 - T_1$ ni aniqlaymiz:

$$T_2 - T_1 = m_2g - m_2a - m_1a - m_1g \quad (5.3)$$


(5.2) va (5.3) tengliklarni tenglashtirib, a ni topamiz:

$$a = \frac{(m_2 - m_1)}{m_1 + m_2 + \frac{m}{2}} \cdot g$$

Taranglik kuclarining nisbati T_2/T_1 esa quyidagi teng bo‘ladi:

$$\frac{T_2}{T_1} = \frac{m_2(g - a)}{m_1(g + a)}$$

$$\textbf{Javob: } a = \frac{(m_2 - m_1)}{m_1 + m_2 + \frac{m}{2}} \cdot g; \quad \frac{T_2}{T_1} = \frac{m_2(g - a)}{m_1(g + a)}$$



5.1 – rasm

Mavzuga oid masalalar

1. $R = 0,2\text{ m}$ radiusli bir jinsli diskning gardishiga urinma ravishda $F = 98,1\text{ N}$ o‘zgarmas kuch ta’sir qiladi. Aylanma harakat qilayotgan diskka $M_{ishq} = 5\text{ N} \cdot \text{m}$ ishqalanish kuchining momenti ta’sir qiladi. Agar disk o‘zgarmas $\varepsilon = 100\text{ rad/s}^2$ burchak tezlanish bilan aylanayotgan bo‘lsa, diskning og‘irligi topilsin.

- 2.** Inersiya momenti $J = 63,6 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ ga teng bo‘lgan maxovik $\omega = 31,4 \text{ rad/s}$ o‘zgarmas burchak tezlik bilan aylanmoqda. Maxovik tormozlovchi moment ta’sirida $t = 20 \text{ s}$ dan keyin to‘xtasa, tormozlovchi M moment topilsin.
- 3.** Inersiya momenti $245 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ ga teng bo‘lgan maxovik g‘ildirak 20 ayl/s bilan aylanadi. Aylantiruvchi momentning ta’siri to‘xtatilgandan bir minut o‘tgach g‘ildirak to‘xtaydi. 1) Ishqalanish kuchining momenti, 2) aylantiruvchi moment ta’siri to‘xtatilgandan boshlab to g‘ildirak to‘xtaguncha uning aylanishlar soni topilsin.
- 4.** 6 sm diametrli shar gorizontal tekislikda sekundiga 4 ayl/s bilan sirg‘anishsiz dumalaydi. Sharning massasi $0,25 \text{ kg}$. Sharning kinetik energiyasi topilsin.
- 5.** $\vartheta = 9 \text{ km/soat}$ tezlik bilan ketayotgan velosipedchining kinetik energiyasi topilsin. Velosiped bilan velosipedchining birgalikdagi og‘irligi $P = 780 \text{ N}$, ikkala g‘ildirakning og‘irligi $P_1 = 30 \text{ N}$ ga teng. Velosiped g‘ildiraklari gardish deb hisoblansin.
- 6.** G‘ildirak tormozlanishi natijasida tekis sekinlanuvchan aylanma harakat qilib, 1 minut davomida o‘z tezligini 300 ayl/s dan 180 ayl/min gacha kamaytiradi. G‘ildirakning inersiya momenti $2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$, 1) G‘ildirakning burchak tezlanishi, 2) tormozlovchi moment, 3) tormozlanish ishi, 4) g‘ildirakning shu minut davomidagi aylanishlari soni topilsin.
- 7.** $m = 5 \text{ kg}$ massali diskning gardishiga urinma $F = 20 \text{ N}$ o‘zgarmas kuch qo‘yilgan. Kuchning ta’siri boshlangandan keyin $t = 5 \text{ s}$ o‘tgach disk qanday kinetik energiyaga ega bo‘ladi?
- 8.** 100 kg massali gorizontal platforma o‘z og‘irlik markazidan o‘tuvchi vertikal o‘q atrofida 10 ayl/min bilan aylanadi. Bunda 600 N og‘irlilikdagi odam platformaning chekkasida turadi. Agar odam platformaning chetidan markaziga o‘tib olsa, platforma qanday tezlik bilan aylanadi? Platformani bir jinsli doiraviy disk deb, odamni esa moddiy nuqta deb hisoblansin.

9. Bir jinsli sterjen o‘zining yuqori uchidan 10 sm oraliqdagi nuqtadan o‘tuvchi gorizontal o‘q atrofida, vertikal tekislikda kichik tebranma harakat qiladi. Sterjenning uzunligi $l = 0,5\text{ m}$ bo‘lsa, sterjenning aylanish davri topilsin.

10. $56,5\text{ sm}$ diametrli chambarak devordagi mixga osilgan va devorga parallel tekislikda kichik tebranma harakat qiladi. Sterjenning tebranish davri topilsin.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

11. $R = 0,2\text{ m}$ radiusli va $P = 50\text{ N}$ og‘irlilikdagi disk o‘z og‘irlik markazidan o‘tgan o‘q atrofida aylanmoqda. Disk aylanish burchak tezligining vaqtga bog‘lanishi $\omega = A + Bt$ tenglama orqali berilgan, bunda $B = 8\text{ rad/s}^2$. Disk gardishiga qo‘yilgan urinma kuchning kattaligi topilsin.

12. $R = 0,5\text{ m}$ radiusli va $m = 10\text{ kg}$ massali maxovik aylantiruvchi qayish bilan motorga ulangan. Sirg‘alishsiz harakatlanayotgan qayishning taranglik kuchi o‘zgarmas bo‘lib, $T = 14,7\text{ N}$ ga teng. Harakat boshlanishidan $\Delta t = 10\text{ s}$ o‘tgandan keyin maxovik sekundiga necha marta aylanadi? Maxovik bir jinsli disk deb hisoblansin. Ishqalanish hisobga olinmasin.

13. 2 kg og‘irlilikdagi disk gorizontal tekislikda 4 m/s tezlik bilan sirg‘anishsiz dumalaydi. Diskning kinetik energiyasi topilsin.

3.14. Bola gorizontal yo‘lda chambarakni $7,2\text{ km/soat}$ tezlik bilan g‘ildiratadi. Chambarak o‘zining kinetik energiyasi hisobiga, har 100 m yo‘lda 10 m ko‘tariladigan qirga qancha masofada dumalab chiqadi?

3.15. Ventilyator 900 ayl/min ga mos tezlik bilan aylanadi. Ventilyator uchirilgandan keyin, tekis sekinlanuvchan harakatlanib, to‘xtaguncha 75 marta aylanadi. Tormozlanish ishi $44,4\text{ J}$ ga teng.

1) Ventilyatorning inersiya momenti, 2) tormozlanish kuchining momenti topilsin.

16. Yuqori uchidan o‘tuvchi o‘qqa gorizontal osilgan bir jinsli sterjenning pastki uchi muvozanat vaziyatidan 5 m/s tezlik bilan o‘tadigan bo‘lishi uchun, sterjenni qanday burchakka og‘dirish kerak? Sterjenning uzunligi 1 m .

17. Og‘irligi 800 N va radiusi 1 m bo‘lgan gorizontal platforma 20 ayl/min ga mos burchak tezlik bilan aylanadi. Platformaning markazida qo‘llarini yoyib, toshlarni ushlagan odam turibdi. Agar odam qo‘lini tushirib, o‘zining inersiya momentini $2,94 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ dan $0,98 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ gacha kamaytirsa, platformaning bir minutda aylanishlar soni qancha bo‘ladi? Platforma bir jinsli doiraviy disk deb hisoblansin.

18. Vertikal sterjenning uchlariga ikkita yuk mahkamlangan. Bu yuklarning og‘irlilik markazi sterjenning o‘rtasidan $d = 5 \text{ sm}$ pastda. Agar yuk mahkamlangan sterjen o‘rtasidan o‘tgan gorizontal o‘q atrofida $T = 2 \text{ s}$ davr bilan kichik tebranma harakatlanayotgan bo‘lsa, sterjenning uzunligi topilsin. Sterjenning og‘irligi yukning og‘irligiga nisbatan nazarga olinmasin.


19. Ipga osilgan $d = 4 \text{ sm}$ diametrli sharchanining tebranishini topishda uning matematik mayatnik deb hisoblash uchun ipning L uzunligi eng kamida qancha bo‘lishi kerak? Bu fazada xatolik 1% dan oshmasligi kerak.

20. Bir jinsli shar uzunligi sharning radiusiga teng bo‘lgan ipga osilgan. Bu mayatnikning kichik tebranish davri uzunligi xuddi shunday aylanish o‘qigan to og‘irlilik markazigacha masofaga teng bo‘lgan matematik mayatnikning davridan necha marta katta bo‘ladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar


1. Massasi $m = 10 \text{ kg}$ bo‘lgan yuk AC va BC iplarga rasmdagidek osilgan. AC ipning taranglik kuchini toping (N).

- A) 200 B) 100 C) 10 D) 20 E) 50



2. Agar $\alpha = 60^\circ$ bo‘lsa, massasi 3 kg bo‘lgan jismning AB va BC sterjenlarga ta’sir etayotgan kuchlarini toping (N).

- A) 17,3; 34,6 B) 10; 20
C) 20; 10 D) 34,6; 17,3



3. Agar l uzunlikdagi sterjenni 450 g massali yuk osilgan uchidan $l/5$ masofada tayanchga qo‘ysak, u gorizontal holatda muvozanatda turadi. Sterjen massasi nimaga teng (g)?

- A) 300 B) 75 C) 150 D) 200


4. Massasi 240 kg bo‘lgan bir jinsli balkani B va C nuqtalarda ikkita tayanch ko‘tarib turibdi. $AB = 2 \text{ m}$ va $BC = 8 \text{ m}$ bo‘lsa, B nuqtadagi va C nuqtadagi reaksiya kuchini hisoblab toping (N).

- A) 1500; 900 B) 1200; 1200 C) 720; 1680 D) 900; 1500



5. Rasmdagi brusokning L_1 uzunlikdagi qismi qalaydan, L_2 uzunlikdagi qismi yog‘ochdan yasalgan. Agar $L_1 = 20 \text{ sm}$ bo‘lsa, brusok muvozanatda qolishi uchun L_2 qancha bo‘lishi kerak (sm)? Qalayning zichligi 7,2 va yog‘ochning zichligi esa $0,8 \text{ g/sm}^3$ ga teng.

- A) 30 B) 60 C) 120 D) 90




6. Uzunligi 4 m bo‘lgan bir xil ko‘ndalang kesimli balkanining teng yarmi qo‘rg‘oshin va qolgan yarmi temirdan iborat. Balkanining og‘irlilik markazi balka uchlaridan qanday masofada joylashadi (m)? $\rho_q = 11,3 \text{ g/sm}^3$, $\rho_t = 7,8 \text{ g/sm}^3$ ga teng.

- A) 1,8; 2,2 B) 1,7; 2,3 C) 2; 2 D) 1,5; 2,5

7. Rasmdagi bir uchi devorga sharnirli mahkamlangan og'irligi $P = 50 \text{ N}$ bo'lgan sterjenning ikkinchi uchiga og'irligi 50 N bo'lgan yuk qo'zg'almas blok orqali osib qo'yilgan.

Sterjen gorizontal holatda muvozanatda turishi uchun O nuqtaga yana og'irligi qancha bo'lgan yuk osish kerak bo'ladi (N)?

- A) 20 B) 30 C) 40 D) 50




8. Uzunligi 2 m bo'lgan bir jinsli chizg'ichning og'irlilik markazini 10 sm surish uchun uning bir uchidan qanday uzunlikdagi qismini kesib olish kerak (sm)?

- A) 10 B) 5 C) 90 D) 20

9. Rasmdagi tizimning og'irlilik markazi 2m massali sharchadan qanday masofada yotadi?

- A) $a/2$ B) $\frac{a\sqrt{3}}{2}$ C) $\frac{a\sqrt{3}}{4}$
 D) $\frac{a\sqrt{2}}{2}$ E) $a/3$



10. Quyida berilgan jumlalarning mazmuniga mos ravishda gaplarni to'ldiring.

1. Muvozanat holatidan jism biroz chetlatilganda, muvozanat holatiga qaytaruvchi kuch paydo bo'lsa, uning muvozanati...

2. Muvozanat holatidan jism biroz chetlatilganda, xech qanday qo'shimcha kuch paydo bo'lmasa, jismning muvozanati ...

3. Muvozanat holatidan jism biroz chetlatilganda, muvozanat holatidan uzoqlashtiruvchi kuch hosil bo'lsa, jismning muvozanati ...

- A) turg'un, farqsiz, turg'unmas
 B) turg'unmas, turg'un, farqsiz
 C) farqsiz, turg'unmas, turg'un
 D) turg'un, turg'unmas, farqsiz

1.4. Gazlar va suyuqliklar mexanikasi

Ideal siqilmaydigan suyuqliklarning harakatini aniqlash uchun Bernulli tenglamasi o‘rinlidir:

$$p + \frac{\rho\vartheta^2}{2} + \rho gh = const$$

bu yerda, ρ – suyuqlikning zichligi, ϑ – trubaning berilgan kesimidagi suyuqlik harakatining tezligi, h – truba kesimining biror sathdan balandligi va p – bosim. Kichik teshikdan oqib chiqayotgan suyuqlikning tezligi Bernulli tenglamasiga asosan $\vartheta = \sqrt{2gh}$ ga tengdir, bunda h – teshikdan suyuqlik sathigacha bo‘lgan balandlik. Trubaning ixtiyoriy ko‘ndalang kesimidan teng hajmda suyuqlik o‘tganligidan $S_1\vartheta_1 = S_2\vartheta_2$ bo‘ladi, bunda ϑ_1 va ϑ_2 – ko‘ndalang kesimining yuzi S_1 va S_2 bo‘lgan trubaning ikkita kesimidagi suyuqlikning tezligi.

Yopishqoq suyuqlikda (yoki gazda) tushayotgan kichik radiusli sharchaga ta’sir qiluvchi qarshilik kuchi Stoks formulasidan aniqlanadi:

$$F = 6\pi\eta r\vartheta$$

bu yerda, η – suyuqlik yoki gazning ichki ishqalanish koeffitsiyenti (dinamik yopishqoqligi), r – sharchaning radiusi, ϑ – uning harakat tezligi.

Stoks qonuni faqat **laminar harakat** uchun o‘rinlidir. Radiusi r va uzunligi l bo‘lgan kapilyar trubadan t vaqt ichida laminar oqib o‘tgan suyuqlikning (gazning) hajmi Puazeyl formulasidan aniqlanadi:

$$V = \frac{\pi r^4 \cdot t \cdot \Delta p}{8l\eta}$$

bu yerda, η – suyuqlik (yoki gazning) dinamik yopishqoqligi, Δp – truba uchlariだagi bosimlarning farqi.

Suyuqlik (gaz) harakatining xarakteri Reynoldsning o‘lchamsiz sonidan aniqlanadi:

$$R_e = \frac{D\vartheta\rho}{\eta} = \frac{D\vartheta}{\nu}$$

bu yerda, D – atrofida suyuqlik (gaz) oqib o‘tayotgan jismning chiziqli o‘lchamini xarakterlab beruvchi kattalikdir, ϑ – oqim tezligi, ρ – zichlik, η – suyuqlik (yoki gazning) dinamik yopishqoqligi.

$$\nu = \frac{\eta}{\rho}$$

nisbatga kinematik yopishqoqlik deyiladi. Laminar harakatning turbulent harakatga o‘tishidan aniqlanadigan Reynolds sonining kritik qiymati turli shakldagi jismlar uchun har xildir.

Masala yechish namunalari

1. Asosining yuzi 10 m^2 va hajmi 100 m^3 bo‘lgan silindrsimon idish suv bilan to‘ldirilgan. Agar idish tubida yuzasi 8 sm^2 bo‘lgan doiraviy teshik hosil qilinsa, idishdagi suv qancha vaqtida to‘laligicha oqib ketadi? Suyuqlikning ichki ishqalanishi hisobga olinmasin.

Berilgan:

$$S = 10 \text{ m}^2;$$

$$V = 100 \text{ m}^3;$$

$$S_1 = 8 \text{ sm}^2 = 8 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2;$$

$$\tau = ?$$

Yechish:


1.1 – rasmdagi silindrsimon idishning balandligi quyidagiga teng:

$$H = \frac{V}{S} \quad (1.1)$$

S_1 yuzadan dt vaqt davomida oqib chiquvchi suv hajmi

$$dV = -S_1\vartheta dt$$

bunda, $\vartheta = \sqrt{2gh}$ ga teng.



1.1 – rasm

$$dV = Sdh \quad (1.2)$$

(1.2) ifodadan

$$dh = \frac{dV}{S} = -\frac{S_1}{S} \sqrt{2gh} dt \quad (1.3)$$

(1.3) ifodadan dt ni topsak,

$$dt = -\frac{S_1}{S} \frac{dh}{\sqrt{2gh}}$$

$$\begin{aligned} \tau &= \int_0^t dt = -\frac{S_1}{S} \frac{1}{\sqrt{2g}} \int_H^0 \frac{dh}{\sqrt{h}} = -\frac{S}{S_1 \sqrt{2g}} (2\sqrt{h}) \Big|_H^0 = \\ &= \frac{S}{S_1} \frac{1}{\sqrt{2g}} \sqrt{2H} = \frac{S}{S_1} \sqrt{\frac{2V}{gS}} = \frac{1}{S_1} \sqrt{\frac{2SV}{g}} \end{aligned}$$

$$\tau = \frac{1}{S_1} \sqrt{\frac{2SV}{g}} = \frac{1}{8 \cdot 10^{-4}} \sqrt{\frac{2 \cdot 10 \cdot 100}{10}} = 1,76 \cdot 10^4 s$$

Javob: $\tau = 1,76 \cdot 10^4 s.$

2. Diametri D bo‘lgan silindrsimon idishning yon sirtida ichki deametri d va uzunligi l bo‘lgan kapillyar naycha o‘rnatilgan. Idishga dinamik yopishqoqligi η bo‘lgan suyuqlik qo‘yildi. Suyuqlikning oqish tezligi ϑ , kapillyar naychagacha bo‘lgan suyuqlikning balandligi h ga qanday munosabatda ekanligini aniqlang.

Berilgan:

$$D; d; l; \eta; h$$

$$\vartheta(h) = ?$$

Yechish:

Kapillyar naychadan t vaqtida oqib o‘tgan suyuqlikning hajmi Puazeyl formulasi orqali aniqlanadi (2.1 – rasm):


$$V = \frac{\pi r^4 \cdot t \cdot \Delta p}{8l\eta} \quad (2.1)$$

bunda, $\Delta p = \rho gh$ – naycha uchlaridagi bosimlar farqi.

Suyuqlik hajmini quyidagicha ham yozish mumkin:

$$V = S_1 \vartheta_1 t \quad (2.2)$$

bu yerda, S_1 – kapillyar naychaning ko‘ndalang kesimining yuzi, ϑ_1 – naychadan oqib chiquvchi suyuqlikning tezligi.



2.1 – rasm

Quyidagi almashtirishlarni bajaramiz:

$$S_1 = \pi r^2; r = d/2;$$

(2.1) ni (2.2) ifodaga tenglashtiramiz:

$$\frac{\pi r^4 \cdot t \cdot \Delta p}{8l\eta} = S_1 \vartheta_1 t$$

$\frac{\pi d^4 \cdot t \cdot \Delta p}{16 \cdot 8l\eta} = \frac{\pi d^2}{4} \vartheta_1 t$ tenglikni hosil qilib, undan ϑ_1 ni topamiz:

$$\vartheta_1 = \frac{d^2 \Delta p}{32\eta l} = \frac{d^2 \rho g h}{32\eta l} \quad (2.3)$$

Uzluksizlik tenglamasiga asosan, $\vartheta_1 S_1 = \vartheta S$ bo‘ladi. U holda,

$$\vartheta = \vartheta_1 \frac{S_1}{S} = \vartheta_1 \frac{d^2}{D^2} \quad (2.4)$$

(2.3) ifodani (2.4) ga qo‘ysak,

$$\vartheta = \frac{d^2 \rho g h}{32\eta l} \cdot \frac{d^2}{D^2} = \frac{d^4 \rho g h}{32\eta l D^2}$$

ga ega bo‘lamiz.

Javob: $\vartheta = \frac{d^4 \rho g h}{32\eta l D^2}$.

3. Diametri 6 mm bo‘lgan sharcha ($\rho_{sh} = 200 \text{ kg/m}^3$) kanakunjut moyi ($\rho_s = 960 \text{ kg/m}^3$) bilan to‘ldirilgan idishda 15 sm/s tezlik bilan ko‘tarilmoqda. Kanakunjut moyining dinamik yopishqoqligini toping.

Berilgan:

$$\begin{aligned} d &= 6 \text{ mm}; \\ \rho_{sh} &= 200 \text{ kg/m}^3; \\ \rho_s &= 960 \text{ kg/m}^3; \\ \vartheta &= 15 \text{ sm/s} = \\ &= 0,15 \text{ m/s}; \\ \hline \eta &=? \end{aligned}$$

Yechish:

Sharchaning suyuqlik ichida ko‘tarilish jarayoni uchun Nyutonning ikkinchi qonunini yozamiz (3.1 – rasm):


$$\begin{aligned} m\vec{a} &= \vec{F}_A + \vec{F} + \vec{P} \\ 0 &= F_A - F - mg \\ F_A &= F + mg \end{aligned} \quad (3.1)$$

Ba’zi almashtirishlarni amalga oshiramiz:

$$F_A = \rho_s g V_j = \frac{1}{6} g \rho_s \pi d^3$$

$$m = \frac{1}{6} \rho_{sh} \pi d^3$$

$$F = 3\pi\eta d\vartheta$$



3.1 – rasm

Almashtirishlarni (3.1) ifodaga qo‘ysak:


$$\frac{1}{6} \pi g \rho_s d^3 = \frac{1}{6} \rho_{sh} \pi d^3 g + 3\pi\eta d\vartheta$$

tenglikka erishamiz. Oxirgi ifodadan η ni topamiz:

$$\eta = \frac{1}{18} \frac{gd^2}{\vartheta} (\rho_s - \rho_{sh}) = 0,99 \text{ Pa}$$

Javob: $\eta = 0,99 \text{ Pa}$

4. Ko‘ndalang kesim yuzalari $S_1 = 10 \text{ sm}^2$ va $S_2 = 20 \text{ sm}^2$ bo‘lgan gorizontal joylashgan trubadan suv oqmoqda (4.1 – rasm). Vertikal joylashgan ikki naychalar balandliklarining farqi $\Delta h = 20 \text{ sm}$ ga teng. 1 sekund davomida trubadan oqib o‘tuvchi suv hajmini aniqlang.



4.1 – rasm

Berilgan:

$$\begin{aligned}S_1 &= 10 \text{ sm}^2 = 10^{-3} \text{ m}^2; \\S_2 &= 20 \text{ sm}^2 = 2 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2; \\\Delta h &= 20 \text{ sm} = 0,2 \text{ m}; \\t &= 1 \text{ s};\end{aligned}$$

$$V = ?$$

Yechish:

Bernulli tenglamasiga asosan,

$$\frac{\rho \vartheta_1^2}{2} + p_1 = \frac{\rho \vartheta_2^2}{2} + p_2 \quad (4.1)$$

Uzluksizlik tenglamasiga asosan,

$$\vartheta_1 S_1 = \vartheta_2 S_2 \quad (4.2)$$

S_1 yuzadan t vaqtida oqib o‘tuvchi suv hajmi quyidagicha topiladi:

$$V = \vartheta_1 t S_1 \quad (4.3)$$

4.1 – rasmdagi ikki naycha bosimlarining farqi

$$p_2 - p_1 = \rho g \Delta h \quad (4.4)$$

(4.2) ifodadan ϑ_2 tezlikni topamiz:

$$\vartheta_2 = \vartheta_1 \frac{S_1}{S_2} \quad (4.5)$$

(4.1) va (4.5) ifodalarni (4.4) ifodaga moslashtirib quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$\frac{\rho \vartheta_1^2}{2} \left(1 - \frac{S_1^2}{S_2^2} \right) = \rho g \Delta h$$

Ushbu tenglikdan ϑ_1 ni topamiz:

$$\vartheta_1 = \sqrt{\frac{2g\Delta h}{1 - \frac{S_1^2}{S_2^2}}} \quad (4.6)$$

(4.6) ifodani (4.3) ga qo‘ysak,

$$V = S_1 t \sqrt{\frac{2g\Delta h}{1 - (S_1^2/S_2^2)}} = 2,29 \cdot 10^3 \text{ sm}^3.$$

Javob: $V = 2,29 \cdot 10^3 \text{ sm}^3$.

Mavzuga oid masalalar


1. Silindrsimon idishning asosida $d = 1 \text{ sm}$ diametrli doiraviy teshik bor. Idishning diametri $D = 0,5 \text{ m}$. Idishda suv sathining pasayish tezligi ϑ ning suv sathining balandligi h ga bog‘lanishi topilsin. $h = 0,2 \text{ m}$ balandlik uchun bu tezlikning son qiymati hisoblansin.

2. Suv to‘ldirilgan A idish (Mariott idishi) og‘ziga mahkamlangan a naycha orqali atmosfera bilan tutashtirilgan. Tubidan $h_2 = 2 \text{ sm}$ balandlikda idishning K jo‘mragi bor. Truba a ning pastki uchi idish tubidan:

- 1) $h_1 = 2 \text{ sm}$; 2) $h_1 = 7,5 \text{ sm}$;
- 3) $h_1 = 10 \text{ sm}$

ga teng oraliqda bo‘lgan hollarda K jo‘mrakdan oqib chiqayotgan suvning tezligi topilsin.

3. Idishda har 1 s da $0,2 \text{ l}$ suv quyiladi. Bunda idishdagi suvning sathi $h = 8,3 \text{ sm}$ balandlikda o‘zgarmasdan qolishi uchun idish tubidagi teshikning d diametri qanday bo‘lishi kerak?



4. Shar zichligi materialining zichligidan 4 marta katta zichlikli suyuqlikning ichidan o‘zgarmas tezlik bilan chiqib kelmoqda. Chiqib kelayotgan sharchaga ta’sir qiluvchi ishqalanish kuchi, bu sharchaning og‘rligidan necha marta katta?
5. 1 mm diametrli po‘lat sharcha katta idishdagi kanakunjut moyiga 0,185 sm/s o‘zgarmas tezlik bilan tusha boradi. Kanakun-jut moyining dinamik yopishqoqligini toping.
6. Pukakdan yasalgan 5 mm radiusli sharcha kanakunjut moy to‘ldirilgan idishning tubidan 3,5 sm/s o‘zgarmas tezlik bilan chiqib kelayotgan bo‘lsa, tajriba shartiga asosan kanakunjut moyining dinamik va kinematik yopishqoqligini toping.
7. Po‘lat sharcha keng idishdagi zichligi $\rho = 900 \text{ kg/m}^3$ va dinamik yopishqoqligi $\eta = 0,8 \text{ N} \cdot \text{s/m}^2$ bo‘lgan transformator moyida tushib boradi. $R_e \leq 0,5$ bo‘lganda (bunda R_e ni hisoblashda D kattalikning o‘rnida sharning diametrini olish kerak) Stoks qonunini o‘rinli hisoblab, shar diametrining chegaraviy qiymatini toping.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)


8. Stol ustidagi suvli idishning yon sirtida idishning asosidan h_1 masofada va suvning sathidan h_2 masofada joylashgan teshigi bor. Idishdagi suvning sathi har doim o‘zgarmas saqlanadi. Suv jarayoni stolga (gorizontal bo‘ylab) qanday masofada tushadi? Masala 1) $h_1 = 25 \text{ sm}$ va $h_2 = 16 \text{ sm}$, 2) $h_1 = 16 \text{ sm}$ va $h_2 = 25 \text{ sm}$ hollar uchun yechilsin.
9. Balandligi $h = 1 \text{ m}$ bo‘lgan silindrsimon bakka suv to‘ldirilgan. 1) Bakning tubidagi teshikdan qancha vaqtida suv to‘liq oqib chiqadi? Teshikning ko‘ndalang kesim yuzidan 400 *marta* kichik. 2) Bu topilgan vaqtini, bakdagisi suvning sathi teshikdan $h = 1 \text{ m}$ balandlikdan o‘zgarmas holda saqlanganda (suv to‘ldirib turilganda)

teshikdan o'shancha suv oqib tushguncha ketgan vaqt bilan solishtiring.

- 10.** Agar buyoq pultidan 25 m/s tezlik bilan suyuq buyoq oqib chiqayotgan bo'lsa, kompressor buyoq pultida qanday bosim hosil qiladi? Buyoqning zichligi $0,8 \text{ g/sm}^3$ ga teng.
- 11.** Dinamik yopishqoqligi $1,2 \cdot 10^{-4} \text{ g/sm} \cdot \text{s}$ ga teng havodagi $d = 0,3 \text{ mm}$ diametrli yomg'ir tomchisi eng ko'pi bilan qanday tezlikka erishadi?
- 12.** 3 mm va 1 mm diametrli qo'rg'oshin pitralarining aralashmasi bakdagi 1 m chuqurlikdagi glitseringa tashlangan. Kichik diametrli pitralar katta diametrli pitralarga nisbatan bakning tubiga qancha keyin tushadi? Tajriba haroratsidagi glitserinning dinamik yopishqoqligi $14,7 \text{ g/sm} \cdot \text{s}$.
- 13.** $R = 2 \text{ sm}$ radiusli silindrik idishning yon sirtiga ichki radiusi $r = 1 \text{ mm}$ va uzunligi $l = 2 \text{ sm}$ gorizontal kapillyar naycha o'rnatilgan. Idishga dinamik yopishqoqligi $\eta = 12 \text{ g/sm} \cdot \text{s}$ ga teng kanakunjut moyi quyilgan. Silindrik idishdagi kanakunjut moyi sathining ϑ pasayish tezligini kapillyardan moy sathigacha bo'lgan h balandlikka bog'lanishi topilsin. $h = 26 \text{ sm}$ bo'lganda, bu tezlikning son qiymati topilsin.
- 14.** Yon sirtiga tubidan $h_1 = 5 \text{ sm}$ balandlikda gorizontal kapillyar naycha o'rnatilgan idish stolning ustida turibdi. Kapillyarning ichki radiusi $r = 1 \text{ mm}$, uzunligi $l = 1 \text{ sm}$. Idishga zichligi $\rho = 900 \text{ kg/m}^3$ va dinamik yopishqoqligi $\eta = 0,5 \text{ Ns/m}^2$ bo'lgan mashina moyi quyilgan. Idishdagi moyning sathi kapillyar-dan $h_2 = 50 \text{ sm}$ balandlikda o'zgarmas holda saqlanadi. Kapillyar-ning uchidan moy jarayoni stolga (gorizontal bo'yab) qanday oraliqda borib tushishi topilsin.

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. Silindr simon idishga massalari teng bo‘lgan simob va suv quyiladi. Bunda suyuqliklar ustunining umumiy balandligi 29,2 sm bo‘ldi. Shu ustunning idish tubiga berayotgan bosimini toping (kPa). Simobning zichligi $13,6 \text{ gr/sm}^3$.
A) 29,2 B) 39,7 C) 5,44 D) 36,78
2. Toshkent shahri dengiz sathidan o‘rtacha 407 m balandlikda joylashgan. Toshkent telemenorasing balandligi 385 m ga teng. Agar dengiz sathidagi atmosfera bosimi 760 mm sim.ust.ga teng bo‘lsa, minoraning uchida barometr qancha bosimni (mm.sim.ust.) ko‘rsatadi?
A) 704 B) 698 C) 714 D) 694
3. Suv quyilgan temir chelak yuqoriga 2 m/s^2 tezlanish bilan ko‘tarilmoqda. Agar chelakdagi suv ustunining balandligi 25 sm bo‘lsa, suvning chelak tubiga bosimini aniqlang (kPa).
A) 3,6 B) 2,2 C) 1,1 D) 3
4. Gidravlik press kichik porshening yuzi 8 sm^2 , katta porsheniniki 800 sm^2 . Kichik porshenga 600 N kuch berilganda katta porshendan 54 kN kuch olindi. Ishqalanish bo‘limganda va ishqalanish bo‘lganda shu press yordamida kuchni necha marta oshirish mumkin bo‘ladi?
A) 100; 90 B) 90; 100 C) 67,5; 75 D) 75; 67,5
5. Kub shaklidagi yaxlit jism simobda $0,25\text{V}$ qismi botgan holda so‘zmoqda. Agar bu idishga kub to‘liq botguncha suv quyilsa, kubning qancha qismi simobda bo‘ladi? $\rho_{\text{simob}} = 13,6 \text{ g/sm}^3$.
A) $0,4\text{V}$ B) $0,1\text{V}$ C) $0,3\text{V}$ D) $0,19\text{V}$
6. Qandaydir buyum dinamometrga bog‘lanib kerosinga tushirilganda, dinamometr 15 N kuchni, suvgaga tushirilganda esa 12 N kuchni ko‘rsatdi. Buyumning hajmini toping (m^3). $\rho_s = 1 \text{ gr/sm}^3$; $\rho_k = 0,8 \text{ gr/sm}^3$.
A) $1,2 \cdot 10^{-4}$ B) $1,5 \cdot 10^{-3}$ C) $3 \cdot 10^{-3}$ D) $3 \cdot 10^{-4}$

7. Hajmlari bir xil, zichliklari 3 marta farq, qiluvchi 2 ta shar rasmdagidek, ipga bog'langan holatda suvda turibdi. Agar sharlarning hajmlari 10 sm^3 dan bo'lsa, ipning taranglik kuchini hisoblang (N).
- A) 0,1 B) 0,0125 C) 0,015 D) 0,12
- 
8. Vodoprovod quvuridagi 5 mm^2 teshikdan suv yuqoriga tik otilib, 80 sm balandlikka ko'tarilmoqa. Teshikdan 10 soatda qancha suv oqib chiqadi (kg)?
- A) 720 B) 1000 C) 820 D) 1200
9. O'zgarmas 4 m/s tezlik bilan ketayotgan katerdan to'g'ri burchakli qilib egilgan quvur suvgaga shunday tushirilganki, uning suvgaga tushirilgan tomoni gorizontal bo'lib, ochiq uchi bilan harakat yo'naliishi tomonga qaragan. Quvurdagi suv sathi ko'ldagi suvgaga nisbatan qanday balandlikda bo'ladi (m)?
- A) 3,6 B) 1 C) 1,8 D) 0,8
10. Samolyot qanotining ko'tarish kuchining paydo bo'lishi qanday fizikaviy qonun asosida tushuntiriladi? To'g'ri javobni tanlang.
- A) impulsning saqlanish qonuni asosida
B) Nyutonning uchinchi qonuni asosida
C) Arximed qonuni asosida
D) Bernulli qonuni asosida

II. MOLEKULYAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA

2.1. Molekulyar kinetik nazariya va termodinamikaning fizik asoslari

Ideal gazlar Mendeleyev – Klapeyron holat tenglamasiga bo‘ysunadi:

$$PV = \frac{m}{\mu} RT$$

bu yerda, P – gazning bosimi, V – uning hajmi, T – absolyut harorat, μ – gazning molyar massasi, m – gazning massasi, R – universal gaz doimiysi, m/μ – nisbat kilomollar sonini beradi.

XBT birliklar tizimida gaz doimiysining son qiymati $R = 8,31 \text{ J/mol} \cdot \text{K}$ ga teng.

Dalton qonuniga ko‘ra gaz aralashmasining bosimi ularning porsial bosimlari yig‘indisiga, ya’ni har bir gaz alohida olinganida mavjud haroratda bir o‘zi butun hajmni to‘ldirgandagi bosimlar yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Gazlar kinetik nazariyasining asosiy teglamasi quyidagi ko‘rinishga egadir:

$$P = \frac{2}{3} n \bar{W}_0 = \frac{2}{3} n \frac{m \bar{\vartheta}^2}{2}$$

bu yerda, n – hajm birligidagi molekulalar soni, \bar{W}_0 – bitta molekula ilgarilanma harakatining o‘rtacha kinetik energiyasi, m – molekulaning massasi va $\sqrt{\bar{\vartheta}^2}$ – molekulaning o‘rtacha kvadratik tezligi.

Bu kattaliklarni quyidagi formulalardan aniqlash mumkin.
Hajm birligidagi molekulalar soni

$$n = \frac{P}{kT}$$

bu yerda, $k = R/N_A$ – Bolsman doimiysi, N_A – Avagadro soni. $R = 8,31 \text{ J/mol} \cdot \text{K}$ va $N_A = 6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ bo‘lgani uchun $k = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$ bo‘ladi.

Molekula ilgarilanma harakatining o‘rtacha kinetik energiyasi:

$$\bar{W}_0 = \frac{3}{2} kT$$

Molekulaning o‘rtacha kvadratik tezligi:

$$\sqrt{\bar{v}^2} = \sqrt{\frac{3RT}{\mu}} = \sqrt{\frac{3kT}{m}}$$

shu bilan birga

$$m = \frac{\mu}{N_A}$$

Molekulalarning issiqlik energiyasi (gazning ichki energiyasi)

$$W = \frac{i}{2} \cdot \frac{m}{\mu} RT$$

bu yerda, i – molekulaning erkinlik darajasi.

C molekulyar va c solishtirma issiqlik sig‘imlari quyidagicha o‘zaro bog‘langandir:

$$C = \mu c$$

O‘zgarmas hajmdagi gazning molekulyar issiqlik sig‘imi

$$C_V = \frac{i}{2} R$$

o‘zgarmas bosimdagি

$$C_V + C_P = R$$

Bundan ko‘rinadiki, molekulyar issiqlik sig‘im gaz molekulalari erkinlik darajasining soni bilan to‘liq aniqlanadi. Bir atomli gazlar uchun $i = 3$ bo‘lib,

$$C_V = 12,5 \frac{J}{mol \cdot K}$$

$$C_P = 20,8 \frac{J}{mol \cdot K}$$

Ikki atomli gazlar uchun $i = 5$ bo‘lib,

$$C_V = 20,8 \frac{J}{mol \cdot K}$$

$$C_P = 29,1 \frac{J}{mol \cdot K}$$

Uch va undan ko‘p atomli gazlar uchun $i = 6$ bo‘lib,

$$C_V = 24,9 \frac{J}{mol \cdot K}$$

$$C_P = 33,2 \frac{J}{mol \cdot K}$$

Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimot qonuni (Maksvell qonuni), nisbiy tezliklari u dan $u + \Delta u$ gacha bo‘lgan intervalda yotgan molekulalar soni ΔN ni topishga imkon beradi:

$$\Delta N = \frac{4}{\pi} \cdot N \cdot e^{-u^2} \cdot u^2 \cdot \Delta u$$

bu yerda, $u = \vartheta/\vartheta_e$ – nisbiy tezlik bo‘lib, ϑ – berilgan tezlik va

$$\vartheta_e = \sqrt{2RT/\mu}$$

– ehtimolligi eng katta tezlik. Δu tezlik va u ga nisbatan kichik bo‘lgan, nisbat tezliklarning interval kattaligi.

Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimot qonuniga masalalar yechishda har xil u uchun $\frac{\Delta N}{N \cdot \Delta u}$ ning qiymati berilgan quyidagi jadvaldan foydalanish qulaydir.

u	$\frac{\Delta N}{N \cdot \Delta u}$	u	$\frac{\Delta N}{N \cdot \Delta u}$	u	$\frac{\Delta N}{N \cdot \Delta u}$
0	0	0,9	0,81	1,8	0,29
0,1	0,02	1,0	0,83	1,9	0,22
0,2	0,09	1,1	0,82	2,0	0,16
0,3	0,18	1,2	0,78	2,1	0,12
0,4	0,31	1,3	0,71	2,2	0,09
0,5	0,44	1,4	0,63	2,3	0,06
0,6	0,57	1,5	0,54	2,4	0,04
0,7	0,68	1,6	0,46	2,5	0,03
0,8	0,76	1,7	0,36		

Molekulaning o‘rtacha arifmetik tezligi

$$\bar{v} = \sqrt{\frac{8RT}{\pi\mu}}$$

Ko‘pchilik hollarda tezligi berilgan u tezlikning qiymatidan ortiq bo‘lgan molekulalarning N_x sonini bilish muhimdir. Quyidagi jadvalda $\frac{N_x}{N} = F_x(u)$ ning qiymati berilgan, bunda N – molekulalarning umumiy soni.

u	$\frac{N_x}{N}$	u	$\frac{N_x}{N}$
0	1,000	0,8	0,734
0,2	0,994	1,0	0,572
0,4	0,957	1,25	0,374
0,5	0,918	1,5	0,213
0,6	0,868	2,0	0,046
0,7	0,806	2,5	0,0057

Barometrik formula gaz bosimining og'irlik kuchi maydonida balandlikqa qarab kamayishini ifodalaydi:

$$P_h = P_0 l^{-\frac{\mu g h}{RT}}$$

bu yerda, P_h – gazning h balandlikdagi bosimi, P_0 – gazning $h = 0$ balandlikdagi bosimi, g – og'irlik kuchining tezlanishi. Bu formula taqribiydir, chunki balandliklarning farqi katta bo'lganda T haroratni bir xil deb bo'lmaydi.

Gaz molekulasining erkin yugurish yo'lining o'rtacha uzunligi

$$\bar{\lambda} = \frac{\bar{\vartheta}}{\bar{z}} = \frac{1}{\sqrt{2}\pi\sigma^2 \cdot n}$$

bu yerda, $\bar{\vartheta}$ – o'rtacha arifmetik tezlik, \bar{z} – har bir molekulaning qolgan molekulalar bilan vaqt birligi ichida to'qnashishlar soni, σ – molekulaning effektiv diametri va n – hajm birligidagi molekulalar soni.

Barcha molekulalarni vaqt birligi ichida bir birlik hajmda umumiy to'qnashishlar soni quyidagiga teng:

$$Z = \frac{1}{2} \bar{z} n$$

Diffuziya natijasida Δt vaqt ichida ko'chirilgan massa m quyidagiga tenglamadan aniqlanadi:

$$m = -D \frac{\Delta \rho}{\Delta x} \cdot \Delta S \cdot \Delta t$$

bu yerda, $\frac{\Delta \rho}{\Delta x}$ – yuza ΔS ga tik yo'nalishdagi zichlik gradiyenti va D – diffuziya koefitsiyenti bo'lib, quyidagiga teng:

$$D = \frac{1}{2} \bar{\vartheta} \bar{\lambda}$$

bu yerda, $\bar{\vartheta}$ – o‘rtacha tezlik, $\bar{\lambda}$ – molekula erkin yugurish yo‘lining o‘rtacha uzunligi.

Gazning Δt vaqt ichida ko‘chirilgan harakat miqdori gazdag'i ichki ishqalanishning kuchi F ni aniqlaydi:

$$F = -\eta \frac{\Delta \vartheta}{\Delta x} \cdot \Delta S$$

bu yerda, $\frac{\Delta \vartheta}{\Delta x}$ – yuz ΔS ga tik yo‘nalishdagi gaz oqimining tezlik gradiyenti, η – ichki ishqalanish koeffitsiyenti (dinamik yopishqoqlik)

$$\eta = \frac{1}{3} \bar{\vartheta} \bar{\lambda} \rho$$

Issiqlik o‘rkazuvchanlik natijasida Δt vaqt ichida kuchirilgan issiqlik miqdori quyidagiga teng:

$$Q = -K \frac{\Delta T}{\Delta x} \cdot \Delta S \cdot \Delta t$$

bu yerda, $\frac{\Delta T}{\Delta x}$ – yuza ΔS ga tik yo‘nalishdagi harorat gradiyenti, K – issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, u:

$$K = \frac{1}{3} \bar{\vartheta} \bar{\lambda} C_V \rho$$

ga teng.

Termodinamikaning birinchi qonuni quyidagi ko‘rinishda yozilishi mumkin:

$$dQ = dW + dA$$

bu yerda, dQ – gazning olgan issiqlik miqdori, dW – gaz ichki energiyasining o‘zgarishi va $dA = pdV$ gazning hajmi o‘zgarganda uning bajargan ishi. Gazning ichki energiyasining o‘zgarishi:

$$dW = \frac{i}{2} \cdot \frac{m}{\mu} R dT$$

bu yerda, dT – haroratning o‘zgarishi.

Gazning hajmi o‘zgarganda bajarilgan to‘la ish

$$A = \int_{V_1}^{V_2} P dV$$

Gazning hajmi izotermik o‘zgarganda bajarilgan ish,

$$A = RT \frac{m}{\mu} \ln \frac{V_2}{V_1}$$

Adiabatik jarayonda gaz bosimi bilan hajmining o‘zaro bog‘lanishi Puasson tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$PV^\chi = const$$

ya’ni

$$\frac{P_1}{P_2} = \left(\frac{V_2}{V_1}\right)^\chi$$

bunda

$$\chi = \frac{C_p}{C_v}$$

Puasson tenglamasini quyidagi ko‘rinishda ham yozish mumkin

$$TV^{\chi-1} = const$$

ya’ni

$$\frac{T_1}{T_2} = \left(\frac{V_2}{V_1}\right)^{\chi-1}$$

Bunda

$$T \cdot P^{\frac{\chi-1}{\chi}} = const$$

ya’ni

$$\frac{T_1}{T_2} = \left(\frac{P_1}{P_2}\right)^{\frac{\chi-1}{\chi}} = \left(\frac{P_2}{P_1}\right)^{\frac{1-\chi}{\chi}}$$

Gazning hajmi adiabatik o‘zgarganda bajarilgan ish quyidagi formuladan topiladi:

$$\begin{aligned} A &= \frac{RT_1}{\chi - 1} \cdot \frac{m}{\mu} \left[1 - \left(\frac{V_2}{V_1} \right)^{\chi-1} \right] = \frac{RT_1}{\chi - 1} \cdot \frac{m}{\mu} \left[1 - \frac{T_2}{T_1} \right] = \\ &= \frac{P_1 V_1 (T_1 - T_2)}{(\chi - 1) T_1} \end{aligned}$$

bu yerda, P_1 va V_1 – gazning T_1 tamperaturadagi bosimi va hajmi.

Politropik jarayonning tenglamasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$PV^n = const$$

yoki

$$P_1 V_1^n = P_2 V_2^n$$

bunda n – politrop ko‘rsatkichi ($1 < n < \chi$).

Issiqlik mashinasining foydali ish koeffitsiyenti

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1}$$

bu yerda, Q_1 – ishchi jismga berilgan issiqlik miqdori va Q_2 – sovitgichga berilgan issiqlik miqdori.

Karnoning ideal sikli uchun foydali ish koeffitsiyenti (F.I.K.)

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1}$$

bu yerda, T_1 – isitgichning haroratsi, T_2 – sovitgichning haroratsi.

B va A ikkita holatdagi entropiya $S_A - S_B$ farqi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_A - S_B = \int_A^B \frac{dQ}{T}$$

Masala yechish namunalari

1. Miqdori $m = 0,01 \text{ kg}$ bo‘lgan kislороднинг гарорати $t_1 = 10^\circ\text{C}$ va bosimi $p = 3 \text{ atm}$. O‘zgarmas bosimda qizdirish natijasida kengaygandan so‘ng kislород $V_2 = 10 \text{ l}$ hajmni egalladi. a) Gazning kengayishgacha hajmi V_1 ni; b) gazning kengaygandan keyingi harorati t_2 ni; c) gazning kengayguncha va kengaygandan keyingi zichliklari ρ_1 va ρ_2 ni aniqlang.

Berilgan:

$$\begin{aligned} m &= 0,01 \text{ kg}; \\ t_1 &= 10^\circ\text{C}; \\ p &= 3 \text{ atm.} = 3,039 \cdot 10^5 \text{ Pa}; \\ V_2 &= 10 \text{ l} = 10^{-2} \text{ m}^3; \end{aligned}$$

$$V_1; \ t_2; \ \rho_1; \ \rho_2 = ?$$

Yechish:

a) Kislороднинг dastlabki holatiga Mendeleyev – Klapeyron tenglamasini qo‘llaymiz:

$$pV_1 = \frac{m}{\mu} RT_1$$

bu yerda, $T_1 = t + 273 = 283 \text{ K}$ – kislород qiziguncha absolyut harorat; $\mu = 32 \text{ kg/mol}$ – kislороднинг massasi; $R = 8,31 \cdot 10^3 \frac{\text{J}}{\text{Kmol}}$ – universal gaz doimiysi. U holda,

$$V_1 = \frac{mRT_1}{\mu p} = 2,4 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3$$

b) Kislород izobarik qizdirilgani uchun Gey–Lyussak qonunini qo‘llash mumkin:

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{T_2}{T_1}$$

bu yerda, T_2 – kislороднинг qizdirilgandan keyingi absolyut harorati. U holda,

$$T_2 = \frac{V_2}{V_1} T_1 = 1180 \text{ K}; \quad t_2 = 907^\circ\text{C}.$$

c) Mendeleyev – Klapeyron tenglamasidan kelib chiqadigan formulaga asosan

$$\rho = \frac{p\mu}{RT}$$

Shuning uchun

$$\rho_1 = \frac{p\mu}{RT_1} = 4,13 \frac{kg}{m^3};$$

va

$$\rho_2 = \frac{p\mu}{RT_2} = 0,99 \frac{kg}{m^3};$$

Javob: $V_1 = 2,4 \cdot 10^{-3} m^3$; $t_2 = 907^\circ C$; $\rho_1 = 4,13 \frac{kg}{m^3}$;
 $\rho_2 = 0,99 \frac{kg}{m^3}$

2. $V = 1 sm^3$ hajmdagi vodorod molekulalarining soni n_0 ni toping. Bosimi $p = 2,66 kPa$, molekulalarining berilgan sharoitdagi o'rta-cha kvadratik tezligi esa $\bar{v} = 2400 m/s$.

Berilgan:

$$V = 1 sm^3 = 10^{-6} m^3; \\ p = 2,66 kPa; \\ \bar{v} = 2400 m/s;$$

$$n_0 = ?$$

Yechish:

Kinetik nazariyaning asosiy tenglama-siga muvofiq,

$$p = \frac{1}{3} n_0 m \bar{v}^2$$

bu yerda, m – vodorod molekulasining massasi bo'lib, vodorodning kilomol massasi $\mu = 2 kg/mol$ va Avagadro soni $N = 6,025 \cdot 10^{26} kmol^{-1}$ bilan $m = \mu/N$ munosabatda bog'langan. Shuning uchun

$$n_0 = \frac{3pN}{\mu \bar{v}^2} = 4,15 \cdot 10^{18} m^{-3}.$$

Javob: $n_0 = 4,15 \cdot 10^{18} m^{-3}$.

3. $t = 10^\circ C$ haroratdagi $m = 20 g$ kislород molekulalarining issiqlik harakati energiyasi W_i nimaga teng? Bu energiyaning qanday qismi molekulalarning ilgarilanma harkatiga va qanday qismi ularning aylanma harakatiga to'g'ri keladi?

Berilgan:

$$t = 10^\circ\text{C};$$

$$m = 20 \text{ g} = 0,02 \text{ kg};$$

$$\underline{W_i; W_{il}; W_{ayl} = ?}$$

Yechish:

Molekulalarning issiqik energiyasi

$$W_i = \frac{i}{2} \cdot \frac{m}{\mu} RT$$

bu yerda, $\mu = 32 \cdot 10^{-3} \text{ kg/mol}$ – kislorodning molyar massasi,
 $i = 5$ uning molekulalarining erkinlik darajalari soni,
 $T = t + 273 = 283 \text{ K}$ – gazning absolyut harorati. Shuning uchun

$$W_i = \frac{i}{2} \cdot \frac{m}{\mu} RT = 3,68 \cdot 10^3 \text{ J}.$$

Ikki atomli molekulada ilgarilanma harakatga uch erkinlik darajasi, aylanma harakatga ikki erkinlik darajasi to‘g‘ri kelgani uchun energiyaning izlanayotgan qismlari 3:2 nisbatda bo‘ladi. Binobarin ilgarilanma harakatga

$$W_{il} = \frac{3}{5} W_i = 2,21 \cdot 10^3 \text{ J}.$$

va aylanma harakatga

$$W_{ayl} = \frac{2}{5} W_i = 1,47 \cdot 10^3 \text{ J}.$$

energiya to‘g‘ri keladi.

Javob: $W_i = 3,68 \cdot 10^3 \text{ J}$; $W_{il} = 2,21 \cdot 10^3 \text{ J}$; $W_{ayl} = 1,47 \cdot 10^3 \text{ J}$.

4. Biror miqdor gazni o‘zgarmas bosimda $\Delta T_1 = 50 \text{ K}$ qizdirish uchun $\Delta Q_1 = 160 \text{ J}$ issiqlik sarf qilishi kerak. Xuddi shu miqdor gazni o‘zgarmas hajmda $\Delta T_2 = 100 \text{ K}$ sovitishda $\Delta Q_2 = 240 \text{ J}$ issiqlik ajralgan. Bu gaz molekulalarining erkinlik darajalari soni i qancha?

Berilgan:

$$\begin{aligned}\Delta T_1 &= 50 \text{ K}; \\ \Delta Q_1 &= 160 \text{ J}; \\ \Delta T_2 &= 100 \text{ K}; \\ \Delta Q_2 &= 240 \text{ J};\end{aligned}$$

$$i = ?$$

Yechish:

O‘zgarmas bosimda gazni qizdirish uchun sarflangan energiya quyidagiga teng:

$$\Delta Q_1 = \frac{m}{\mu} C_p \Delta T_1 \quad (4.1)$$

bu gazning o‘zgarmas hajmda soviganida ajralgan energiya

$$\Delta Q_2 = \frac{m}{\mu} C_V \Delta T_2 \quad (4.2)$$

ga teng, bu yerda m – gaz massasi, μ – kilomol gazning massasi, C_p va C_V – gazning o‘zgarmas bosimdagи va o‘zgarmas hajmdagi mol issiqlik sig‘imlari.

(4.1) tenglikni (4.2) tenglikka hadma-had bo‘lib quyidagi nisbatni hosil qilamiz:

$$\frac{\Delta Q_1}{\Delta Q_2} = \frac{C_p}{C_V} \cdot \frac{\Delta T_1}{\Delta T_2}$$

bunda, $C_p = \frac{i+2}{2} R$ va $C_V = \frac{i}{2} R$ ekanligini hisobga olsak,

$$\frac{\Delta Q_1}{\Delta Q_2} = \frac{i+2}{i} \cdot \frac{\Delta T_1}{\Delta T_2}$$

ni hosil qilamiz. U holda,

$$i = \frac{2 \cdot \Delta Q_2 \cdot \Delta T_1}{\Delta Q_1 \cdot \Delta T_2 - \Delta Q_2 \cdot \Delta T_1} = 6$$

Javob: $i = 6$.

5. Karno sikli bo‘yicha ishlayotgan ideal issiqlik mashinasi bir sikl davomida $A = 7,35 \cdot 10^4 \text{ J}$ ish bajaradi. Isitgichning harorati 373 K, sovitgichning harorati esa 273 K. Mashinaning foydali ish koeffitsiyenti η , mashinaning bir sikl davomida isitgichdan olgan

issiqlik miqdori Q_1 va bir sikl davomida sovitgichga beradigan issiqlik miqdori Q_2 ni toping.

Berilgan:

$$A = 7,35 \cdot 10^4 J;$$

$$T_1 = 373 K;$$

$$T_2 = 273 K;$$

$$\eta; Q_1; Q_2 = ?$$

Yechish:

Ideal issiqlik dvigatelining foydali ish koeffitsienti quyidagi ifodaga teng:

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \cdot 100 \% = 26,8 \%.$$

Bir sikl davomida ideal issiqlik mashinasining bajargan ishi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$A = Q_1 - Q_2$$

Biroq foydali ish koeffitsiyenti hisoblashning quyidagi ko‘rinishiga asosan,

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = \frac{A}{Q_1}$$

Shuning uchun

$$Q_1 = \frac{A}{\eta} = -27,4 \cdot 10^4 J.$$

$$U holda, Q_2 = Q_1 - A = 20,05 \cdot 10^4 J.$$

Javob: $\eta = 26,8 \%$; $Q_1 = -27,4 \cdot 10^4 J$; $Q_2 = 20,05 \cdot 10^4 J$.

Mavzuga oid masalalar

- Og‘zi mahkam berkitilgan shishadagi havoning 7°C haroratda bosimi 1 atm . Shisha isitilganda havo bosimi $1,3 \text{ atm}$ ga yetganda tiqin otilgan. Shisha qanday haroratgacha isitilganligi topilsin.
- Gaz solingan 10 m^3 hajmli ballonda 17°C harorat va $720 \text{ mm. sim. ust.}$ bosimda qancha miqdorda kilomol gaz bo‘ladi?
- 10 g kislород 10°C harorat va 3 atm . bosimda turibdi. U o‘zgarmas bosimda qizdirilgandan so‘ng kengayib, 10 l hajmni

egallaydi. Gazning 1) kengaygandan oldingi, 2) kengaygandan keyingi harorati, 3) kengayishdan oldingi zichligi va 4) kengaygandan keyingi zichligi topilsin.

4. 500 m/s tezlik bilan uchib kelayotgan argon molekulasi idish devoriga elastik uriladi. Molekula tezligining yo‘nalishi bilan idish devoriga o‘tkazilgan normal orasidagi burchak 60° ni tashkil qiladi. Urilish vaqtida idish devorining olgan kuch impulsi topilsin.
5. Havoning bir kilomolining massasi $\mu = 29 \text{ g/kmol}$ ga teng bo‘lgan bir jinsli gaz deb hisoblab, 17°C haroratda havo molekulalarining o‘rtacha kvadratik tezligi topilsin.
6. 7°C haroratda 1 kg dagi azot molekulalarining aylanma harakatining kinetik energiyasi nimaga teng?
7. Agar biror ikki atomli gazning normal sharoitda zichligi $1,43 \text{ kg/m}^3$ bo‘lsa, bu gazning C_V va C_P solishtirma issiqlik sig‘imlari nimaga teng?
8. 40 g kislородни 16°C dan 40°C gacha isitish uchun 150 kal ($1 \text{ kal} = 4,19 \text{ J}$) issiqlik sarf bo‘lgan. Gaz qanday sharoitda isitilgan? (O‘zgarmas hajmdami yoki o‘zgarmas bosimda?)
9. Normal sharoitda 2 l hajmli yopiq idishda m gramm azot va m gramm argon bor. Bu gaz aralashmasi 100°C ga isitish uchun unga qancha issiqlik miqdori berish kaerak?
10. Kaliy atomlarining ionizatsiya ishi $10^5 \text{ kkal/kg} \cdot \text{atom}$ ($1 \text{ kal} = 4,19 \text{ J}$) ga teng. Ilgarilanma harakatdagi molekulalari 10% ining energiyasi kaliyning bitta atomini ionizatsiyalash uchun zarur bo‘lgan energiyadan qanday haroratda katta bo‘lishi topilsin.
11. Agar 100°C haroratda korbonat angidrid molekulalarining o‘rtacha erkin yugurish yo‘li $8,7 \cdot 10^{-2} \text{ sm}$ ga teng bo‘lsa, molekulalarning 1 s dagi o‘rtacha to‘qnashishlari soni topilsin.

12. Agar biror gaz molekulalarining o‘rtacha erkin yugurish yo‘li $5 \cdot 10^{-4} \text{ sm}$ va o‘rtacha kvadratik tezligi 500 m/s bo‘lsa, shunday sharoitda gaz molekulasining 1 s dagi o‘rtacha to‘qnashishlar soni topilsin.

13. $0,3 \text{ mm}$ diametrli yomg‘ir tomchisi qanday eng katta tezlikka erisha oladi? Havo molekulasining diametrini $3 \cdot 10^{-10} \text{ m}$ ga, havoning haroratsini – 0°C ga teng deb olinsin. Yomg‘ir tomchisi uchun Stoks qonuni o‘rinli deb hisoblansin.

14. Teskari Karno sikli bo‘yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasи, har bir siklda $3,7 \cdot 10^4 \text{ J}$ ga teng ish bajaradi. Bunda mashina -10°C haroratlari jismdan issiqlik olib, $+17^\circ\text{C}$ haroratlari jismga issiqlik beradi. 1) Siklning F.I.K., 2) bir siklda sovuq jismdan olingan issiqlik miqdori, 3) bir siklda issiqlik jismga berilgan issiqlik miqdori topilsin.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

15. Ballonda 10^7 N/m^2 bosimli 10 kg gaz bo‘lgan. Ballonda bosim $2,5 \cdot 10^6 \text{ N/m}^2$ ga teng bo‘lishi uchun ballonda qancha miqdor azotni olish kerak? Azotning haroratsi o‘zgarmas deb hisoblansin.

16. 4 l hajmli yopiq 20°C haroratlari 5 g azot 40°C haroratgacha isitilgan. Gazning isitilishdan oldingi va keyingi bosimi topilsin.

17. $V_1 = 3 \text{ l}$ sig‘imli *A* idishda $P'_0 = 2 \text{ atm}$ bosimda gaz bor. $V_2 = 4 \text{ l}$ sig‘imli *B* idishda $P''_0 = 1 \text{ atm}$ bosimda xuddi o‘shancha gaz bor. Ikkala idishda ham haroratlar bir xil. Ikkala idish naycha bilan tutashtirilsa, gaz bosimi qanday bo‘ladi?

18. 600 m/s tezlik bilan uchib kelayotgan argon molekulasi idish devoriga normal ravishda urilib, undan tezligini yo‘qotmasdan elastik qaytadi. Urilish vaqtida idish devorining olgan kuch impulsini topilsin.

19. Biror gazning zichligi $6 \cdot 10^{-2} \text{ kg/m}^3$ ga, molekulalarning o‘rtacha kvadratik tezligi 500 m/s ga teng. Gazning idish devoriga ta’sir qilgan bosimi topilsin.

20. 1) $V = \text{const}$ va 2) $P = \text{const}$ bo‘lganda kislородning solishtirma issiqliq sig‘imi topilsin.

21. $3 \cdot 10^{-3} \text{ mol}$ argon va $2 \cdot 10^{-3} \text{ mol}$ azotdan iborat bo‘lgan gaz aralashmasining o‘zgarmas bosimda solishtirma issiqlik sig‘imi topilsin.

22. 3 l hajmli yopiq idishda 3 atm bosim 27°C haroratlari azot bor. Isitilgandan keyingi idishdagi bosim 25 atm . gacha ko‘tarilgan. 1) Isitilgandan keyingi azotning haroratsi, 2) azotga berilgan issiqlik miqdori topilsin.

23. 0°C da kislород molekulalarining qancha qismi 100 m/s dan 110 m/s gacha oraliqda tezliklarga ega bo‘ladi?


25. Qanday balandlikda gaz dengiz sathidagi zichligining 50 % zichligidek zichlikka ega bo‘ladi? Haroratni o‘zgarmas va 0°C ga teng deb hisoblansin. Masalani: 1) havo va 2) vodorod uchun yeching.

26. 17°C harorat va 10^4 N/m^2 bosimda azot molekulalarining o‘rtacha erkin yugurish yo‘li topilsin.

27. Agar geliyning 0°C harorat va 760 mm. sim. ust bosimida ichki ishqalanish koeffitsiyenti (dinamik yopishqoqligi) $1,3 \cdot 10^{-4} \frac{\text{g}\cdot\text{s}}{\text{sm}}$ ga teng bo‘lsa, shunday sharoitda geliy molekulalarining o‘rtacha erkin yugurish yo‘li topilsin.

28. Korbyuratorli uchki yonuv dvigatelning politrop ko‘rsatkichi $1,33$ ga va siqish darajasi 1) $V_1/V_2 = 4$; 2) $V_1/V_2 = 6$; 3) $V_1/V_2 = 8$ ga teng bo‘lsa, uning F.I.K. topilsin.

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. Molekulalar tezligiga tegishli ushbu $\bar{\vartheta}_x^2 = \frac{1}{3} \bar{\vartheta}^2$ ifoda quyidagi mulohazalarning qaysi biriga asosan to‘g‘ri deb qabul qilinishi natijasida yuzaga kelgan?
- A) molekulalar o‘zaro (elastik) to‘qnashadi
B) molekulalar soni kam
C) molekulalar xaotik, tartibsiz harakat qiladi
D) molekulalar shar shaklida
2. 20 m chuqurlikdagi ko‘lning tubidan havo pufakchasi suv sirtiga ko‘tarilganda, uning hajmi necha marta ortadi?
- A) 20 B) 10 C) 7 D) 3
3. Gaz temperaturasini izobarik ravishda $4\text{ }^{\circ}\text{C}$ ga oshirilganda, gaz hajmi dastlabki qiymatining $1/450$ qismi qadar oshdi. Gazning dastlabki haroratini ($^{\circ}\text{C}$) toping.
- A) 1527 B) 1800 C) 1600 D) 1537
4. Gaz 1-holatdan 2-holatga o‘tganda, ideal gazning bosimi qanday o‘zgaradi?
- A) o‘zgarmaydi
B) ortadi
C) kamayadi
D) Bunday jarayon yo‘q
- 
5. Agar yopiq idishdagi gazning haroratini $1\text{ }^{\circ}\text{C}$ ga qizdirganda, uning bosimi dastlabki bosimidan $0,4\text{ \%}$ ortiq bo‘lsa, gazning dastlabki harorati qancha bo‘lgan bo‘ladi?
- A) $-25\text{ }^{\circ}\text{C}$ B) $-23\text{ }^{\circ}\text{C}$ C) $0\text{ }^{\circ}\text{C}$ D) $-24\text{ }^{\circ}\text{C}$
6. Moddaning solishtirma issiqlik sig‘imi quyidagi parametrlarning qaysi biriga bog‘liq?
- A) issiqlik miqdoriga B) modda massasiga
C) boshlang‘ich temperaturaga D) xech biriga bog‘liq emas

7. Harakat tezligi 36 km/soat bo‘lgan 4,8 t massali avtomobil tormoz berib to‘xtaganida, qancha issiqlik miqdori ajraladi (kJ)?


- A) 240 B) 250 C) 270 D) 200

8. Massalari m va $2m$ bo‘lgan ikkita sharcha 2ϑ va 2ϑ tezliklar bilan bir-biriga tomon harakatlanib, noelastik to‘qnashdi. Sharchalarning solishtirma issiqlik sig‘imi C ga teng bo‘lsa, ularning harorati qanchaga o‘zgargan?

- A) $\frac{\vartheta^2}{9C}$ B) $\frac{\vartheta^2}{8C}$ C) $\frac{9\vartheta^2}{8C}$ D) $\frac{25\vartheta^2}{9C}$

9. Rasmdagi bo‘yalgan yuzanining fizik ma’nosi nimadan iborat bo‘ladi?

- A) bajarilgan ishga teng
B) temperaturaning o‘zgarishiga teng
C) bosimning o‘zgarishiga teng
D) fizik ma’nosi yo‘q



10. Ideal gaz isitilganda, uning p bosimi o‘zgarmay, dastlabki hajmi V 30 % ga oshsa, u qancha ish bajaradi?

- A) $30pV$ B) $3pV$ C) $0,7pV$ D) $0,3pV$

11. Termodinamikaning birinchi qonuni nimani tavsiflaydi?

- A) mexanik energiyaning saqlanishini
B) elastik deformatsiya energiyasini
C) issiqlik muvozanatini
D) energiyaning saqlanish qonunini

12. Termodinamikaning birinchi qonuni issiqlik jarayonlarida ... ning qo‘llanishidir.

- A) Boyl-Mariott qonuni
B) Nyutonning ikkinchi qonuni
C) impulsning saqlanish qonuni
D) energiyaning saqlanish qonuni

13. Qaysi qonun tabiatdagi jarayonlarning yo‘nalishini ko‘rsatadi?

- A) termodinamikaning II qonuni

- B) termodinamikaning I qonuni
 C) energiyaning saqlanish qonuni
 D) zaryad miqorining saqlanish qonuni
14. Doimiy hajmli ballonda T_0 temperatura va bosim ostida turgan bir atomli ideal gazga Q issiqlik mikdori berilganda, gazning temperaturasi qanday bo‘ladi?
- A) $T_0 \left(2 + \frac{p_0 V_0}{3Q} \right)$ B) $T_0 \frac{p_0 V_0}{2Q}$ C) $T_0 \left(1 + \frac{Q}{p_0 V_0} \right)$ D) $T_0 \left(1 + \frac{2Q}{3p_0 V_0} \right)$
15. Quyida berilgan tenglamalar orasidan izobarik jarayon tenglamasini, shu jarayon uchun termodinamikaning 1-qonuni va bajarilgan ish ifodalarini toping.
- 1) $\frac{V}{T} = \text{const}$ 2) $\frac{P}{T} = \text{const}$ 3) $PV = \text{const}$ 4) $PV = vRT$
 5) $Q = A + \Delta U$ 6) $Q = \Delta U$ 7) $Q = A$ 8) $Q = 0$ 9) $A = P\Delta V$
 10) $A = 0$ 11) $A = Q$ 12) $A = -\Delta U$
 A) 1; 5; 9 B) 2; 6; 11 C) 3; 7; 8 D) 4; 6; 10; 12
16. Isitkichining temperaturasi T_1 sovutkichining temperaturasi T_2 bo‘lgan issiqlik mashinasini berilgan. T_1 ni ΔT ga orttirib, T_2 ni o‘zgartirmagan va T_2 ni ΔT ga kamaytirib, T_1 ni o‘zgartirmagan hollardagi F.I.K larning nisbatini toping.
- A) $\frac{T_1}{T_1 + \Delta T}$ B) $\frac{T_1 + \Delta T}{T_1 + \Delta T}$ C) $\frac{T_1 - \Delta T}{T_1}$ D) $\frac{T_1 - T_2}{T_1}$
17. Ideal mashina isitkichining harorati 427°C bo‘lib, sovutkich harorati 127°C ga teng. Issiqlik mashinasi bir siklda 600 J issiqlik olib sovutkichga 400 J issiqlik, beradi. Real mashinaning F.I.K ideal mashinaning F.I.K ning qancha qismini tashkil etishini toping.
- A) $1/2$ B) $6/7$ C) $7/9$ D) $7/8$
18. Qanday holatda jismning zichligi harorat ortishi bilan ortadi?
- A) to‘yinmagan bug‘ holatida
 B) suyuq holatda
 C) qattiq holatda
 D) to‘yingan bug‘ holatidagi

19. Quyidagi jumlalarning qaysi biri noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.
- A) To‘yingan bug‘ Mendeleev-Klapeyron qonuniga bo‘ysinadi.
 - B) To‘yingan bug‘ning elastikligi o‘zgarmas temperaturada bug‘ egallab turgan hajmga bog‘liq emas.
 - C) Harorat qancha yuqori bo‘lsa to‘yingan bug‘ning elastikligi shuncha katta bo‘ladi.
 - D) O‘zining suyuqligi bilan dinamik muvozanatda bo‘lgan bug‘ to‘yingan bug‘ deyiladi.
20. Agar havoning nisbiy namligi 50 %, temperaturasi 16°C bo‘lsa, absolyut namlik nimaga teng bo‘ladi (kg/m^3)? 16°C temperaturada to‘yingan bug‘ zichligi $\rho_t = 13,6 \cdot 10^{-3} \text{ kg}/\text{m}^3$.
- A) $4,8 \cdot 10^{-3}$
 - B) $6,8 \cdot 10^{-4}$
 - C) $8,8 \cdot 10^{-4}$
 - D) $6,8 \cdot 10^{-3}$

III. ELEKTR

3.1. Elektrostatika

Kulon qonuni bo'yicha orasidagi masofaga nisbatan o'lchamlari kichik bo'lgan ikkita zaryadlangan jismning o'zaro ta'sir kuchi

$$F = \frac{q_1 \cdot q_2}{4\pi\varepsilon_0\varepsilon r^2}$$

formula bilan aniqlanadi, bunda q_1 va q_2 – jismlarning elektr zaryadlari, r – ular orasidagi masofa, ε – muhitning nisbiy dielektrik kirituvchanligi va ε_0 – elektrik doimiy bo'lib, $8,85 \cdot 10^{-12} F/m$ ga teng.

Elektr maydon kuhlanganligi

$$E = \frac{F}{q}$$

formula bilan aniqlanadi, bunda F – zaryad q ga ta'sir etuvchi kuch.

Nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{q}{4\pi\varepsilon_0\varepsilon r^2}$$

Bir qancha zaryadlar maydonning (masalan dipol maydonining) kuchlanganligi geometrik qo'shish qoidasi bo'yicha topiladi.

Gauss teoremasi bo'yicha ixtiyoriy yopiq sirt orqali o'tgan kuchlanganlik oqimi

$$N_E = \frac{1}{\varepsilon_0\varepsilon} \sum_{i=1}^n q_i$$

ga teng, bundan $\sum_{i=1}^n q_i$ – shu sirt ichidagi zaryadlarning algebraik yig‘indisi. Mos ravishda ixtiyoriy yopiq sirt orqali o‘tgan elektr induksiysi oqimi

$$N_D = \sum_{i=1}^n q_i$$

ga teng.

Gauss teoremasi yordamida zaryadlangan har xil jismlar hosil qilgan elektr maydoning kuchlanganligini topish mumkin.

Zaryadlangan cheksiz uzun ip maydonining kuchlanganligi

$$E = \frac{\tau}{2\pi\varepsilon_0\varepsilon a}$$

ga teng, bunda τ – ipdagи zaryadning chiziqli zichligi va a – nuqtaning ipdan uzoqligi. Agar ip chekli uzunlikka ega bo‘lsa, u holda ip o‘rtasidan unga o‘tkazilgan perpendikulyar chiziqda a uzoqlikda yotgan nuqtadagi maydonning kuchlanganligi

$$E = \frac{\tau \sin \theta}{2\pi\varepsilon_0\varepsilon a}$$

ga teng bo‘lib, bunda θ – ipga o‘tkazilgan normal yo‘nalishi bilan tekshirilayotgan nuqtadan ip uchiga tushirilgan radius-vektor orasidagi burchak.

Zaryadlangan chekksiz tekislik maydonining kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{2\varepsilon_0\varepsilon}$$

ga teng, bunda σ – tekislikdagi zaryadning sirt zichligi.

Agar tekislik R radiusli disk shaklida bo‘lsa, u holda disk markazidan unga o‘tgazilgan perpendikulyar chiziqda a uzoqlikda yotgan nuqtadagi maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{2\epsilon_0 \epsilon} \left(1 - \frac{a}{\sqrt{R^2 + a^2}} \right)$$

ga teng.

Qarama-qarshi ishora bilan zaryadlangan ikkita parallel cheksiz tekislik maydonining (yassi kondensator maydonining) kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{\epsilon_0 \epsilon}$$

ga teng.

Zaryadlangan shar maydonining kuchlanganligi

$$E = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 \epsilon r^2}$$

ga teng, bunda q – radiusi R bo‘lgan shar sirtidagi zaryad, r – shar markazidan zaryadgacha bo‘lgan oraliq bo‘lib, bunda $r > R$.

Maydonning D elektrostatik induksiyasi

$$D = \epsilon_0 \epsilon E = \sigma$$

tenglikdan topiladi.

Elektr maydonining ikkita nuqtasi orasidagi potensiallar ayirmasi musbat zaryad birligini bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko‘chirishda bajarilgan ishdan topiladi.

$$U_1 - U_2 = \frac{A}{q}$$

Nuqtaviy zaryad maydonining potensiali

$$U = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 \epsilon r}$$

ga teng, bunda r – zaryaddan to potensiali aniqlanadigan nuqtagacha bo‘lgan oraliq masofada.

Elektr maydoni kuchlanganligi va potensial o‘zaro bog‘lanishi

$$E = -\frac{dU}{dr}$$

formula bilan ifodalanadi.

Bir jinsli maydon – yassi kondensator maydoni bo‘lganda

$$E = \frac{U}{d}$$

bunda U – yassi kondensator plastinkalari orasidagi potensiallar ayirmasi, d – plastinkalar oralig‘i.

Yakkalangan o‘tkazgichning potensiali uning zaryadi bilan quyidagicha bog‘langan:

$$q = CU$$

bu yerda, C – o‘tkazgichning sig‘imi.

Yassi kondensatorning sig‘imi

$$C = \frac{\epsilon_0 \epsilon S}{d}$$

bu yerda, S – kondensator har bir plastinkasining yuzi.

Sferik kondensatorning sig‘imi

$$C = \frac{4\pi\epsilon_0\epsilon rR}{r - R}$$

ga teng, bunda r – ichki sferaning radiusi va R – tashqi sferaning radiusi. Xususiy holda, $R = \infty$ bo‘lsa

$$C = 4\pi\epsilon_0\epsilon r$$

yakkalangan shar sig‘imi bo‘ladi.

Silindrik kondensatorning sig‘imi

$$C = \frac{2\pi\epsilon_0\epsilon L}{\ln(R/r)}$$

ga teng, bunda L – koaksiyal (o‘qi umumiy bo‘lgan) silindrarning balandligi, r va R – mos ravishda ichki va tashqi silindrarning radiuslari.

Kondensatorlar tizimining sig‘imi quyidagilarga teng:

- a) kondensatorlar parallel ulanganda

$$C = C_1 + C_2 + C_3 + \dots + C_n$$

- b) kondensatorlar ketma-ket ulanganda

$$\frac{1}{C} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_3} + \dots + \frac{1}{C_n}$$

Zaryadlangan yakka o‘tkazgichning enegiyasi quyidagi uch formuladan bittasi orqali topilishi mumkin:

$$W = \frac{1}{2}qU, \quad W = \frac{1}{2}CU^2, \quad W = \frac{1}{2}\frac{q^2}{C}$$

yassi kondensator bo‘lgan xususiy holda,

$$W = \frac{\epsilon_0\epsilon SU^2}{2d} = \frac{\epsilon_0\epsilon E^2 Sd}{2} = \frac{\sigma^2 Sd}{2\epsilon_0\epsilon}$$

bu yerda, S – har bir plastinkaning yuzi, σ – plastinkalar zaryadining sirt zichligi, U – plastinkalar orasidagi potensiallar ayirmasi.

$$W_0 = \frac{\epsilon_0\epsilon E^2}{2} = \frac{ED}{2}$$

kattalik elektr maydon energiyasining hajmiy zichligi deyiladi.

Yassi kondensator plastinkalarining tortishish kuchi

$$F = \frac{\varepsilon_0 \varepsilon E^2 S}{2} = \frac{\varepsilon_0 \varepsilon S U^2}{2d^2} = \frac{\sigma^2 S}{2\varepsilon_0 \varepsilon}$$

Masala yechish namunalari

1. Zichligi 800 kg/m^3 bo‘lgan kerosinga bir xil uzunlikdagi ipga osilgan ikki zaryadlangan sharcha tushirildi. Kerosinda iplar orasidagi burchak havodagi kabi o‘zgarmasdan saqlanishi uchun, sharchalarning zichligi qanday bo‘lishi kerak? Kerosinning dielektrik singdiruvchanligi 2 ga teng.

Berilgan:

$$\rho_k = 800 \text{ kg/m}^3; \quad \varepsilon = 2;$$

$$\rho = ?$$

Yechish:

Masala shartiga ko‘ra sharchalar kerosinda 1.1 – rasmdagi kabi joylashishadi. Bunda o‘zaro ta’sir kuchi (Kulon kuchi)

$$F_k = \frac{q^2}{4\pi\varepsilon\varepsilon_0 r^2} \quad (1.1)$$

Kerosindagi sharchalarga ta’sir qiluvchi Arximed kuchi quyidagiga teng bo‘ladi:


$$F_A = \rho_k g V \quad (1.2)$$

Kerosinda sharchalarni tutib turuvchi kuchi

$$F' = mg - F_A \quad (1.3)$$

U holda,

$$\operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} = \frac{F_k}{F'} = \frac{F_k}{mg - F_A} \quad (1.4)$$



1.1 – rasm

Havoda sharchalar uchun quyidagi ifodalar o‘rinli:

$$F = \frac{q^2}{4\pi\varepsilon_0 r^2}; \quad (1.5)$$

$$tg \frac{\alpha}{2} = \frac{F}{P} = \frac{F}{mg} \quad (1.6)$$

(1.4) va (1.6) ifodalarni tenglashtirsak,

$$\frac{F_k}{mg - F_A} = \frac{F}{mg}$$

Bu tenglikka (1.1), (1.2) va (1.5) ifodalarni joylashtirib, m ni topamiz:

$$m = \frac{\rho_k \varepsilon}{\varepsilon - 1} \cdot V$$

ni hosil qilamiz. $m/V = \rho$ ekanligini hisobga olsak, u holda

$$\rho = \frac{\rho_k \varepsilon}{\varepsilon - 1} = 1600 \frac{kg}{m^3}.$$

Javob: $\rho = 1600 \frac{kg}{m^3}$.

2. Ikkita parallel uzun bir xil ishorali zaryad bilan zaryadlangan o'tkazgich tola bir-biridan $r = 0,1 m$ masofada joylashgan. Zaryadning tolalaridagi chiziqli zichligi bir xil va $\rho = 10^{-5} Kl/m$ ga teng. Har bir toladan $a = r = 0,1 m$ masofadagi nuqtaning E naijaviy elektr maydoni kuchlanganligi kattaligini va yo'nalishini aniqlang.

Berilgan:

$$\begin{aligned} r &= 0,1 m; \\ \rho &= 10^{-5} Kl/m; \\ a &= r = 0,1 m; \end{aligned}$$

$$E = ?$$

Yechish:

Tolalarning berilgan C nuqta orqali ko'ndalang kesimining (ABC) tasvirlaymiz, bu tolalar elektr maydonlarining kuchlanganliklarini E_1 va E_2 bilan hamda natijaviy elektr maydonining kuchlanganligini E bilan tasvirlaymiz (2.1 – rasm).

ΔABC teng tomonli va tolalarning zaryadlari bir xil, shuning uchun $E_1 = E_2 \cdot E$ esa (CE_1EE_2) rombning diagonali, romb diagonalining $\angle E_1CE = 30^\circ$. Romb diagonallari o‘zaro perpendikulyar va bir-birini teng ikkiga bo‘linishini hisobga olgan holda quyidagiini yozish mumkin:

$$\frac{E}{2} = E_1 \cos 30^\circ$$

Biroq, $E_1 = \frac{\rho}{2\pi\epsilon_0 r}$ formulaga muvofiq, bu yerda $\epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} F/m$,

$\epsilon = 1$ (vakuum uchun). U holda,

$$E = 2E_1 \cos 30^\circ = \frac{\rho \cos 30^\circ}{\pi \epsilon_0 r} = 3,13 \cdot 10^6 V/m$$

Javob: $E = 3,13 \cdot 10^6 V/m$.

3. A va B nuqtalar orasidagi kuchlanish $U = 9 V$ (3.1 – rasm). Nuqtalar orasidagi kondensatorlar mos ravishda $C_1 = 3 \mu F$ va $C_2 = 6 \mu F$. Har bir kondensatordagi zaryad miqdori va kuchlanishlarining qiymatlarini aniqlang.

Berilgan:

$$U = 9 V;$$

$$C_1 = 3 \mu F = 3 \cdot 10^{-6} F;$$

$$C_2 = 6 \mu F = 6 \cdot 10^{-6} F;$$

$$q_1; q_2; U_1; U_2 = ?$$

Yechish:



Ketma-ket ulangan kondensatorlar uchun

$$U = U_1 + U_2$$

$$q_1 = q_2 = q = const$$

ifodalar o‘rinli.

Zaryadlar mos ravishda $q_1 = C_1 U_1$ va $q_2 = C_2 U_2$ ga teng. U holda, $C_1 U_1 = C_2 U_2$ bo‘ladi.



$$U_2 = \frac{C_1}{C_2} U_1$$

Demak, $U = U_1 + \frac{C_1}{C_2} U_1$. Bundan, $U_1 = \frac{UC_2}{C_1+C_2} = 6 V$ va $U_2 = U - U_1 = 3 V$.

Zaryadlar esa, $q_1 = q_2 = C_1 U_1 = 18 \cdot 10^{-6} Kl$ ga teng bo‘ladi.

Javob: $U_1 = 6 V$; $U_2 = 3 V$; $q_1 = q_2 = 18 \cdot 10^{-6} Kl$.

4. Massasi $m = 1 g$ va zaryadi $q = 10^{-8} Kl$ bo‘lgan sharcha potensiali $\varphi_A = 600 V$ li A nuqtadan $\varphi_B = 0$ potensialli B nuqtaga harakatlanmoqda. Agar sharchaning B nuqtadagi tezligi $\vartheta_B = 20 m/s$ ga teng bo‘lgan bo‘lsa, uning A nuqtadagi tezligi qanday bo‘lgan?

Berilgan:

$$\begin{aligned}m &= 1 gr = 10^{-3} kg; \\q &= 10^{-8} Kl; \\ \varphi_A &= 600 V; \\ \varphi_B &= 0 V; \\ \vartheta_B &= 20 m/s;\end{aligned}$$

$$\vartheta_A = ?$$

Yechish:

Musbat zaryadlangan sharcha elektr maydonida katta potensialdan kichik potensialga tomon (ya’ni maydon bo‘ylab) harakatlanib, maydon kuchlari ta’sirida tezlashadi va uning kinetik energiyasi ortadi. Energiyaning saqlanish va bir turdan ikkinchi turga aylanish qonunidan sharcha kinetik enrgiyasining ortishi ΔW

maydon kuchlari bajargan ishga teng bo‘lishi kerak:

$$\Delta W = A$$

Biroq, $\Delta W = W_B - W_A = \frac{m\vartheta_B^2}{2} - \frac{m\vartheta_A^2}{2}$, bu yerda W_B va W_A sharchaning mos ravishda B va A nuqtalardagi kinetik energiyasi. Shu bilan birga $A = q(\varphi_A - \varphi_B)$. Shuning uchun

$$\frac{m\vartheta_B^2}{2} - \frac{m\vartheta_A^2}{2} = q(\varphi_A - \varphi_B)$$

bundan

$$\vartheta_A = \sqrt{\vartheta_B^2 - \frac{2q}{m}(\varphi_A - \varphi_B)} = 0,167 \text{ m/s}$$

Javob: $\vartheta_A = 0,167 \text{ m/s}$

5. Ikki yassi plastinkalar orasiga dielektrik singdiruvchanligi $\varepsilon = 7$ bo'lgan shisha joylashtirilgan. Kondensator uchlariga kuchlanish berilganda plastinkalarni shishaga ko'rsatgan bosimi 1 kPa ga teng bo'ldi. Quydagilarni toping: a) plastinkalar sirtidagi zaryadlarning sirt zichligi; b) elektrostatik maydon kuchlanganligini; c) maydonning energiya zichligi W_0 topilsin.

Berilgan:

$$\begin{aligned}\varepsilon &= 7; \\ P &= 1 \text{ kPa};\end{aligned}$$

$$\underline{\sigma; E; W_0 = ?}$$

Yechish:

Yassi kondensator plastinkalarining tortishish kuchi

$$F = \frac{\sigma^2 S}{2\varepsilon_0 \varepsilon} \quad (5.1)$$

Plastinkalarning bosimi

$$p = \frac{F}{S} = \frac{\sigma^2}{2\varepsilon_0 \varepsilon} \quad (5.2)$$

$$(5.2) \text{ ifodadan } \sigma = \sqrt{2\varepsilon_0 \varepsilon p} = 11,1 \cdot 10^{-6} \text{ Kl/m}^2$$

Elektrostatik maydon kuchlanganligini

$$E = \frac{\sigma}{\varepsilon_0 \varepsilon} = 179 \cdot \frac{10^6 V}{m}$$


Elektrostatik maydon energiyasining hajmiy zichligi

$$W_0 = \frac{\varepsilon_0 \varepsilon E^2}{2} = 0,992 \frac{J}{m^3}$$

$$\text{Javob: } \sigma = 11,1 \cdot 10^{-6} \frac{Kl}{m^2}; \quad E = 179 \cdot \frac{10^6 V}{m}; \quad W_0 = 0,992 \frac{J}{m^3}.$$

Mavzuga oid masalalar

- Havoda bir-biridan 20 sm uzoqlikda turgan ikkita nuqtaviy zaryad biror kuch bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Yog‘da bu zaryadlar shunday kuch bilan o‘zaro ta’sir qilishi uchun, ularni qanday uzoqlikda joylashtirish kerak?
- Ikkita $q_1 = 8 \cdot 10^{-9} \text{ C}$ va $q_2 = -6 \cdot 10^{-9} \text{ C}$ nuqtaviy zaryad o‘rtasida yotgan nuqtadagi elektr maydon kuchlanganligi topilsin. Zaryadlar oralig‘i $r = 10\text{ sm}$; $\varepsilon = 1$.
- $q_1 = \frac{22,5}{3} \cdot 10^{-9} \text{ C}$ va $q_2 = -\frac{44,0}{3} \cdot 10^{-9} \text{ C}$ bo‘lgan ikkita nuqtaviy zaryadning oralig‘i 5 sm . Musbat zaryaddan 3 sm va manfiy zaryaddan 4 sm uzoqlikda joylashgan nuqtadagi maydonining kuchlanganligi topilsin.
- Rasmda AA – zaryadlangan cheksiz tekislik bo‘lib, zaryadning sirt zichligi $4 \cdot 10^{-9} \text{ C/sm}^2$ va B – massasi 1 g va zaryadi 10^{-9} C bo‘lgan (bu zaryad bilan tekislik zaryadining ishorasi bir xil) zaryadlangan sharcha. Sharcha osilgan ip AA tekislik bilan qanday burchak tashkil qiladi?
- Diametri 1 sm bo‘lgan mis shar yog‘ ichiga joylashtirilgan. Yog‘ning zichligi $\rho = 800\text{ kg/m}^3$. Agar bir jinsli elektr moydonida shar yog‘ ichida muallaq bo‘lsa, sharning zaryadi qancha bo‘ladi? Elektr maydoni vertikal yuqoriga yo‘nalgan bo‘lib, uning kuchlanganligi $E = 36000\text{ V/sm}$.
- Zaryadlangan diskdan (uning markazida normal bo‘yicha) $a = 5\text{ sm}$ uzoqlikda joylashgan A nuqtadagi elektr maydon kuchlanganligini topish talab qilinadi. 1) A nuqtadagi elektr maydoni cheksiz katta tekislik elektr maydoniga nisbatan 2% dan ortmasligi uchun diskning radiusi qanday chekli qiymatga ega bo‘lishi mumkin? 2) Diskning R radiusi a masofadan 10 marta katta bo‘lsa, A nuqtadagi maydon kuchlanganligi qanday bo‘ladi?



3) Bu nuqtadagi topilgan kuchlanganlik cheksiz katta tekislik maydon kuchlanganligidan necha marta kichik bo‘ladi?

7. Zaryadlari $q_1 = \frac{20}{3} \cdot 10^{-9} C$ va $q_2 = \frac{40}{3} \cdot 10^{-9} C$ bo‘lgan ikkita sharcha bir-biridan $r_1 = 40 sm$ uzoqlikda turibdi. Ular bir-biriga $r_2 = 25 sm$ gacha yaqinlashtirish uchun qancha ish bajarish kerak?

8. Zaryadlangan cheksiz uzun ipdan $r_1 = 4 sm$ oraliqda $q_1 = \frac{2}{3} \cdot 10^{-9} C$ nuqtaviy zaryad turibdi. Maydon ta’sirida zaryad $r_2 = 2 sm$ oraliqqa siljiydi, bunda $A = 50 erg$ ish bajariladi. Ipdagi zaryadning chiziqli zichligi topilsin.

9. Ikkita vertikal plastinkalar orasida, ulardan bir xil uzoqlikda tushayotgan chang zarrachasining tezligi havoning qarshiligi tufayli o‘zgarmas bo‘lib, $\vartheta = 2 sm/s$ ga teng. Plastinkalarga $U = 3000 V$ potensiallar ayirmasi berilgandan qancha vaqt o‘tgach chang plastinkalardan biriga tushadi? Chang zarrachasi plastinkaga tekkuncha vertikal bo‘ylab qanday l masofani o‘tgan? Plantinkalar oralig‘i $d = 2 sm$, changning massasi $m = 2 \cdot 10^{-9} g$ va uning zaryadi $q = 6,5 \cdot 10^{-17} C$.

10. Bir-biridan $2 sm$ uzoqlikda turgan, potensiallari ayirmasi $120 V$ bo‘lgan ikkita parallel plastinkalar orasida elektr maydoni hosil bo‘ladi. Elektron bu maydon ta’sirida maydon kuch chiziqlari bo‘ylab $3 mm$ masofani o‘tganda qanday tezlikka erishadi?

11. Elektron yassi gorizontal kondensator plastinkalari orasiga, ularga parallel ravishda $\vartheta_x = 10^7 m/s$ tezlik bilan uchib kiradi. Kondensatordagi maydon kuchlanganligi $E = 100 V/sm$, kondensator uzunligi $l = 5 sm$. Elektron kondensator ichidan uchib chiqayotgandagi tezligining kattaligi va yo‘nalishi topilsin.

12. Har bir plastinkaning yuzi $1 m^2$ bo‘lgan yassi havo oraliqli kondensator plastinkalarining oralig‘i $1,5 mm$. Shu kondensatorning sig‘imi topilsin.

- 13.** Koaksial kabel ingichka simlarining radiusi $1,5 \text{ sm}$, qobig‘ining radiusi $3,5 \text{ sm}$. Ingichka simlar va qobiq orasiga 2300 V potensiallar ayirmasi berilgan. Kabel o‘qidan 2 sm uzoqlikdagi elektr maydoni kuchlanganligi hisoblansin.
- 14.** Havo oraliqli sferik kondensator ichki sharining radiusi $R_1 = 1 \text{ sm}$, tashqi sharining radiusi esa $R_2 = 4 \text{ sm}$. Sharlarga $U = 3000 \text{ V}$ potensiallar ayirmasi berilgan. Sharlar markazidan $x = 3 \text{ sm}$ uzoqlikdagi elektr maydonining kuchlanganligi topilsin.
- 15.** 1 m radiusli shar 30000 V potensialgacha zaryadlangan. Zaryadlangan sharning energiyasi topilsin.
- 16.** Har birining yuzi 100 sm^2 bo‘lgan kondensator plastinkalari potensiallarining ayirmasi 280 V . Plastinkalardagi zaryadning sirt zichligi $4,95 \cdot 10^{-11} \text{ C/sm}^2$. 1) kondensator ichidagi maydonning kuchlanganligi, 2) plastinkalar oraliq‘i, 3) elektronning kondensatorning bir plastinkadan to ikkinchisigacha bo‘lgan masofani o‘tishdagi olgan tezligi, 4) kondensatorning energiyasi, 5) kondensator sig‘imi, 6) kondensator plastinkalarining o‘zaro tortishish kuchi topilsin.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

- 17.** Ikkita nuqtaviy zaryad o‘zaro ta’sir kuchining ular orasidagi masofaga bog‘lanish grafigi chizilsin. Grafik $2 \leq r \leq 10 \text{ sm}$ intervalda 2 sm oraliq bilan chizilsin. Zaryadlar miqdori mos ravishda $2 \cdot 10^{-8} \text{ C}$ va $3 \cdot 10^{-8} \text{ C}$.
- 18.** Har biri uchida $7/3 \cdot 10^{-9} \text{ C}$ zaryad turgan kvadratning markaziga manfiy zaryad joylashtirilgan. Agar har zaryadga ta’sir etuvchi natijaviy kuch nolga teng bo‘lsa, markazdagi zaryadning miqdori qancha?
- 19.** Radiusi va og‘irligi bir xil bo‘lgan ikkita sharcha iplarga osilgan bo‘lib, ularning sirtlari bir-biriga tegib turadi. Sharchalarga $q_0 = 4 \cdot 10^{-7} \text{ C}$ zaryad berilgandan keyin sharchalar o‘zaro

itarishib, bir-biridan 60° burchakka uzoqlashadi. Osilish nuqtasidan to sharchaning markazigacha bo‘lgan oraliq 20 sm . Sharchaning og‘irligi topilsin.

20. Radiusi va og‘irligi bir xil bo‘lgan ikkita sharcha iplarga osilgan bo‘lib, ularning sirtlari bir-biriga tegib turadi. Osilish nuqtasidan sharchaning markazigacha bo‘lgan oraliq 10 sm . Har bir sharchaning og‘irligi $5 \cdot 10^{-3}\text{ kg}$. Iplarning tarangligi $0,098\text{ N}$ ga teng bo‘lishi uchun sharchalarga qancha zaryad berish kerak?

21. Bir xil ishorada zaryadlangan va bir xil $3 \cdot 10^{-8}\text{ C/sm}^2$ sirt zichlikka ega bo‘lgan ikkita cheksiz tekislik (yuza birligida) qanday kuch bilan itarishadi?

22. Zaryadlangan diskning diametri 25 sm ga teng. Diskdan uning markazidan normal bo‘ylab qanday eng qisqa oraliqda elektr maydonini cheksiz katta tekislik maydoni deb qarash mumkin? Bunday faraz qilishda xatolik 5% dan ortmasligi kerak.

Ko‘rsatma. Qilingan xato $\delta = \frac{E_2 - E_1}{E_2}$, bunda E_1 – diskning elektr maydon kuchlanganligi, E_2 – cheksiz tekislikning maydon kuchlanganligi.

23. 1 sm radiusli, $4 \cdot 10^{-8}\text{ C}$ zaryadli shar yog‘ ichiga joylash-tirilgan. Shar sirtidan $x = 1, 2, 3, 4, 5\text{ sm}$ uzoqlikdagi maydon nuqtalaridagi $U = f(x)$ bog‘lanish grafigi chizilsin.

24. Musbat zaryadlangan cheksiz uzun ip elektr maydoni hosil qilgan. Shu maydon ta’sirida α – zarracha ipdan $x_1 = 1\text{ sm}$ uzoqlikdagi nuqtadan $x_2 = 4\text{ sm}$ uzoqlikdagi nuqtaga qarab harakatlanib o‘z tezligini $2 \cdot 10^5\text{ m/s}$ dan $3 \cdot 10^6\text{ m/s}$ ga o‘zgartirdi. Ipdagi zaryadning chiziqli zichligi topilsin.

25. Plastinkaning oralig‘i $d = 1\text{ sm}$ bo‘lgan gorizontal holda turgan yassi kondensator ichidagi zaryadlangan yog‘ tomchisi bor. Elektr maydon bo‘limganda tomchi $\vartheta_1 = 0,011\text{ m/s}$ tezik bilan pastga tushadi. Plastinkalarga $U = 150\text{ V}$ potensiallar ayirmasi berilsa,

tomchi $\vartheta_2 = 0,043 \text{ m/s}$ tezlik bilan tushadi. Tomchining radiusi va uning zaryadi topilsin. Havoning yopishqoqlik koeffitsiyenti $\eta = 1,82 \cdot 10^{-5} \text{ N} \cdot \text{s/m}^2$, yog'ning zichligi tomchi tushayotgan gaz zichligidan $\Delta\rho = 900 \text{ kg/m}^3$ ga kattadir.

- 26.** Bir jinsli elektr maydonida elektron 10^{14} sm/s^2 tezlanish oladi. 1) Elektr maydon kuchlanganligi, 2) boshlang'ich tezligi nolga teng bo'lgandagi elektronning 10^{-6} s da olgan tezligi, 3) bu vaqt ichida elektr maydon kuchining bajargan ishi hamda 4) bunda elektronning o'tgan potensiallar ayirmasi topilsin.
- 27.** Bir xil tezlik bilan harakatlanayotgan proton va α – zarrachasi yassi kondensator plastinkalari orasiga parallel ravishda uchib kiradi. Kondensator maydoni ta'sirida protonning chetlanishi α – zarracha chetlanishidan qancha ortiq bo'ladi?
- 28.** Har bir plastinkaning yuzi 1 m^2 bo'lgan yassi havo oraliqli kondensator plastinkalarining oralig'i $1,5 \text{ mm}$. Kondensator 300 V potensialgacha zaryadlangan. Kondensator plastinkalaridagi zaryadning sirt zichligi topilsin.
- 29.** Silindrik kondensator 3 mm radiusli ichki silindr, ikki qatlama izolyator va $R = 1 \text{ sm}$ radiusli tashqi silindr dan iborat. $d_1 = 3 \text{ mm}$ qalinlikdagi birinchi izolyator qatlami ichki silindrga tegib turadi. Qatlamlardagi potensiallar tushishining nisbati topilsin.
- 30.** Havo oraliqli sferik kondensator ichki sharining radiusi $R_1 = 1 \text{ sm}$, tashqi sharining radiusi esa $R_2 = 4 \text{ sm}$. Sharlarga $U = 3000 \text{ V}$ potensiallar ayirmasi berilgan. Sharlar markaziga $r_1 = 3 \text{ sm}$ uzoqlikdan $r_2 = 2 \text{ sm}$ uzoqlikkacha yaqinlashayotgan elektron qanday tezlikka erishadi?
- 31.** $20 \mu\text{F}$ sig'imli kondensator 100 V potensialgacha zaryadlangan. Shu kondensatorning energiyasi topilsin.
- 32.** Plastinkalar oralig'i 2 sm bo'lgan yassi havo oraliqli kondensator 3000 V potensialgacha zaryadlangan. Elektr quvvati

manbaini uzmashdan turib plastinkalarni bir-biridan 5 sm gacha uzoqlashtirsak, kondensator maydonining kuchlanganligi qanday bo‘ladi? Kondensatorning plastinkalari surilishidan oldingi va surilishdan keyingi energiyasi topilsin. Har bir plastinkanining yuzi 100 sm^2 .

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. O‘zaro ta’sirlashayotgan ikkita bir xil nuqtaviy zaryad orasidagi masofaning o‘rtasiga q zaryad kiritilsa, o‘zaro ta’sir kuchi necha marta ortadi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1,5
2. Agar $NaCl$ kristallidagi ikkita qo‘sjni ion orasidagi o‘rtacha masofa $3 \cdot 10^{-18}\text{ sm}$ bo‘lsa, ular qanday kuch (nN) bilan ta’sirlashishini toping.
A) 1 B) 1,28 C) 5,5 D) 2,56
3. Quyidagilar orasidan elektr maydon kuchlanganligi ta’rifini to‘g‘ri mazmunda tulatuvchi javobni aniqlang.
Elektr maydonning biror nuqtadagi kuchlanganligi deb, miqdor jihatidan ... maydon tomonidan ta’sir etuvchi kuchga teng bo‘lgan fizikaviy kattalikka aytildi.
A) shu nuqtaga kiritilgan bir birlik musbat zaryadga
B) shu nuqtaga kiritilgan zaryadga
C) shu nuqtaga kiritilgan sinov zaryadiga
D) shu nuqtaga kiritilgan bir birlik manfiy zaryadga
E) shu nuqtaga kiritilgan manfiy zaryadga
4. Havoda 1 nKl dan bo‘lgan ikkita bir xil nuqtaviy zaryad bir-biridan 5 sm masofada joylashgan. Birinchi zaryaddan 3 sm , ikkinchi zaryadsan 4 sm masofada joylashgan nuqtada maydon kuchlanganligi nimaga teng (V/m)?
A) 100 B) 112 C) 56 D) 50
5. Ikki sharcha bir xil uzunlikdagi iplar yordamida bir nuqtaga osilgan va bir manbadan zaryadlangan. Sharchalar zichligi ρ va

dielektrik singdiruvchanligi ε bo‘lgan suyuqlikka botirliganda iplar orasidagi burchak o‘zgarmasligi uchun sharchalarning zichligi qanday bulishi kerak?

A) $\frac{\rho\varepsilon}{\rho-1}$ B) $\frac{\rho(\varepsilon-1)}{\varepsilon}$ C) $\rho\varepsilon(\varepsilon - 1)$ D) $\rho(\varepsilon + 1)$

6. Radiusi 7 sm bo‘lgan metall sharga 25 nKl zaryad berilgan. Shar markazidan 5 sm uzoqlikdagi nuqtada kuchlanganlik qanchaga teng bo‘ladi (kV/m)?

A) 450 B) 90 C) 0,9 D) 0

7. Quyidagilar orasidan elektr maydon potensialining to‘g‘ri va to‘la ta’rifini aniqlab belgilang.

A) potensial – birlik musbat zaryadga ta’sir etuvchi kuchni xarakterlaydi

B) potensial – shu nuqtadagi birlik musbat zaryadning potensial energayasiga son jihatidan teng kattalik

C) potensial – zaryadni ko‘chirishda bajarilgan ishga teng kattalik

D) potensial – kuchlanishni ifodalaydi

8. Ma’lum masofada joylashgan ikkita bir xil nuqtaviy zaryad o‘rtasidan o‘tgan ekvipotensial sirtning shakli qanday bo‘ladi?

A) yassi tekislik B) silindr C) sfera D) konus sirt

9. Vakuumda $q_1 = -10$ nKl va $q_2 = 20$ nKl nuqtaviy zaryadlar o‘zaro ta’sirlashmoqda. Ularni tutashtirushi to‘g‘ri chiziqda ikkinchi zaryaddan qanday masofalarda maydon potensiali nolga teng bo‘ladi (sm)? Zaryadlar orasidagi masoфа 42 sm ga teng.

A) 28; 84 B) 15; 42 C) 20; 54 D) 30; 42

10. Havoda tomonlari a bo‘lgan teng tomonli uchburchak uchlariga 3 ta bir xil q nuqtaviy zaryadlar joylashgan. Maydonning uchburchak markazidagi potensiali hisoblab topilsin.

A) $\frac{3\sqrt{3}}{4\pi\varepsilon_0} \frac{q}{a}$ B) $\frac{1}{4\pi\varepsilon_0} \frac{q}{a}$ C) $\frac{3\sqrt{3}}{4\pi\varepsilon_0} \frac{q^2}{a^2}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{4\pi\varepsilon_0} \frac{q}{a^2}$

11. Dielektrikni elektrostatik maydonga kiritilsa, qanday hodisa ro‘y beradi?

- A) dielektrik qutblanadi va tashqi maydonni kuchaytiradi
 B) dielektrik qutblanadi va uning ichidagi maydon kuchlanganligi nolga teng bo‘ladi
 C) dielektrik qutblanadi va tashqi maydonni susaytiradi
 D) dielektrik qutblanadi va uning ichidagi maydon kuchlanganligi tashqi maydon kuchlanganligiga teng bo‘ladi

12. To‘liq zaryadlangan va tok manbaidan uzilgan kondensator plastinkalari F kuch bilan tortiladi. Agar plastinkalar orasi dielektrik singdiruvchanligi 2 ga teng bo‘lgan modda bilan to‘ldirilsa, plastinkalar orasidaga tortishish kuchi nimaga teng bo‘ladi?

- A) F B) F/2 C) 2F D) F/4

13. R radiusli shar φ potensialgacha, $2R$ radiusli shar 2φ potensialgacha zaryadlandi. Agar sharlar bir-biriga tekkizilsa, ikkinchi shardagi zaryad miqdori qanday o‘zgaradi?

- A) 1,4 marta oshadi B) 1,2 marta oshadi
 C) 1,2 marta kamayadi D) o‘zgarmaydi


14. Agar bir xil zaryadlangan C va $2C$ sig‘imli kondensatorlar o‘zapo parallel ulansa, birinchi kondensatordagi kuchlanish qanday o‘zgaradi?

- A) 1,5 marta kamayadi B) o‘zgarmaydi
 C) 1,5 marta ortadi D) 3 marta kamayadi

15. Rasmda tasvirlangan sxemadagi kondensatorlar kuchlanishni aniqlang (V).

$$C_1 = 3 \mu\text{F}, C_2 = 7 \mu\text{F}, \varepsilon_1 = 12 \text{ V}, \varepsilon_2 = 13 \text{ V}.$$

A) 17,5; 7,5 B) 7; 18 C) 18; 7 D) 24; 1



16. Yassi kondensator plastinkalarning yuzasi S , plastinkalar orasidagi masofa L . Plastinkalar orasiga qalinligi d bo‘lgan metall plastinka kondensator plastinkalariga tekkizmasdan kiritilgan. Kondensatorning sig‘imini aniqlang.

A) $\frac{\varepsilon_0 S}{l-d}$ B) $\frac{\varepsilon_0 S}{l+d}$ C) $\frac{\varepsilon_0 S}{2(l-d)}$ D) $\frac{2\varepsilon_0 S}{l-d}$

17. Zaryadlangan va kuchlanish manbandan uzilgan W energiyali kondensatordan uni to'ldirib turgan ε dielektrik singdiruvchanlik plastinani chiqarib olish uchun qanday ish bajarish kerak?
- A) $\varepsilon \cdot W$ B) W/ε C) $(\varepsilon - l) \cdot W$ D) $(\varepsilon - 1)W/\varepsilon$
18. Manbara ulangan C sig'imli kondensatorga $2C$ sig'imli kondensator ketma-ket ulansa, C kondensator energiyasi o'zgaradi?
- A) 2,25 marta kamayadi B) 9 marta kamayadi
 C) 2,25 marta ortadi D) 9 marta ortadi
19. Agar manbadan uzilgan zaryadlangan havo kondensatori qoplamlari orasiga $\varepsilon = 16$ ga teng bo'lган modda bilan to'ldirilsa, kondensator energiyasi qanday o'zgaradi?
- A) 4 marta kamayadi B) 4 marta ortadi
 C) 16 marta kamayadi D) 16 marta ortadi
20. Sig'imi C bo'lган kondensatorning boshlang'ich zaryadi q_1 . Agar o'tkazgich orqali razryadlanish natijasida kondensator zaryadi q_2 ga kamaysa, zanjirda qancha issiqlik miqdori ajraladi?
- A) $\frac{q_1^2 + q_2^2}{2C}$ B) $\frac{q_1^2 + q_2^2}{C}$ C) $\frac{q_1^2 - q_2^2}{2C}$ D) $\frac{q_1^2 - q_2^2}{C}$

3.2. Elektr toki

Tok kuchi I son jihatdan o'tkazgichning ko'ndalang kesimiidan vaqt birligida o'tgan elektr miqdoriga teng:

$$I = \frac{dq}{dt}$$

Agar $I = \text{const}$ bo'lsa, u holda

$$I = \frac{q}{t}$$

Elektr tokining zichligi

$$j = \frac{I}{S}$$

bunda, S – o‘tkazgich ko‘ndalang kesimining yuzi.

Bir jinsli o‘tkazgich kesimidan o‘tayotgan tok kuchi Om qonuniga bo‘ysunadi:

$$I = \frac{U}{R}$$

bunda, U – o‘tkazgich qismining uchlaridagi potensiallar ayirmasi, R – shu qismining qarshiligi.

O‘tkazgich qarshiligi

$$R = \rho \frac{l}{S} = \frac{l}{\sigma S}$$

bunda, ρ – o‘tkazgichning solishtirma qarshiligi, σ – solishtirma o‘tkazuvchanligi yoki elektr o‘tkazuvchanligi, l – uzunligi, S – ko‘ndalang kesimining yuzi.

Metallarning solishtirma qarshiligi haroratga quyidagicha bog‘lanadi:

$$\rho_t = \rho_0(1 + \alpha t)$$

bunda, ρ_0 – harorat 0°C bo‘lgandagi solishtirma qarshiligi va α – qarshilikning harorat koeffitsiyenti.

Zanjirning bir qismida elektr tokining bajargan ishi quyidagicha topiladi:

$$A = IUt = I^2 Rt = \frac{U^2}{R} t$$

Berk zanjir uchun Om qonuni quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r}$$

bunda, ε – generatorning EYUK., R – tashqi qarshilik va r – ichki qarshilik (generator qarshiligi).

Zanjirdagi to‘la quvvat

$$P = \varepsilon I$$

Tarmoqlangan zanjir uchun Kirxgofning ikkita qonuni mavjud.

Birinchi qonuni: “Tugunda uchrashuvchi tok kuchlarining algebraik yig‘indisi nolga teng”:

$$\sum I = 0$$

Ikkinci qonuni: “Har qanday berk konturda zanjirning ayrim qismlaridagi potensiallar tushishining algebraik yig‘indisi, shu konturdagi EYUK larning algebraik yig‘indisiga teng”:

$$\sum IR = \sum \varepsilon$$

Kirxgof qonunidan foydalanganda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak: sxemada tegishli qarshiliklardagi toklarning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda strelkalar bilan ko‘rsatiladi. Konturni ixtiyoriy yo‘nalish bo‘yicha aylantirilganda, yo‘nalish aylanish yo‘nalishiga mos bo‘lgan toklarni musbat, yo‘nalishi aylanish yo‘nalishiga qarama-qarshi yo‘nalishda bo‘lgan toklarni manfiy deb hisoblaymiz. Aylanish yo‘nalishi bo‘yicha potensiallarni orttiruvchi EYUK ni musbat deb olamiz, ya’ni generator ichida minusdan plusga tomon yurilsa, EYUK musbat bo‘ladi. Tuzilgan tenglamalarni yechish natijasida aniqlangan miqdor manfiy chiqishi mumkin. Agar toklar aniqlansa, uning manfiy qiymati zanjir bo‘ylab haqiqiy yo‘nalishiga teskari yo‘nalishda ekanligini ko‘rsatadi. Qarshilik aniqlanganda esa manfiy qiymati noto‘g‘ri natija berishini ko‘rsatadi (chunki Om qarshiligi har vaqt musbat bo‘ladi). Bunday holda berilgan qarshilikda tokning yo‘nalishini o‘zgartirish va masalani shu shartga muvofiq yechish zarur.

Elektrolitlardagi elektr toki uchun Faradeyning qonunini qo‘llash o‘rinlidir.

Faradeyning birinchi qonuni bo‘yicha elektroliz vaqtida ajralib chiqqan modda massasi

$$m = kIt = kq$$

bunda, q – elektrolitdan o‘tgan elektr miqdori, k – moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti.

Faradeyning ikkinchi qonuni bo‘yicha elektrokimyoviy ekvivalenti kimyoviy ekvivalentga proporsionaldir, ya’ni

$$k = \frac{1}{F} \cdot \frac{A}{Z}$$

bunda, A – bir kilogram atom massasi, Z – valentlik va F – Faradey soni bo‘lib, u son jihatdan

$$F = e \cdot N_A = 9,65 \cdot 10^4 C/mol$$

Elektrolitlarning solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi quyidagi formuladan topiladi:

$$\sigma = \frac{1}{\rho} = \alpha \cdot C \cdot n \cdot F(u_+ + u_-)$$

bunda, α – disisosatsiya darajasi, C – konsentratsiya, ya’ni hajm birligidagi kilomollar soni, Z – valentlik, F – Faradey soni, u_+ va u_- – ionlarning harakatchanligi. Bunda $\alpha = \frac{nD}{n}$ hajm birligidagi disisosatsiyalangan molekulalar sonining shu hajm birligidagi eritilgan modda molekulalarining umumi soniga bo‘lgan nisbatidir. $\eta = CZ$ ekvivalent konsentratsiya deyiladi. U holda

$$\Lambda = \sigma/\eta$$

ekvivalent elektr o‘tkazuvchanlik bo‘ladi.

Gazdan o‘tayotgan tok zichligi j uncha katta bo‘lmaganda Om qonuni quyidagicha yozish mumkin:

$$j = qn(u_+ + u_-)E = \sigma E$$

bunda, E – maydonning kuchlanganligi, σ – gazning solishtirma o‘tkazuvchanligi, q – ion zaryadi, u_+ va u_- – ionlarning harakatchanligi va n – gaz hajm birligidagi har ikki ishorali ionlar soni juft ionlar soni (juft ionlar soni). Bunda

$$n = \sqrt{\frac{N}{\gamma}}$$

bo‘lib, N – ionlashtiruvchi moddaning vaqt birligida hosil qilgan juft ionlar soni, γ – molizatsiya koeffitsiyenti.

Gazda to‘yinish toki mavjud bo‘lsa, bu tokning zichligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$j_T = Nqd$$

bunda, d – elektrodlar oralig‘i.

Elektron metalldan uzilib chiqishi uchun kinetik energiyasi quyidagicha bo‘lishi kerak:

$$\frac{m\vartheta^2}{2} \geq A$$

bunda, A – elektronlarning metalldan chiqishda bajargan ishi.

Termoelektron emissiya (solishtirma emissiya) bo‘lganda to‘yinish tokining zichligi quyidagi formuladan topiladi:

$$j_T = BT^2 e^{-\frac{A}{kT}}$$

bunda, T – katodning absolyut harorati, A – chiqish ishi, k – Bolsman doimiysi, va B – har xil metallar uchun har xil bo‘lgan o‘zgarmas miqdor (emissiya doimiysi).

Masala yechish namunalari

- 1.** Agar ko'ndalang kesimining yuzi $1,6 \text{ mm}^2$ bo'lgan o'tkazgichdan 2 sekund davomida $2 \cdot 10^{19}$ ta o'tsa, tok zichligini aniqlang.

Berilgan:

$$S = 1,6 \text{ mm}^2 = 1,6 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2;$$

$$t = 2 \text{ s};$$

$$N = 2 \cdot 10^{19} \text{ ta};$$

$$j = ?$$


$q = eN$ – zaryad miqdori
U holda,

$$j = \frac{eN}{St} = 10^6 \frac{\text{A}}{\text{m}^2}$$

Javob: $j = 10^6 \frac{\text{A}}{\text{m}^2}$.

- 2.** Rasmda tasvirlangan zanjirda ampermetr $I = 1,5 \text{ A}$ tok kuchini ko'rsatmoqda. R_1 qarshilikdan o'tuvchi tok $I_1 = 0,5 \text{ A}$ ga teng.

R_2 va R_3 qarshiliklar mos ravishda 2 va 6 Om ga teng bo'lsa, ulardan o'tuvchi I_2 va I_3 tok kuchlari va R_1 qarshilikni toping.



Berilgan:

$$I = 1,5 \text{ A};$$

$$I_1 = 0,5 \text{ A};$$

$$R_2 = 2 \text{ Om};$$

$$R_3 = 6 \text{ Om};$$

$$R_1; I_2; I_3 = ?$$

Yechish:

Rasmdagi zanjirdagi qarshiliklar ketma-ket ulangani uchun,

$$I = I_1 + I_2 + I_3; \quad (2.1)$$

$$U = U_1 = U_2 = U_3 = \text{const} \quad (2.2)$$

$$U_1 = I_1 R_1 \quad (2.3)$$

R_2 va R_3 qarshiliklar uchun

$$U = (I_1 + I_2) \frac{R_2 R_3}{R_2 + R_3} \quad (2.4)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi, bundan $U = U_1$ ekanligini inobatga olsak,

$$I_1 R_1 = (I_1 + I_2) \frac{R_2 R_3}{R_2 + R_3} \quad (2.5)$$

(2.1) ifodadan $I_2 + I_3 = I - I_1$ tenglikni (2.5) tenglikka qo‘yib, R_1 ni topamiz:

$$R_1 = \frac{(I - I_1)}{I_1} \cdot \frac{R_2 R_3}{R_2 + R_3} = 3 \text{ Om}$$

$$I_2 = \frac{U}{R_2} = \frac{I_1 R_1}{R_2} = 0,75 \text{ A}; \quad I_3 = \frac{U}{R_3} = \frac{I_1 R_1}{R_3} = 0,25 \text{ A}$$

Javob: $R_1 = 3 \text{ Om}$; $I_2 = 0,75 \text{ A}$; $I_3 = 0,25 \text{ A}$.

3. Tashqi zanjirda tok kuchi 4 A bo‘lganda, quvvat 10 Vt , tok kuchi 2 A da esa 8 Vt qiymatga ega bo‘lgan bo‘lsa, manbaning EYUK va ichki qarshiliginini aniqlang.

Berilgan:

$$\begin{aligned} I_1 &= 4 \text{ A}; \\ P_1 &= 10 \text{ Vt}; \\ I_2 &= 2 \text{ A}; \\ P_2 &= 8 \text{ Vt}; \\ \hline \varepsilon; r &=? \end{aligned}$$

Yechish:

To‘liq zanjir uchun Om qonuni

$$\varepsilon = I(R + r) \quad (3.1)$$

(3.1) tenglikni har ikki tomonini I ga ko‘paytirib,

$$\varepsilon I = I^2 R + I^2 r$$

hosil qilamiz. Bu ifodadan $I^2 R = P$ ekanligidan

$$\varepsilon I = P + I^2 r \quad (3.2)$$

(3.2) ifodadan $1 - \text{hol}$ uchun quvvat quyidagiga teng:

$$P_1 = \varepsilon I_1 - I_1^2 r \quad (3.3)$$

bundan

$$r = \frac{\varepsilon I_1 - P_1}{I_1^2} \quad (3.4)$$

2 – hol uchun

$$P_2 = \varepsilon I_2 - I_2^2 r \quad (3.5)$$

(3.4) ifodani (3.5) ga qo‘yib,

$$P_2 = \varepsilon I_2 - \frac{I_2^2}{I_1^2} (\varepsilon I_1 - P_1) = \varepsilon I_2 - \varepsilon \frac{I_2^2}{I_1} + P_1 \frac{I_2^2}{I_1^2}$$


ni hosil qilamiz. Bundan

$$\varepsilon = \left(P_2 - P_1 \frac{I_2^2}{I_1^2} \right) / \left(I_2 - \frac{I_2^2}{I_1} \right) = 5,5 \text{ V} \quad (3.6)$$

$$r = \frac{\varepsilon}{I_1} - \frac{P_1}{I_1^2} = 0,75 \text{ Om} \quad (3.7)$$

Javob: $\varepsilon = 5,5 \text{ V}$; $r = 0,75 \text{ Om}$.

4. Rasmida $R_1 = R_2 = 50 \text{ Om}$, $R_3 = 100 \text{ Om}$, $C = 50 \text{ nF}$. Agar kondensatordagi zaryad $q = 2,2 \mu\text{Kl}$ bo‘lsa, manbaning EYUK ni toping. Manbaning ichki qarshiligi hisobga olimasin.



Berilgan:

$$\begin{aligned} R_1 &= R_2 = 50 \text{ Om}; \\ R_3 &= 100 \text{ Om}; \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} C &= 50 \text{ nF} = \\ &= 5 \cdot 10^{-8} \text{ F}; \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} q &= 2,2 \mu\text{Kl} = \\ &= 2,2 \cdot 10^{-6} \text{ Kl}; \end{aligned}$$

$$\underline{\varepsilon = ?}$$

U holda,

Yechish:

Rasmdagi kondensatorda kuchlanish tushuvi

$$U = U_C = \frac{q}{C}$$

R_1 va R_2 qarshiliklar parallel ulanganlugi sababli,

$$U = I \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2}$$

$$I = \frac{q(R_1 + R_2)}{CR_1R_2}$$

R_3 qarshilikdagi kuchlanish tushuvi

$$U_3 = IR_3 = \frac{q(R_1 + R_2)R_3}{CR_1R_2}$$

ga teng.

Manbaning EYUK esa,

$$\varepsilon = U + U_3 = \frac{q}{C} \left(1 + \frac{(R_1 + R_2)R_3}{CR_1R_2} \right) = 220 \text{ V.}$$

Javob: $\varepsilon = 220 \text{ V.}$

5. Qarshiliklari teng bo‘lgan ikkita termistor o‘zgarmas kuchlanish manbaiga ketma-ket ulandi. Termistorlardan birini sovitish natijasida undagi kuchlanishning tushuvi 1,5 marta ortgan bo‘lsa, uning qarshiligi necha marta ortgan?

Berilgan:

$$R_1 = R_2 = R; \\ U'_1 = 1,5U_1;$$

$$\underline{R_x = ?}$$

Yechish:

a) Dastlab $R_1 = R_2 = R$ desak (5.1 – rasm), tok kuchi

$$I_1 = \frac{U}{R_1 + R_2} = \frac{U}{2R}$$


Umumiy kuchlanish esa,

$$U = U_1 + U_2 \quad (5.1)$$

Qarshiliklar ketma-ket ulanganligi
uchun

$$I_1 = I_2$$

U holda,



5.1 – rasm

$$\frac{U_1}{R_1} = \frac{U_2}{R_2}$$

bunda, $R_1 = R_2 = R$ ekanligidan, $U_1 = U_2$ kelib chiqadi.

(5.1) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$U = U_1 + U_2 = 2U_1$$

bu yerdan,


$$U_1 = U/2 \quad (5.2)$$

b) Shartga asosan qarshiliklarni biri ortganda, $U'_1 = 1,5U_1$ bo‘ladi (5.2 – rasm).

5.2 – rasmdagi zanjir uchun umumiy kuchlanish

$$U = U'_1 + U'_2 \quad (5.3)$$

Qarshiliklar ketma-ket ulanganligi uchun



5.2 – rasm

$$\frac{U'_1}{R_x} = \frac{U'_2}{R_2}$$

bundan,

$$U'_2 = \frac{U'_1}{R_x} R$$

U holda, (5.3) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$U'_1 + \frac{U'_1}{R_x} R = U$$

bundan,

$$U'_1 = \frac{UR_x}{R_x + R} \quad (5.4)$$

Masala shartiga ko‘ra, $U'_1 = 1,5U_1$ ekanligidan, (5.2) va (5.4) ifodalarni shartga muvofiq yozsak,



$$\frac{UR_x}{R_x + R} = 1,5 \frac{U}{2}$$

bundan, $R_x = 3R$ kelib chiqadi.

Javob: Qarshilik 3 marta ortgan.

Mavzuga oid masalalar

- Qarshiligi $40\text{ }Om$ bo‘lgan pech yasash uchun, radiusi $2,5\text{ }sm$ li chinni silindrga diametri $1\text{ }mm$ li nixrom simdan necha qavat o‘rash keak?
- Mis simli g‘altak cho‘lg‘amining qarshiligi $14\text{ }^{\circ}\text{C}$ da $10\text{ }Om$ ga teng. Tokka ulangandan keyin qarshiligi $12,2\text{ }Om$ ga teng bo‘lib qoladi. Cho‘lg‘am qancha haroratgacha qiziydi? Mis qarshiligining harorat koeffitsiyenti $4,15 \cdot 10^{-3}\text{ }1/K$ ga teng.
- Elementning elektr yurituvchi kuchi $6\text{ }V$ ga teng, tashqi qarshilik $1,1\text{ }Om$ bo‘lganda zanjirdagi tok kuchi $3\text{ }A$ ga teng. Element ichidagi potensialning tushishi va uning qarshiligi topilsin.
- Rasmdagi qarshilik $R_1 = 0,5\text{ }Om$, ε_1 va ε_2 ikkita element bo‘lib, har birining EYUK $2\text{ }V$ ga teng. Bu elementlarning ichki qarshiligi tegishlicha $r_1 = 1\text{ }Om$ va $r_2 = 1,5\text{ }Om$. Har bir element qisqichlaridagi potensiallar ayirmasi topilsin.
- Rasmdagi sxemada ampermetr ko‘rsatgan tok kuchi aniqlansin. Berk konturda element qisqichlaridagi kuchlanish $2,1\text{ }V$ ga teng: $R_1 = 5\text{ }Om$, $R_2 = 6\text{ }Om$ va $R_3 = 3\text{ }Om$. Ampermetrning qarshiligi hisobga olinmasin.




6. 10 A tokka mo‘ljallangan, qarshiligi 0,18 Om va shkalasi 100 ga bo‘lingan ampermetr berilgan. 1) shu ampermetr 100 A gacha bo‘lgan tokni o‘lchash uchun qanday qarshilik olish va uni qanday ulash kerak? 2) bunda ampermetr shkalasi bo‘linmalarining qiymati qanday o‘zgaradi?

7. Batareyaning EYUK 240 V, qarshiligi 1 Om , tashqi qarshilik 23 Om . Batareyaning 1) umumiy quvvati, 2) foydali quvvati va 3) F.I.K. topilsin.

8. Elementni oldin $R_1 = 2 \text{ } Om$ li tashqi qarshilikka so‘ng $R_2 = 0,5 \text{ } Om$ li tashqi qarshilikka ulanadi. Bu hollarning har birida tashqi zanjirda olinadigan quvvat bir xil va $2,54 \text{ } Vt$ ga teng bo‘lsa, elementning EYUK va uning ichki qarshiligi topilsin.

9. Rasmda EYUK 120 V bo‘lgan ε batareya hamda $R_1 = 25 \text{ } Om$, $R_2 = R_3 = 100 \text{ } Om$ bo‘lgan qarshiliklar berilgan. R_1 qarshilikda ajralgan quvvat topilsin. Batareyaning qarsiligi hisobga olinmasin.




10. Quvvati $0,5 \text{ kVt}$ bo‘lgan plita ustida ichiga $16 \text{ } ^\circ\text{C}$ haroratlari 1 l suv quyilgan choynak turibdi. Choynakdagisi suv plita tokka ulangandan 20 minut o‘tgach qaynadi. Bunday choynakning isishi, nurlanish va hakazo uchun qancha issiqlik yo‘qolgan bo‘ladi?


11. Isitgich $23 \text{ } ^\circ\text{C}$ haroratdagi $4,5 \text{ l}$ suvni qaynatguncha $0,5 \text{ kVt} - soat$ energiya sarflangan. Isitgichning F.I.K. topilsin.

12. Ko‘ndalang kesimining yuzi $S_1 = 3 \text{ mm}^2$ bo‘lgan mis simdan iborat zanjirga ko‘ndalang kesimining yuzi $S_2 = 1 \text{ mm}^2$ bo‘lgan qo‘rg‘oshin simdan saqlagich ulangan. Bu saqlagich zanjirda qisqa tutashuv bo‘lganda o‘tkazgichlarning harorati qancha ko‘tarilishi uchun mo‘ljallangan? Qisqa tutashuv tufayli kam vaqtli protsessda ajralgan hamma issiqlik zanjirni isitishga ketadi deb hisoblansin. Saqlagichning boshlang‘ich haroratsi $t_0 = 17 \text{ } ^\circ\text{C}$ ga teng.


- 13.** Rasmdagi sxemada birining EYUK $2,1\text{ V}$, ikkinchisi $1,9\text{ V}$ bo‘lgan ikkita element hamda $R_1 = 45\text{ Om}$, $R_2 = 10\text{ Om}$ va $R_3 = 10\text{ Om}$ qarshiliklar berilgan. Zanjirning hamma qismidagi tok kuchi topilsin. Elementlarning ichki qarshiliklari hisobga olinmasin.




- 14.** Rasmdagi sxemada $\varepsilon_1 = 110\text{ V}$, $\varepsilon_2 = 220\text{ V}$ hamda $R_1 = R_2 = 100\text{ Om}$, $R_3 = 500\text{ Om}$ qarshiliklar berilgan. Ampermetrning ko‘rsatishi aniqlansin. Batareyalar va ampermetrning ichki qarshiligi hisobga olinmasin.




- 15.** Rasmida sxemada $\varepsilon_1 = 2\text{ V}$, $\varepsilon_2 = 4\text{ V}$, $R_1 = 4\text{ Om}$, $R_2 = 6\text{ Om}$ va $R_3 = 8\text{ Om}$. Zanjirning hamma qismidagi tok kuchi topilsin. Elementlarning qarshiligi hisobga olinmasin.



- 16.** Ramda sxemada $\varepsilon_1 = \varepsilon_2 = 110\text{ V}$ hamda $R_1 = R_2 = 200\text{ Om}$ qarshiliklar berilgan. Voltmetrning qarshiligi 1000 Om . Uning ko‘rsatishi topilsin. Batareyaning qarshiligi hisobga olinmasin.



- 17.** Rasmdagi sxemada qarshiliklari $R_1 = 3000\text{ Om}$ va $R_2 = 2000\text{ Om}$ bo‘lgan ikkita voltmetr, V_1 va V_2 berilgan; $R_3 = 3000\text{ Om}$ va $R_4 = 2000\text{ Om}$, $\varepsilon = 200\text{ V}$. 1) Kalit K ulangan-dagi voltmetrlarning ko‘rsatishi topilsin. Batareyaning qarshiligi hisobga olinmasin. Masalani Kirxgof qonunlarini qo‘llab yeching.




Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

18. Lampali reastat parallel ulangan beshta elektr lampochkadan iborat. 1) Hamma lampochka yonganidagi, 2) a) bitta lampochka buralib o‘chirilgandagi, b) ikkita o‘chirilgandagi, c) uchtasi o‘chirilgandagi, d) to‘rttasi o‘chirilgandagi reastat qarshiligi topilsin. Har bir lampochkaning qarshiligi 350 Om .


19. Elektr yurituvchi kuchi $1,1\text{ V}$, ichki qarshiligi 1 Om bo‘lgan element 9 Om li tashqi qarshilikka ulangan. 1) Zanjirdagi tok kuchi, 2) tashqi zanjirdagi potensiallarning tushishi, 3) elementning ichidagi potensialning tushishi, 4) element qanday F.I.K bilan ishlashi topilsin.

20. Element, reastat va ampermetr ketma-ket ulangan. Elementning EYUK 2 V va ichki qarshiligi $0,2\text{ Om}$. Ampermetr 1 A ni ko‘rsatadi, elementning F.I.K topilsin.


21. Rasmdagi sxemada EYUK 20 V ga teng bo‘lgan ε batareya hamda R_1 va R_2 reastatlar berilgan. R_1 reastat ulanmaganda ampermetr 8 A ni ko‘rsatadi, R_1 ulanganda esa 5 A ni ko‘rsatadi. Reastat-larning qarshiligi va R_1 reastat to‘la ulanganda potensiallarning tushishi topilsin. Batareya va ampermetr qarshiligi hisobga olimasin.



22. Rasmdagi sxemada $R_2 = 20\text{ Om}$, $R_3 = 15\text{ Om}$ va R_2 qarshilikdan o‘tayotgan tok kuchi $0,3\text{ A}$ ga teng. Ampermetr $0,8\text{ A}$ ni ko‘rsatib turgan bo‘lsa, R_1 qarshilik qancha bo‘ladi?




23. Rasmdagi sxemada $R_1 = R_2 = R_3 = 200\text{ Om}$, voltmetrning ko‘rsatishi 100 V , voltmetrning qarshiligi $R_V = 1000\text{ Om}$ bo‘lgandagi batareyaning EYUK topilsin. Batareya qarshiligi hisobga olinmasin.



24. Uzunligi va diametri bir xil bo‘lgan mis hamda po‘lat simlar zanjirga parallel ulangan. 1) Bu simlardan ajralgan issiqlik miqdorlarining nisbati va 2) kuchlanishlar tushishining nisbati topilsin.

25. EYUK ε va ichki qarshilikgi r bo‘lgan element tashqi qarshilik R ga ulangan. Tashqi zanjirdagi eng ko‘p quvvat $9 Vt$ ga teng. Bu holda zanjirdan o‘tayotgan tok kuchi $3 A$ ga teng. ε va r ning qiymati topilsin.


26. Rasmda qarshilik $R_1 = 100 \text{ Om}$, shu qarshilikda ajralgan quvvat $P = 16 \text{ Vt}$. Generatorning F.I.K. 80% . R_3 qarshilikdagi potensialning tushishi 40 V ga teng bo‘lsa, generatorning EYUK topilsin.



27. Elektr choynakning ikkita chulg‘ami bor. Chulg‘amlardan bittasi ulanganda choynakdagi suv 15 minutda, ikkinchisi ulanganda 30 minutda qaynadi. Ikkala chulg‘am ketma-ket ulanganda choynakdagi suv qancha vaqtda qaynaydi? Parallel ulanganda-chi?


28. $1 l$ sig‘imga ega bo‘lgan suvli termostatning haroratsi 26 Vt quvvatli isitgich yordamida o‘zgarmas holda saqlanadi, shu quvvatning 80% suvni isitishga sarf bo‘ladi. Isitgichni uzib qo‘yilsa, 10 minutda termostatdagi suvning harorati qancha gradusga pasayadi?

29. Uitston ko‘prigidagi generatorning EYUK 2 V , $R_1 = 30 \text{ Om}$, $R_2 = 45 \text{ Om}$ va $R_3 = 200 \text{ Om}$. Galvanometrdan o‘tayotgan tok kuchi nolga teng. Har bir tarmoqdagi tok kuchi topilsin. Generatorning qarshiligi hisobga olinmasin.




30. Rasmdagi sxemada ichki qarshiliklari $r_1 = r_2 = 0,5 \text{ Om}$, EYUK lari $\varepsilon_1 = \varepsilon_2 = 4 \text{ V}$ dan berilgan. ε_1 dan o‘tayotgan tok kuchi 2 A ga teng bo‘lsa, tashqi R qarshilik qanchaga teng bo‘ladi?


ε_2 dan o'tayotgan I_2 tok kuchi topilsin. R qarshilikdan o'tayotgan I_R tok kuchi topilsin.




31. Rasmdagi sxemada $\varepsilon_1 = 2 \text{ V}$, $\varepsilon_2 = 4 \text{ V}$, $R_2 = 20 \text{ Ohm}$ va $R_3 = 10 \text{ Ohm}$. Ampermetrdan 1 A tok o'tadi. R_1 qarshilik topilsin. Batareya va ampermetr qarshiliklari hisobga olinmasin.




32. Rasmdagi sxemada $\varepsilon_1 = 25 \text{ V}$, R_1 qarshilikdagi potensialning tushishi 10 V ga teng bo'lib, bu R_3 qarshilikdagi potensialning tushishiga teng va R_2 qarshilikdagi potensialning tushishidan ikki marta ko'pdir. ε_2 va ε_3 larning qiymati topilsin. Batareyalar qarshiligi hisobga olinmasin.



33. Rasmdagi sxemada EYUK lari va ichki qarshiliklari bir xil bo'lgan ikkita element ε_1 va ε_2 hamda $R_2 = 1 \text{ Ohm}$ qarshilik berilgan. ε_1 element qisqichlaridagi potensiallarining tushishi 2 V bo'lib, u ε_2 element qisqichlaridagi potensiallari tushishishidan ikki marta ko'p. R_2 qarshilikdagi potensiallar tushishi ε_2 elementdagi potensiallar tushishiga teng. Elementlarning EYUK va ishki qarshiligi topilsin.



34. Rasmdagi sxemada $\varepsilon_1 = \varepsilon_2 = 1,5 \text{ V}$, $r_1 = r_2 = 0,5 \text{ Ohm}$, $R_1 = R_2 = 2 \text{ Ohm}$ va $R_3 = 1 \text{ Ohm}$ berilgan. Milliampermetr mA ning ko'rsatishi topilsin. Milliampermetrnning qarshiligi 3 Ohm ga teng.



Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. Metallar o'tkazuvchanligining klassik elektron nazariyasiga ko'ra j/en ifoda qaysi kattalikni beradi? (j – tok zichligi, e – elektron zaryadi, n – elektronlarning konsentrasiyasi)

 - A) solishtirma qarshilik
 - B) qarshilik
 - C) tok kuchi
 - D) elektronlar tartibli harakatining o'rtacha tezligi

2. Agar diametri 2 mm bo'lgan o'tkazgichdan 6,28 A tok o'tayotgan bo'lsa, tok zichligi nimaga teng bo'ladi (A/m^2)?

 - A) $6 \cdot 10^6$
 - B) $2 \cdot 10^6$
 - C) $1 \cdot 10^6$
 - D) $4 \cdot 10^6$

3. Elektr qarshiligi 324 Ω bo'lgan o'tkazgichni nechta teng bo'lakka bo'lib, ularni ustma-ust taxlasak umumiy qarshilik 9 Ω ga teng bo'ladi?

 - A) 6
 - B) 12
 - C) 4
 - D) 24

4. Chizmadagi reostatning surgichi A nuqtadan B nuqtaga ko'chirilganda ampermetrning kursatishi 1,25 marta oshdi. R_x qarshilik R qarshilikdan necha marta katta?

 - A) 1,5
 - B) 1/2
 - C) 1/3
 - D) 4


5. Uzunligi 10 m, solishtirma qarshiligi $5 \cdot 10^{-7}$ $\Omega \cdot \text{m}$, bo'lgan o'tkazgichga 10 V kuchlanish berilgan. O'tkazgichdagi tokning zichligi nimaga teng (A/m^2)?

 - A) 10^3
 - B) 10^4
 - C) $2 \cdot 10^6$
 - D) 10^5

6. Quyidagi qaysi qatorda, faqat vektor fizik kattaliklar keltirilgan?

 - A) maydon kuchlanganligi, EYUK, tok kuchi
 - B) kuch, maydon kuchlanganligi, tok zichligi
 - C) kuch, EYUK, maydon kuchlanganligi
 - D) kuch, tok kuchi, tok zichligi


7. Akkumulyatorni zaryadlashdagi tok kuchining qiymati 4 A va klemmalaridagi kuchlanish 12,8 V, razryadlashdagi tok kuchi esa 6 A va klemmalardaga kuchlanish 11,1 V. Akkumulyatorning ichki qarshiligini aniqlang (Ω). A) 1,7 B) 17 C) 0,17 D) 170



8. Agar o'zgarmas kuchlanish manbaiga ulangan R qarshilikka $2R$ qarshilik ketma-ket ulansa, R qarshilikdagi kuchlanishning tushuvi necha marta kamayadi?

- A) 3 marta B) 2 marta C) 1,5 marta D) o'zgarmaydi

9. Agar $R_1 = 800 \text{ Om}$, $R_2 = 1000 \text{ Om}$ va shu zanjirning umumiy qarshiligi 480 Om bo'lsa, zanjirga ulangan voltmetrning o'lchash chegarasi necha marta oshirilgan? A) 4 B) 5 C) 6 D) 3



10. Vagon ketma-ket ulangan 10 ta lampochka bilan yoritiladi. Agar vagonii 8 ta lampochka bilan yoritiladigan qilinsa, elektr energiya sarfi qanday o'zgaradi?

- A) o'zgarmaydi B) kamayadi
C) ortadi D) lampochkalarning quvvatiga bog'liq

11. P va $2P$ quvvatga ega bo'lgan, bir xil kuchlanishga mo'ljalangan ikkita lampochka tarmoqqa ketma-ket ulansa, zanjirning umumiy quvvati qancha bo'ladi?


- A) $P/3$ B) $P/9$ C) $2P/3$ D) $P/2$

12. Agar tok kuchi 30 A bo'lganda, tashqi zanjirda quvvat 180 Vt ; tok kuchi 10 A bo'lganda esa quvvat 120 Vt ga teng bo'lsa, tok manbaining EYUK qancha bo'ladi (V)?

- A) 15 B) 14 C) 10 D) 13

13. $R_1 = R_2 = r$ ekanligi ma'lum bo'lsa, a) sxemadan b) sxemaga o'tganda, zanjirning tashqi qismidagi quvvat qanday o'zgaradi?

- A) 2 marta oshadi
B) 2 marta kaiayadi
C) 4 marta kamayadi
D) o'zgarmaydi



14. Quyida berilgan jumlaning mazmuniga mos ravishda gapni davom ettiring: «Elektrolitdan tok o'tganda, katodda ajralib chiqqan modda massasi ...»

1) elektrolitdan o'tgan zaryad miqsoriga to'g'ri proporsional bo'lib, moddaning turiga ham bog'liq bo'ladi. 2) elektrolitdan o'tgan tok kuchi va moddaning elektrokimyoviy ekvivalentining ko'paytmasiga teng. 3) elektrolitdan o'tgan tok kuchiga va tok o'tish vaqtining ko'paytmasiga teng bo'ladi.

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2, 3

15. Sirtining yuzi 10 sm^2 bo'lgan temir qoshiqni qalinligi 80 mkm bo'lgan kumush bilan qoplash uchun kumush tuz eritmasi orqali qancha zaryad o'tkazish kerak (Kl)? $\rho_{\text{kum}} = 10,5 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$, $k_{\text{kum}} = 1,12 \text{ mg/Kl}$. A) 7500 B) 750 C) 75000 D) 7550

16. Termoelektron emissiya nima?

- A) qizdirilgan qattiq jism yuzasidan musbat ionlarning nurlanishi
B) qizdirilgan qattiq jism yuzasidan elektronlarning nurlanishi
C) atom yadrosining parchalanishi
D) atomning elektron va ionga ajralishi

17. Diiodda anod kuchlanishi 250 V ga teng. Anodga nechta elektron yetib borganda, elektr maydoni $1,6 \text{ J}$ ish bajaradi?

- A) $4 \cdot 10^{16}$ B) $6,4 \cdot 10^{16}$ C) $3 \cdot 10^{19}$ D) $5 \cdot 10^{16}$

18. Yarim o'tkazgichlarda akseptor aralashmasi bo'lganda, ... soni ortadi. Mazkur jumladagi nuqtalar o'rнshsh to'ldiring.

- A) kovaklar B) erkin elektronlar
C) protonlar D) erkin neytronlar

19. Qarshilikning termik koeffisienti qanday moddalar uchun manfiy?

- A) elektrolitlar, metallar B) elektrolitlar, yarim o'tkazgichlar
C) metallar D) dielektriklar

20. Qarshiliklari teng bo'lgan ikkita fotorezistor o'zgarmas kuchlanish manbaiga ketma-ket ulandi. Fotorezistorlardan birini yoritish natijasida zanjirdaga tok kuchi 1,5 marta oshgan bo'lsa, uning qarshiliqi necha marta kamaygan?

- A) 1,5 B) 2 C) 3 D) 4,5

IV. TEBRANISH VA TO'LQINLAR

4.1. Mexanik tebranma harakatlar va to'lqinlar

Garmonik tebranma harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishiga ega:

$$x = A \sin\left(\frac{2\pi t}{T} + \varphi\right) = A \sin(2\pi v t + \varphi) = A \sin(\omega t + \varphi)$$

bunda, x – nuqtaning muvozanatlik vaziyatidan siljishi (u turli vaqt paytlari uchun turlicha bo'ldi), A – amplituda, T – davr, φ – boshlang'ich faza, v – tebranishlar chastotasi, ω – burchak chatotasi.

Tebranayotgan nuqtaning tezligi

$$\vartheta = \frac{dx}{dt} = \frac{2\pi A}{T} \cos\left(\frac{2\pi t}{T} + \varphi\right)$$

va tezlanishi

$$a = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d^2x}{dt^2} = -\frac{4\pi^2 A}{T^2} \sin\left(\frac{2\pi t}{T} + \varphi\right)$$

ga teng.

m massali nuqtani garmonik tebrantirayotgan kuch

$$F = ma = -\frac{4\pi^2 A}{T^2} m \sin\left(\frac{2\pi t}{T} + \varphi\right)$$

bunda, $k = \frac{4\pi^2 A}{T^2} m$, bundan

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}$$

bu yerda, T esa $F = -kx$ kuch ta'sirida tebranayotgan nuqtaning tebranish davri; k – deformatsiya koeffitsiyenti bo'lib, son jihatdan 1 ga teng siljishni vujudga keltiruvchi kuchga teng.

Tebranayotgan nuqtaning kinetik energiyasi

$$W_k = \frac{m\vartheta^2}{2} = \frac{2\pi^2 A^2 m}{T^2} \cos^2 \left(\frac{2\pi t}{T} + \varphi \right)$$

va potensial energiyasi

$$W_p = \frac{kx^2}{2} = \frac{2\pi^2 A^2 m}{T^2} \sin^2 \left(\frac{2\pi t}{T} + \varphi \right)$$

To'la energiyasi

$$W = \frac{2\pi^2 A^2 m}{T^2}$$

Mayatnikning kichik tebranishlari garmonik tebranma harakatlarga misol bo'lishi mumkin. Matematik mayatnikning tebranish davri

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}}$$

ga teng, bunda l – mayatnikning uzunligi va g – og'irlik kuchining tezlanishi.

Bir xil davrga ega, bir tomonga yo'nalgan ikki garmonik tebranishlar qo'shilganda, davri o'zgarmagan

$$A = \sqrt{A_1^2 + A_2^2 + 2A_1 A_2 \cos(\varphi_2 - \varphi_1)}$$

amplitudali va boshlang'ich fazasi

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{A_1 \sin \varphi_1 + A_2 \sin \varphi_2}{A_1 \cos \varphi_1 + A_2 \cos \varphi_2}$$

tenglamadan aniqlanadigan garmonik tebranish hosil bo'ladi. A_1 va A_2 – qo'shiluvchi tebranishlar amplitudalari, φ_1 va φ_2 – ularning boshlang'ich fazalari.

Birday davrli o'zaro perpendikulyar ikki tebranishlar qo'shilganda natijaviy harakat trayektoriyasining tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{x^2}{A_1^2} + \frac{y^2}{A_2^2} - \frac{2xy}{A_1 A_2} \cos(\varphi_2 - \varphi_1) = \sin^2(\varphi_2 - \varphi_1)$$

m massali moddiq nuqtaga elastik kuch $F = -kx$ dan tashqari ishqalanish kuchi $F_{ishq} = -r\vartheta$ ham (bunda r – ishqalanish koeffitsiyenti va ϑ – tebranayotgan nuqta tezligi) ta'sir etayotgan bo'lsa, nuqtaning tebranish so'na boradi.

So'nuvchi tebranma harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$x = A e^{-\delta t} \sin(\omega t + \varphi)$$

bunda, δ – so'nish koeffitsiyenti. Bunda, $\delta = r/2m$ va $\omega = \sqrt{\omega_0^2 - \delta^2}$, formuladagi ω_0 – xususiy tebranishning burchak chastotasi. $\aleph = \delta T$ kattalik so'nishning logarifmik dekrementi deb ataladi.

Tebranishi $x_1 = A e^{-\delta t} \sin \omega_0 t$ ko'rinishda berilgan m massali moddiy nuqtaga tashqi davriy $F = F_0 \sin \omega t$ kuch ta'sir etayotgan bo'lsa, u holda nuqtaning tebranishi majburiy bo'ladi va uning harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$x_2 = A \sin(\omega t + \varphi)$$

bunda

$$A = \frac{F_0}{m \sqrt{(\omega_0^2 - \omega)^2 + 4\delta^2 \omega^2}}$$

va

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{2\delta\omega}{\omega_0^2 - \omega^2}$$

Majburiy tebranishlar chastotasi ω xususiy tebranishlar chastotasi ω_0 va so'nish koeffitsiyenti δ bilan quyidagi munosabatda bog'langanda rezonans vujudga keladi:

$$\omega = \sqrt{\omega_0^2 - 2\delta^2}$$

So'nmaydigan tebranishlar nur deb ataluvchi muayyan yo'nalish bo'y lab c tezlikda tarqalayotganida shu nur yotuvchi va tebranishlar manbaidan l masofada turgan har qanday nuqtaning siljishi quyidagi tenglama bilan beriladi:

$$x = A \sin\left(\frac{2\pi t}{T} - \frac{2\pi l}{\lambda}\right)$$

bunda, A – tebranayotgan nuqtalarning amplitudasi, λ – to'lqin uzunligi. Chunonchi $\lambda = cT$. Nurda tebranishlar manbaidan l_1 va l_2 masofada yotuvchi ikki nuqtaning fazalar ayirmasi quyidagicha

$$\varphi_2 - \varphi_1 = 2\pi \frac{l_2 - l_1}{\lambda}$$

To'lqinlar interferensiyasida quyidagi shartda maksimum amplituda hosil bo'ladi.

$$l_2 - l_1 = 2n \frac{\lambda}{2} \quad (n = 0, 1, 2, \dots)$$

bunda, $l_2 - l_1$ – nurlar yurish yo'lining farqi.

$$l_2 - l_1 = (2n + 1) \frac{\lambda}{2} \quad (n = 0, 1, 2, \dots)$$

shartda amplituda minimum bo'ladi.

Masala yechish namunalari

1. Amplitudasi $A = 15 \text{ sm}$, tebranayotgan nuqtaning maksimal tezligi $\vartheta_{max} = 30 \text{ sm/s}$ va boshlang'ich fazasi $\varphi = 10^0$ bo'lsa, tebranayotgan nuqtaning harakat tenglamasini yozing.

Berilgan:

$$A = 15 \text{ sm} = 0,15 \text{ m}; \\ \vartheta_{max} = 30 \frac{\text{sm}}{\text{s}} = 0,3 \frac{\text{m}}{\text{s}}; \\ \varphi = 10^0;$$

$$x = ?$$

Yechish:

Garmonik tebranma harakat tenglamasi

$$x = A \sin(\omega t + \varphi) \quad (1.1)$$

(1.1) ifodadan vaqt bo'yicha birinchi tartibli hosila olsak,

$$\vartheta = A\omega \cos(\omega t + \varphi)$$

ega bo'lamiz. U holda,

$$\vartheta_{max} = A\omega \quad (1.2)$$

(1.2) dan $\omega = \vartheta_{max}/A$ va $\varphi = \pi/18$ ekanligini hisobga olsak, (1.1) ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$x = A \sin\left(\frac{\vartheta_{max}}{A} t + \frac{\pi}{18}\right) = 0,15 \sin\left(2t + \frac{\pi}{18}\right) \text{ m.}$$

Javob: $x = 0,15 \sin\left(2t + \frac{\pi}{18}\right) \text{ m.}$

2. Tebranayotgan nuqtaning amplitudasi $A = 10 \text{ sm}$, tebranish davri $T = 5 \text{ s}$ bo'lsa, uning maksimal tezligi va maksimal tezlanishini aniqlang.

Berilgan:

$$A = 10 \text{ sm}; \\ T = 5 \text{ s};$$

$$\vartheta_{max}; \ a_{max} = ?$$

Yechish:

Garmonik tebranma harakat tenglamasi

$$x = A \sin(\omega t + \varphi) \quad (2.1)$$

(2.1) ifodadan vaqt bo‘yicha birinchi tartibli hosila olsak,

$$\vartheta = A\omega \cos(\omega t + \varphi) \quad (2.2)$$

(2.2) ifodada $A\omega = \vartheta_{max}$, bunda $\omega = 2\pi/T$ ekanligini inobatga olsak,

$$\vartheta_{max} = A\omega = \frac{2\pi A}{T} = 0,126 \text{ m/s}$$

(2.1) ifodadan ikkinchi tartibli hosila olsak,

$$x'' = a = -A\omega^2 \sin(\omega t + \varphi) \quad (2.3)$$

(2.3) ifodada $A\omega^2 = a_{max}$. U holda,

$$a_{max} = A\omega^2 = \frac{4\pi^2 A}{T^2} = 0,158 \text{ m/s}$$

Javob: $\vartheta_{max} = 0,126 \text{ m/s}$; $a_{max} = 0,158 \text{ m/s}$.

3. $m = 0,016 \text{ kg}$ massali moddiy nuqtaning tebranish tenglamasi $x = 0,1 \sin\left(\frac{\pi}{8}t + \frac{\pi}{4}\right) \text{ m}$. a) Bu nuqtaga ta’sir qilayotgan maksimal F_{max} kuchni; b) tebranayotgan nuqtaning W to‘liq energiyasini toping.

Berilgan:

$$m = 0,016 \text{ kg};$$

$$x = 0,1 \sin\left(\frac{\pi}{8}t + \frac{\pi}{4}\right) \text{ m};$$

$$F_{max}; W = ?$$

Yechish:

Berilgan nuqtaning tebranish tenglama-sini garmonik tebranish tenglamasi

$$x = A \sin(\omega t + \varphi)$$

bilan solishtirib, nuqtaning tebranish amplitudasi $A = 0,1 \text{ m}$; boshlang‘ich fazasi $\varphi = \pi/4$ va doiraviy chastotasi $\omega = \pi/8 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$ ekanini topamiz, bunda $T = 16 \text{ s}$.

F_{max} kuch tezlanish qiymati maksimal bo‘lgan nuqtaga ta’sir qiladi. Shuning uchun Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan

$$F_{max} = ma_{max} \quad (3.1)$$

bunda, $a_{max} = A\omega^2$ ekanidan

$$F_{max} = mA\omega^2 = 2,46 \cdot 10^{-4} N$$

b) Tebranayotgan nuqtaning to‘liq energiyasi

$$W = \frac{m\omega^2 A^2}{2} = 1,23 \cdot 10^{-5} J$$

Javob: $F_{max} = 2,46 \cdot 10^{-4} N; W = 1,23 \cdot 10^{-5} J.$

4. Quyidagi tenglamalar bilan berilgan, bir xil yo‘nalishga ega bo‘lgan ikki $x_1 = 2 \sin\left(5\pi t + \frac{\pi}{2}\right) m$ va $x_1 = 2 \sin\left(5\pi t + \frac{\pi}{4}\right) m$ tebranishlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan garmonik tebranishning B amplitudasi va boshlang‘ich fazasi φ ni toping.

Berilgan:

$$\begin{aligned} x_1 &= 2 \sin\left(5\pi t + \frac{\pi}{2}\right) m; \\ x_1 &= 2 \sin\left(5\pi t + \frac{\pi}{4}\right) m; \end{aligned}$$

$$B; \varphi = ?$$

Yechish:

Qo‘shilayotgan tebranishlaring amplitudasi va boshlangich fazalari mos ravishda

$$A_1 = A_2 = A = 2 m;$$

$$\varphi_1 = \frac{\pi}{2} \text{ va } \varphi_2 = \frac{\pi}{4}$$

Masalaning sharti bir tomonga yo‘nalgan, doiraviy chastotalari va amplitudalari bir xil, biroq fazalari turlicha bo‘lgan tebranishlarni qo‘sishgaga mos keladi. Shuning uchun natijaviy tebranishlarning

boshlang‘ich fazalaridan bu fazalar farqining yarmiga farq qilishi kerak, ya’ni

$$\varphi = \varphi_2 + \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{2} = \frac{3\pi}{8} \text{ rad.}$$

U holda, natijaviy tebranishning B amplitudasi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$B = 2A \cos \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{2} \approx 3,7 \text{ m.}$$

Javob: $\varphi = \frac{3\pi}{8} \text{ rad}; B \approx 3,7 \text{ m.}$

5. Garmonik tebranayotgan nuqtaning to‘la energiyasi $W = 10 \text{ mJ}$, nuqtaga ta’sir qilayotgan maksimal kuch $F_{max} = -0,5 \text{ mN}$. Agar bu nuqtaning tebranish davri $T = 4 \text{ s}$ va boshlang‘ich fazasi $\varphi = \pi/6$ bo‘lsa, uning harakat tenglamasini yozing.

Berilgan:

$$\begin{aligned} W &= 10 \text{ mJ} = 10^{-2} \text{ J}; \\ F_{max} &= -0,5 \text{ mN} = \\ &= -5 \cdot 10^{-4} \text{ N}; \\ T &= 4 \text{ s}; \\ \varphi &= \pi/6; \end{aligned}$$

$$x(t) = ?$$

Yechish:

Garmonik tebranayotgan nuqtaning to‘la energiyasi

$$W = \frac{2\pi^2 A^2 m}{T^2} = \frac{A^2 \omega^2 m}{2} \quad (5.1)$$

Maksimal ta’sir kuchi esa,

$$|F_{max}| = mA\omega^2 \quad (5.2)$$

(5.1) tenglikni (5.2) orqali ifodalasak,

$$W = \frac{|F_{max}| A}{2}$$

ifodaga ega bo‘lamiz, bundan

$$A = \frac{2W}{|F_{max}|} = 0,04 \text{ m}$$

Garmonik tebranayotgan nuqta harakatining

$$x = A \sin(\omega t + \varphi)$$

bunda, $\omega = \frac{2\pi}{T} = \frac{\pi}{2}$ ekanligidan

$$x = A \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi\right) = 0,04 \sin\left(\frac{\pi}{2}t + \frac{\pi}{6}\right)$$

Javob: $x = 0,04 \sin\left(\frac{\pi}{2}t + \frac{\pi}{6}\right)$.

Mavzuga oid masalalar

- Amplitudasi $0,1 \text{ m}$, davri 4 s va boshlang'ich fazasi nolga teng bo'lgan garmonik tebranma harakat tenglamasini yozing.
- Tebranishlarning boshlang'ich fazasi: 1) 0 , 2) $\pi/2$, 3) π , 4) $3\pi/2$, 5) 2π bo'lgan garmonik tebranma harakat tenglamasini yozing. Tebranishlar amplitudasi 5 sm va tebranishlar davri 8 s . Bu hollarning hammasi uchun tebranishlar grafigini chizing.
- Nuqta garmonik tebranadi. Tebranishlar davri 2 s , amplitudasi 50 mm , boshlang'ich fazasi nolga teng. Nuqtaning muvozanat vaziyatidan 25 mm ga siljigan paytdagi tezligini toping.
- Vaqtning 1) $t = T/12 \text{ s}$, 2) $t = T/8 \text{ s}$, 3) $t = T/6 \text{ s}$ paytlari uchun garmonik tebranayotgan nuqta kinetik energiyasining uning potensial energiyasiga bo'lgan nisbati nimaga teng? Tebranishning boshlang'ich fazasi nolga teng.
- Prujinaga 1 kg yuk osilgan. Prujina 1 N kuch ta'sirida $1,5 \text{ sm}$ cho'zilishi ma'lum bo'lsa, yukning vertikal tebranish davrini aniqlang.

- 6.** $x_1 = 0,02 \sin(5\pi t + \pi/2) \text{ m}$ va $x_2 = 0,03 \sin(5\pi t + \pi/4) \text{ m}$ tenglamalar bilan berilgan, bir tomonga yo‘nalgan tebranishlarni qo‘shishdan hosil bo‘lgan garmonik tebranish amplitudasi va boshlang‘ich fazasini toping.
- 7.** Nuqta bir vaqtida ikki $x = 2 \sin \omega t \text{ m}$ va $y = 2 \sin \omega t \text{ m}$ o‘zaro perpendikulyar bo‘lgan tebranishlarda qatnashadi. Nuqtaning harakati trayektoriyasini toping.
- 8.** Matematik mayatnikning so‘nish logarifmik dekrementi 0,2 ga teng. Mayatnikning bir marta to‘la tebranishida amplitudasi necha marta kamayishini toping.
- 9.** Chastotasi $v = 50 \text{ Hz}$ va amplitudasi $A = 0,25 \text{ mm}$ bo‘lgan tovush tebranishi havoda tarqalayapti. To‘lqin uzunligi $\lambda = 70 \text{ sm}$.
 1) Tebranishning tarqalish tezligini 2) havo zarrachalarining maksimal tezligini toping.
- 10.** $t = T/6$ payt uchun tebranish manbaidan $l = \lambda/12$ masofadagi nuqtaning muvozanat vaziyatidan qanchaga siljishi aniqlansin. Tebranish amplitudasi $A = 0,05 \text{ sm}$.

Mustaqil yechish uchun masalalar (Uyga vazifa)

- 11.** Garmonik tebranishlar amplitudasi 50 mm , davri 4 s va boshlang‘ich fazasi $\pi/4$. 1) Mazkur tebranishning tenglamasini yozing. 2) $t = 0$ va $t = 1,5 \text{ s}$ bo‘lganda tebranayotgan nuqtaning muvozanat vaziyatidan siljishini toping.
- 12.** $x = 7 \sin 0,5\pi t$ tenglama bo‘yicha tebranma harakat qilayotgan nuqta harakat boshlanganidan qancha vaqt o‘tgach, muvozanat vaziyatidan maksimal siljishga qadar yo‘lni o‘tadi?

- 13.** Nuqtaning harakat tenglamasi $x = \sin \frac{\pi}{6} t$ ko‘rinishida berilgan. Maksimal tezlik va tezlanishlarga erishiladigan vaqt paytlarini toping.
- 14.** Massasi 10 g bo‘lgan moddiy nuqta $x = 5 \sin \left(\frac{\pi t}{5} + \frac{\pi}{4} \right) \text{ sm}$ tenglama bo‘yicha tebranadi. Nuqtaga ta’sir etuvchi maksimal kuchni va tebranayotgan nuqtaning to‘la energiyasini toping.
- 15.** Uzunligi 2 m bo‘lgan ipga osilgan sharchani 4^0 burchakka og‘dirilib, tebranishi kuzatiladi. Tebranishni so‘nmaydigan garmonik tebranish deb faraz qilib, sharcha muvozanat vaziyatidan o‘tayotgandagi tezligini toping. Mexanika tenglamalaridan sharchaning muvozanatlilik vaziyatidan o‘tish tezligini topib, olingan yechimni tekshirib ko‘ring.
- 16.** Prujinaga yuk osilgan. Yuk tebranishning maksimal kinetik energiyasi 1 J ekanligi ma’lum bo‘lsa, prujinaning deformatsiya koeffitsiyentini toping. Tebranish amplitudasi 5 sm .
- 17.** Og‘irligi $P = 0,02\text{ N}$ bo‘lgan areometr suyuqlikda qalqimoqda. Areometrni suyuqlikka bir oz botirib, so‘ngra qo‘yib yuborilsa, u $T = 3,4\text{ s}$ davr bilan tebrana boshlaydi. Tebranishni so‘nmaydigan deb hisoblab, shu tajriba ma’lumotlariga asoslanib areometr qalqib yurgan suyuqlikning zichligi ρ ni toping. Areometrning vertikal silindrik naychasining diametri $d = 1\text{ sm}$.
- 18.** 1) $x_1 = 4 \sin \pi t \text{ sm}$ va $x_2 = 3 \sin(\pi t + \pi/2) \text{ sm}$ tenglamalar bilan berilgan, bir tomonga yo‘nalgan tebranishlarni qo‘shishdan hosil bo‘lgan garmonik tebranish amplitudasi va boshlang‘ich fazasini toping. 2) Natijaviy tebranish tenglamasini yozing. 3) Amplitudalarni qo‘shishning vektor diagrammasini chizing.
- 19.** $\nu_1 = \nu_2 = 5\text{ Hz}$ bir xil chastota va $\varphi_1 = \varphi_2 = 60^0$ bir xil boshlang‘ich fazali o‘zaro perpendikulyar ikki tebranishlarni qo‘shish natijasida olinadigan natijaviy tebranish tenglamasini

